



GABRIEL GARSIA MARKES

O'KILAYOTGAN

yaprolar



MARKES ADABIYOTI TURKUMIDAN

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,
Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov, Nurboyo
Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev**

Tarjimonlar:

**Shahnoza RAHMONOVA, Boboxon
MUHAMMAD SHARIF**

Nobel mukofoti sovrindori Gabriel Garsia Marquesning „To'kila-yotgan yaproqlar“ qissasi inson taqdiri haqida bitilgan mungli qo'shiqqa o'xshaydi. Bir tomonda odamlarga yordam berishdan bosh tortib, yolg'zilikda o'zini o'linga mahkum qilgan insonni so'nggi yo'lga kuzatish burchi. Boshqa tomonda uning o'z xonasida irib-chirib ketishini istagan olomonning qarshiligi.

Ushbu asar har bir kitobxonni o'ylashga, mushohadaga chorlaydi.

Shuningdek, ushbu to'plamdan adibning „Oq yo'l, janob prezident“ hikoyasi ham o'rin olgan.

NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqmiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqi-shar ekan. o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikkens, L.N.Tolstoy, A.Dyuma, N.V.Gogol, O.de Balzak, A.P.Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G.Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dundar, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y.Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga muyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'girilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rin olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalari ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

Gabriel Garsia MARKES

Aytishlaricha, itdek o'lim topgan Polinikning jasadi masalasida Kreont shunday hukm chiqarganmish: shahar ahlidan biror kimsa o'likni qabrga qo'ymas, o'limiga qayg'urib aza tutmasin, tanasi odamga o'xshab ko'milmay, quzg'unlarga yem qilinsin. Emishki, odil Kreont bu farmonni oshkora aylab, sen-u meni, ayniqsa, meni o'ylab haliyam hag'rikenglik qilibdi, o'zi shu yerga kelib hukmdan bexabarlarga saboq bo'lishi uchun ko'mish marosini o'tkazilmasligini takror o'qib eshittirgay, g'alibo, uning amriga qarshi borганиni xalq toshbo'ron qiladi.

(„Antigona“dan)

TO'KALAYOTGAN YAPROQLAR

Sokin qishloq o'rtasida kutilmaganda ko'tarilgan uyur-mali shamolday yopirilgan banan kompaniyasi¹ chirigan xazonlarni olib keldi. Havoda tinmay aylanayotgan barglar begona joylarning supurindisi-yu tobora afsonaga aylanayotgan fuqarolar urushining kuliday tuyulardi. Qovjiragan yaproqlar to'rt tomonga sochilib ketdi. U hali-hanuz odamlarni bevosh olomon, qattol ajalning badbo'y hidi bilan zaharlardi. Bundan qariyb bir yil burun u adoqsiz kulfatlarni yog'dirayotganidan qishloq boshi falokatdan chiqmay qoldi, ko'chalarga chirkin adovat urug'larini ekib chiqdi. Sarkash to'fon nafasida yig'ilgan bu adovat urug'lari uyumi sochilib, sohilining bir tomoni qabriston-u ikkinchisi begona qishloqlardan yig'ilgan axlat uyumidan butkul jin ko'chaga aylandi.

Qo'lida yo bir jomadon, yo tugun ko'targan juldur kiyimli yolg'iz musofir erkag-u ayollar qishloqqa oldin-

¹Lotin Amerikasining ko'pgina mamlakatlarida AQSH kompaniyalari qit'a yerlarini egallab, banan plantatsiyalariga aylantirishgan. Bundan manfaatdor bo'lgan mamlakat hukmdorlari ham kelgindilarning ko'ngliga kelganini qilishiga yo'l qo'yib berishgan. Banan imperiyasini joriy etgan korchalonlarning zulmi bir necha yil xalqning qonini so'rib, tinka madorini quritgani nazarda tutilmoqda.

ma-keyin kirib kelishar, xachirlarining bezakli arqonini musofirxona ustuniga bog'lashar va qishloqdan muqim qo'nim topishardi. Hayrli ishning erta-kechi yo'q, urush maydoniga qachon kirgani-yu qanday jang qilganiga qaramay, hukumat bo'ynidagi qarz – harbiy unvon, uy-joy, ikki ma'shuqaga ega bo'lgach, avvalgi odamlarning shiddatli nafasi kuchli girdobga aylandi-yu bu yerda serizdihom joylar: baqqollik do'konlari, kasalxona, ishratxona, elektrostansiya qoldiqlarini qayta rostladi.

Katta shaharlardagi alamli muhabbat salqitlari boshi aylanib, xazon barglar girdobida biz tomonlarga qadami yetishi hamonoq, yog'och kulbalarni barpo etdi, avvalida bu xilvat go'shalardagi jaholat botqog'iga botgan zulmat to'shaklar kunjagi bir kechaga yashirin boshpanadek xizmat qilgan bo'lsa, keyin notanish raftori buzuqlarning sershovqin ko'chasi va bora-bora butun qishloq fohishaxonaga aylandi.

Serqatnov yo'ldagi o'tovlar, yo'lovchi qiyofasidagi erkaklar, soyabonlari ila yuzlarini to'sib, bo'xchasini boshida ko'targan ayollar, notanish chehralar, musofirxona sayisxonasida ochlikdan eti ustaxoniga yopishgan xachirlar – bu to's-to'polon orasida surgun qilinganlarning birinchi-yu oxirgisi biz bo'lganmiz va boz ustiga hamma-miz bir dumalab katta amaldagi mansabdorlarga aylangan jo'jxo'rozlar edik.

Xalq sillasini quritgan urushdan so'ng unumdor Makondoga qadam qo'yganimizda, bir kunmas bir kun bu zamin-ga ham taraqqiyot otashnafasi yetib kelishi ehtimoli haqida elburutdan to'n bichgandig-u, biroq kuchini chamalamagandik. Yopirilib kelayotgan oqim shiddatini his qilganimizda esa u ko'pga qo'shib bizni g'arq qilishini, ostonada qo'l qovushtirib kutish-u qirq yil qiron kelganda ham ajali yetgan o'ladi, deya taqdirga tan berishdan bo'lak chora qolmagandi. Mana, poyezdning ilk hushtagi yangradi.

Xazonlar poyezd istiqboliga chiqdi, biroq ular og'irlashib, kuchdan qolgandi, vaqt mahv etgan qovjiragan yaproqlar asta-sekin yerga qo'nib, manglayiga bitilgan ko'rgilik – chirishni boshdan kechirib, yerga singib ketdilar.

(Makondo, 1909-yil)

1

Hayotimda ilk bora o'lgan odamni ko'rdim. Maktabga yubormay, egnimga bir joyimni achishtirayotgan ko'm-ko'k chiyduxoba kastum-shim kiydirib, yasantirishdi. Shu uchun haftaning chorshanbasi menga bozor kuniga o'xshab tuyuldi. Biron buyumga urilib ketishdan hayiqqanidan hassasi bilan timirskilanib, o'ziga yo'l topib, sekin odimlayotgan shabko'r, boz ustiga biroz oqsoq Bobomning ortidan ergashib kelardik. Oyimning qo'lidan tutib, mehmonxonadagi ko'zgu qarshisidan o'tayotganimda, o'zimni boshdan oyoq ko'm-ko'k ust-bosh-u bo'ynimni qichishtirayotgan ohori to'kilmagan oppoq bo'yinbog'da ko'rdim. Chang bosgan toshoynadagi aksimga termilib: „Ha, bu men, tavba, bugun xuddi bozor kuniga o'xshaydi-ya“, – dedim o'zimga-o'zim.

O'lgan odam yotgan xonaga kirdik.

Diqqinapas to'rt devor orasida bo'g'ilib qolish hech gapmas. Tashqarida garmsel g'uvullashidan bo'lak sas quloqqa chalinmaydi. Jazirama oftob shunchalar tobiga olganki, otashi go'yo chiviqni eritishga tayyorday tuyulardi. Xonani eski sandiq isi tutib ketgandi. Tevarak-atrofga sinchiklab qaradim, biroq o'lgan odamga ko'zim tushmadi. Burchakdagi halqalarning birida belanchak osig'liq. Xonadan axlatning qo'lansa hidi burqsirdi. Kiyguligi yo'q, to'zib, ado bo'lgan eski-tuski lash-lushlardandir, degan xayolga borgandim, bil'aks ularda mutlaqo boshqacha hid o'rnatilgandi.

Ilgarilari o'lgan odamlarni tasavvurimga shlapadan ayro sig'dirolmasdim. Hozir esa buning aksini ko'rib turibman. Guvohi bo'lganim: ular mo'ysafid, jag'i ro'mol bilan tang'ib qo'yilarkan. Ochilib qolgan og'iz, ko'kimtir lablar orasidan sarg'aygan aji-buji tishlar ko'zga tashlanyapti. Qo'llar arqonni tortishi hamon tishlar orasida qisilganidan shishib, yuzidan ham battar qoraygan bir parcha til yon tomonga osilib yotibdi. Shu choqqacha o'lgan odam jim uxlayotgan odamga o'xshasa kerak, deb yurardim. Alhol ko'z oldimda buning aksi namoyon: bedor, boz ustiga mushtlashuvdan so'ng ham hovuri bosilmagan odamday ekan.

Oyim ham bozor kundagiga o'xshab yasangan. U boshiga yuzini to'sgan eski poxol shlapani ilib, egniga bo'yni-yu bilagigacha yopiq, uzun yoqali-yu yengli qora ko'ylagini kiygan. Bugun chorshanbaligi uchun bu kiyimda ko'zimga oyimning istarasi sira issiq ko'rinmas, negadir mutlaqo begonaday tuyulmoqda edi. Bobom tobutkashlar istiqboliga chiqib so'rashayotganda, u men tomonga g'alati qarab qo'ydi, chamamda nimadir demoqchi edi-yu, tag'in indamay qo'ya qoldi. Derazaga orqasini o'girgan oyim, garchi shundoq qo'l cho'zsam yetadigan joyda turganiga qaramay, bugun ilk bora ko'z ilg'amas darajada mendan olislagandek. U og'ir-og'ir nafas olar, shoshilinchda boshiga qo'ndirgan shlapasi ostidan titilib, tashqariga otilib chiqayotgan sochlarini yig'ishtirishga urinardi. Bobom odamlarga tobutni o'lik yotgan to'shak oldiga qo'yishni buyurdi. Shundan keyingina murda uning ichiga sig'ishiga ko'zim yetdi. Tobutni ko'tarib kirishganida, xayolimda u bu tana uchun g'oyat kichkinalik qiladiganday edi.

Nega meni bu g'arib xonadonga ergashtirib kelishdikan, hayronman. Ilgari bu katta uyga sira qadam bosma-

ganman, u ko'zimga kimsasiz xaroba bo'lib ko'ringan. Muyulishdagi uy atrofida esimni taniganimdan beri tirik jon qora berganini eslolmayman. Qishloqdagi hech zog' yashamaydigan yagona xonadon shu ekaniga amin edim. Onam: „Tushdan so'ng maktabga bormaysan!“ deganida, har doimgidek kutilmagan baxtdan boshim osmonga yetgani yo'q, sababi u bu gapni mungli ohangda aytdi va indamay egnimga chiyduxoba kastum-shimimni kiydirdi, Bobomga ergashib, uyimizdan uch hovli naridagi uyga yetganimizdagina unda kimdir yashaganini angladim. O'z uyimizdan chiqayotganimizda oyim: „Qulog'ingga yaxshilab quyib ol, bola, do'xtirning dafn marosimida mo'min-qobilgina bo'lib o'tir!“ deya qattiq tayinlagandi, demak, o'sha do'xtir deganlari bugun vafot etgan va u mana shu xarob kulbada umrguzaronlik qilgan ko'rinadi.

Rostdan, ichkarida hech qanday murdaga ko'zim tushmadi. Darvoza yonida Bobomdan bo'lak tik turgan odamning o'zi yo'q. U o'tgan-ketgan tanish-bilishlar bilan so'rashib, mezbonday hammani ichkariga manzirat qilardi. Bu xonadonda birov bordir devdim, biroq ostona-ga qaraboq, yuragim orqaga tortdi. Uy huvullab qarovsiz yotgan zimiston, ovloq go'shaning o'zginasi. Issiq taffot¹ boshiindan ayamay musht tushirganday bo'ldi. Ko'z oldim qorong'ilashib, go'yo qirg'oq o'pib, tag'in ortiga qaytayotgan to'lqin kabi dimog'imga „gup“ etib urilgan o'tirishib qolgan o'tkir qo'lansa hid otashi baland jazirama taffotga qarishib nafas olgani qo'ymasdi. Oyim qo'limdan tutgancha xona bo'ylab yurgizdi-yu burchakka, yoniga o'tqazib qo'ydi. Biroz vaqtdan keyin men buyumlarni ajrata boshladim. Bir mahal bobomga qaragam, u hassa yordamida ochilmaganidan shishib, xuddi yelimplangan-

¹ Taffot – ko'ngilni behuzur qiluvchi issiq shamol.

day yopishib, qayishgan yog'och deraza lo'kidonini surishga urinyapti. Egnidagi yaktagi yog'och tirqishlaridan ko'tarilayotgan changdan oppoq oqarib qoldi. U ortiq kuchi qolmaganini aytganida, boshimni ko'tardim, nigohim beixtiyor to'shakka qadaldi, unda birov borday tuyuldi. Boshdan oyoq qop-qora kiyimdagi erkak uzala tushib yotgan joyida qimirlamas, mutlaqo harakatsiz edi. Oyimga o'girildim, u hamon jiddiy va begona, boshqa tomonga qarab xayol surardi. Oyoqlarim yer o'pmay, havoda muallaq osilib turardi. Barmoqlarimni sonim ostiga qo'yib, kaftimda siqqancha hech narsa haqida o'ylamay, ularni o'ynatib o'tirishga qaror qildim. Haytovur oyimning gaplarini esladim: „Do'xtirning dafn marosimida mo'min-qobilgina bo'lib o'tir!“. Biqinimga sovuq narsa tekkanday bo'ldi. Ortimga o'girildim, ammo yog'och devordan bo'lak hech nima ko'zga tashlanmadi, devor orasidan kimningdir tovushi eshitildi: „Oyoqlaringni o'ynatma. To'shakda yotgan odam o'sha do'xtirning xuddi o'zginasi va u chindan ham jonsiz!“. Men o'lgan odamga boshdan oyoq razm soldim. U xotirjam uxlayotgan odam emas, balki chindan ham joni chiqqan murdaligiga fahmim yetdi.

O'sha lahzadan boshlab, jonimni jabborga berib, bor kuchim bilan ortga qaramaslikka tirishardim, kimdir boshimdan mahkam tutib orqaga tortar, nigohim qayerga tushmasin, har joydan o'lgan odamning do'layib ketgan ko'zlari-yu ko'kimtir yuzi ko'rinish berardi.

Qiziq, negadir dafn marosimiga hech kim kelmadi – bobom va qo'l ostida ishlaydigan to'rt nafar guaxiro-hindudan bo'lak... Ular og'ir qopda ohak olib kelishdi va tobut ichiga sohib chiqishdi. Oyim hozirgidek g'alati, parishonxotir o'tirmaganida edi, buni so'rab-bilib olardim. Qiziq, nima uchun tobutga ohak to'kib chiqishdiykan? Erkaklardan biri ohakdan bo'shagan qopni qoqqanida, oxiri-

da undan ohakdan ko'ra, ko'proq qipiqqa o'xshash sariq xashak sochildi. Hindular o'lgan odamning oyoq-ko'lidan tutishdi. O'lik egnida kulrang ko'ylak, ishtonbog'i beliga mahkam tugilgan keng shim, qiziq, negadir bir, ya'ni faqat chap oyog'idagina poyabzal bor edi, xolos. Adaning: „Bir oyoq hukmdor-u ikkinchisi qul“, – degani shudir, balki. Poyabzalning ikkinchi poyi karavotning bir burchagida yotibdi. To'shakda o'lgan odam aziyat chekayotganday edi, tobutda sokin-u osudalikka erishganday tuyuldi. Qovog'idan qor yog'ayotgan o'lik yuzi o'z o'rmini topganidan bo'lsa kerak, andak yorishib, yumshaganday, ishonch topganday o'zgardi.

Bobom xona bo'ylab aylanardi. U qo'lga ilingan narsani tobut ichiga joylashtirardi. Uning xatti-harakatidan tuzuk-quruq biror nima anglamaganim bois, izoh berar. deya tag'in oyimga ilinj bilan tikildim. U pinagini buzmay, tobutdagi o'lgan odamga qaramaslikka zo'r berib tirishardi. Men ham o'girilmaslikni xohlayman, ammo qo'limdan kelmasdi. Bu istak shunchalar ustun ediki, beixtiyor o'likning qiyofasini o'rganardim. Bobom tobutga qora muqovali yon daftarni qo'yishi hamonoq, hindularga ishora qildi va uchovlon uning og'zini yopishdi. Mana endi qushday yengil bo'ldim, boshimni mahkam tutib, orqaga qarashga majbur qilgan qo'llar sekin-asta qo'yib yubordi.

Oyimga tikildim. U bu yerga kelganimizdan beri ilk bora menga qarab, zo'rma-zo'raki ma'nosiz iljaydi. Mu-yulish ortiga o'tib ketayotgan poyezd hushtagi qulog'imga chalindi. Tobut yotgan joyda bir nima qimirlaganday bo'ldi. Hindulardan biri uning og'zini ochgach, Bobom unutib qoldirilgan o'sha bir poy poyabzalni ichiga joylashtirdi. Tag'in poyezd hushtak chaldi, biroq endi ovoz olislardan eshitildi, tuyqus „uch yarim“, degan fikr lip etib xayolimdan o'tdi. Baayni shu chog' – poyezd hushtak

chalib, Makondoni aylanib o'tganida – bolalar juft-juft bo'lib tizilib, tushdan keyingi birinchi darsga borishlarini esladim.

„Abram“, – deyman ichimda...

* * *

Men bolani ergashtirib, kelmasligim kerak edi. Tavba, o'likning yuki tushadi, demabman ham. O'ttizga yaqinlashayotganimga qaramay, o'zim azaning yurakni ezadigan muhitiga arang chidayman-ku, bu ona suti og'zidan ketmagan go'dakkinadan nima gina. E Xudo, haliyam ertaroq bu bexosiyat ostonadan oyog'imizni uzsak bo'lardi-ya. O'n yetti yil birov bilan bordi-keldi qilmay, qalbi mehr-muhabbat, odamgarchilikka o'xshash tuyg'ulardan mosuvo odamning uyida nafas olish og'irligi bahonasi bilan otamga uzr-ma'zur aytib, ona-bola keta qolsakmikan? Otamni ko'zim qiymaydi-da. Ehtimol, bu g'ayrioddiy odamga qishloqda yakkash undan bo'lak biror xayrixoh topilmas. Tushunksiz xayrixohlik sharofati bilan bugun mana shu o'lgan odam to'rt devor orasida chirib ketishga mahkum etilmasdan odamga o'xshab ko'miladi.

Meni xavotirga solayotgani – bularning bari boshdan oyoq xuddi kulgili hangomaga o'xshab borayotganida. Boz ustiga bir daqiqadan keyin o'lgan odamni so'nggi manzilga kuzatish bahonasida tobut ko'tarib, ostona hatlashimiz hamon bu izdihomga yig'ilganlar achinishga o'xshash tuyg'uni emas, bil'aks, quvonch-u qoniqish hissini tuymoqliklaridan qo'rqaman. Makondoda otning qashqasiday ma'lum-u mashhur qishloq ahli nafratiga sazovor, xalq qarg'ishiga duchor, hamma yuz o'girgan, tobutda chiriyotgan murdaga muruvvat ko'rsatishga qaror qilgan uch odam – otasi, otasiga ergashgan qizi-yu onasining ortidan qolmagan g'o'r bolasiga ayollar derazaga

qo'llarini tirab, qanday boqishlarini, so'ng sazoyi qilishlarini elburutdan tasavvur qildim. Otamning mana shu qaysarligini deb, boshga balo orttirib olishimiz tayin, basharti ertaga o'zimizni so'nggi manzilga kuzatuvchi bir ko'ngilli topilmasa, ajablanmasdim.

O'zim ham tuzuk emasman, otamdan qolar joyim yo'q, undan o'tib, go'r bo'larmidim, u meni ayamaganiday, men ham bolamni andisha qilmadim. Otam: „Men bilan birga borasan!“ – deganida, haytovur „O'g'limni o'zim bilan olib ketishim kerak!“ – xayolimga kelgan birinchi fikr shu bo'ldi, bu o'zimni ojiz his qilmaslik uchun edi. Mana endi sentabr jaziramasida shu xosiyatsiz uyning diqqinafas havosidan siqilib, dushmanlarning qahrli nigohiga nishon bo'lgan mahkumlarday o'tiribmiz. Otamga nima, xavotir olishiga hojat yo'q, olamni suv bossa to'pig'iga chiqmaydi. Aslini olganda, u umr bo'yi odamlar fikrini bir pulga olmay, gap-so'zlariga beparvo, yuragi nimani buyursa, ongi ma'qullaganini burch deya adog'iga yetkazib, shu zayl ko'ngil mayli ila umrguzaronlik qildi. Adashmasam, chamasi yigirma besh yil avval bu kimsa ilk bora uyimizga qadam bosganida yurish-turishiga qarab, otam eldan burun hali shunday kun keladiki, uning o'ligi ko'chada xorzor bo'ladi, qishloq ahli, hatto tanasini quzg'unlarga yem qilishdan toymasliklarini xayolga cho'mgan ko'yi aytgandi. Ehtimol, u o'shandayoq barchasini avvaldan ko'ribilib, yaxshi-yomonini chamalab, og'ir-yengilini toroziga qo'yib, vaqti-soati yetganida qanday yo'l tutsa, to'g'ri bo'lishini o'ylab qo'ygan, alhol yigirma yil o'tib, shubhasiz, avvaldan ko'ngliga tukkanini poyoniga yetkazishni burchi deb bilgani uchun ham qurbi yetsa, mayyitni Makondo ko'chalari bo'ylab qo'lida ko'tarib yurishga tayyor.

O'limdan xabarim bor-u, lekin otamning hech bir qolipga sig'maydigan ushbu farzni ado etmoqlikni qachon

bo'yniga olganidan bexabarman, boz ustiga meni ham bu ishga bosh qo'shishga majburlashga qaror qilgani yetti uxlab tushimgayam kirmagan, biroq shuni bilamanki, shubhasiz, buni anglaganimdan ancha ilgari o'ylab qo'yganiga ko'zim yetyapti. U: „Men bilan birga borasan!“ deganida hali so'zlar ma'nisini anglamay, barcha o'z ma'vosida o'lib-chirib yo kuyib kulga aylanishini istagan odamni hurmat-ehtirom ila qabrga qo'yish qanchalar kulgili-yu sharmandali ekanini o'ylab ham ko'rmabman.

Qishloq ahli, nafaqat umid qilgan, balki shu kunni izo chekmay, vijdon azobisiz andishasizlarcha intiq kutar va hattoki, bir ajoyib kunda, qishloqda, to'rt devor orasida ko'mishlariga mahtal jasad xor-zor bo'lishiga ishonchi komil, ustiga ustak biror kimsa uning o'limidan xavotirga tushmasligi, ko'z-yoshi-yu diydiyo qilmasdan, aksincha, zoriqib kutilgan soat yetganidan yayrab, jirkanch tana o'zining kul saroyida yetti olam qahri-g'azabini qaynatar darajada sasib, bijg'ib ketishiga amin edi.

Biz suvni ko'rmay etik yechgan Makondoni bu baxtdan mosuvo etdik. „Hafsalasi pir bo'lgan butun qishloq ahlining qayg'u-yu qahrga to'la qalbi buni aslo mag'lubiyat deb tan olmasdan, aksincha, farahbaxsh onlarning biroz muddat ortga surilishi deya qabul qilgay“, – miyamda charx urayotgan o'ydan vujudimni vahm bosyapti.

Aslida bolamni uyda qoldirib, o'n yildan buyon qishloq ahli-yu tabib o'rtasida gurkirab yonib, avjiga chiqsa chiqqan-u, pasaymay kelayotgan dushmanlik olovi o'cho'g'iga bu go'dakkinani ro'para qilmasligim kerakmidi? No-rasidamni ergashtirib, xato qildim. Bechora ta'ziyaga nega olib kelishgani-yu bu ivirsigan xonada nima uchun o'tirganining fahmiga bormaydiyam. Bolaginam o'rindiqda kaftida sonini siqib, oyoqlarini o'ynatganicha, uqtirilganday sukut saqlab, garangsib, atrofda ro'y berayotganlar o'ng-

mi-tushmi, aqli yetmay, birov bu dushvor boshqotirmanini yechishga yordamlashishini kutyapti. Men esa tuyg'ular olamiga ichkari kirishga qo'ymayotgan o'sha ko'rinmas eshikni hech kim unga ochmasligiga amin bo'lmoqchiman.

U menga qayta-qayta nazar tashladi, qop-qora ko'ylakda va o'z tuyg'ularimdan berkinish niyatida boshimga ilgan keng soyabonli bu eski shlapada ko'ziga notanish, mutlaqo begonaday tuyulayotganimni sezib turibman.

Meme hayot bo'lib, shu uyda yashaganidayam mayliydi. Odamlar jilla qursa uning hurmati uchun qayg'usini yengillatgani kelganga yo'yib, yuzxotir qilisharmidi? Bu ko'rgilikdan Meme chuqur iztirobga botmasada, baribir o'shanda hozirgidek ich-etimni itday tirnayotgan o'ylardan biroz qutulgan yo bunchalik qayg'urmagan, shu yo'l bilan makondoliklar ko'zini osongina shamg'alat qilgar bo'lardik, o'shanda six ham kabob ham kuymasdi. Meme qariyb o'n bir yil burun yerga kirdimi, osmonga uchdimi – yo'q, dom-daraksiz ketgandi. Mana endi doktorni asfalasofilinga jo'natib, hindu xotin qayerga ko'milgani, jilla qursa suyaklari berkitilgan joyni bilish imkoniyatidan mahrummiz. Shu choqqacha qayerdaligi mavhum Meme hozir shu yerda bo'lganidami, ehtimol, u olti yil bir yostiqqa bosh qo'ygani hissiz eshag-u dardsiz kesakdan farqi yo'q – sovuq, qo'rs, qo'pol, qaysar-u qahrli yostiqdoshiningmas, balki qishloqdoshlari tomoniga o'tib olishi turgan gap edi, biroq, taassufki, u bu yerda yo'q.

Muyulishdan poyezd hushtagi qulog'imga chalindi. Soat „Uch yarim“ bo'ldi. Mana shu xosiyatsiz uyga qadalgan Makondoning qahrli nigohi nima jin urib, ichkarida kuymalanib yurgan biz uch jonsarakning niyatini anglolmay garang. U asta-sekin g'azab otiga minmoqda. Xayolimga yelimday yopishgan o'ydan qutulishga bor kuchim bilan tirishyapman. O'zimcha uzzukun ventilyator oldida

o'tiradigan, ko'rinishidan arvolga o'xshash qotma-yu qarimsiq Rebeka xonim qiyofasini xayolimda tasavvur qilaman. Derazani to'sgan simto'r ko'lankasi uning yuzini qoraytirib ko'rsatadi. Jaziramadan azoblanayotgan Rebeka jig'ibiyron bo'lib, parraklari bezovta yuragiday betinim aylanayotgan ventilyator tomon egiladi, qartaygan xonimni shu turishda chirigan tomirlari ila hayotga ilinib, tirik qolishga intilayotgan qari emanga qiyoslash mumkin, u olislab ketayotgan poyezd hushtagi ostida yashashga tashna ohangda shivirlardi: „Bari iblisning hiyla-nayrangi“.

Falaj Agida bo'lsa, qallig'ini bekatga dovur jo'natib qaytayotgan Solitani kuzatarkan, kimsasiz qorong'i burchakka biqinadi-yu ro'moli bilan yuzini yopadi. Bir zamonlar o'zini to'lqinlantirgan zavq-u shavqini solga o'tqazib, olislarga oqizgan, alaloqibat, zardobga aylangan undagi xurofot dardi so'zlaydi: „Cho'chqaday balchiqqa botib yurgandan ko'ra, to'shakka mixlangan yaxshi“.

Bu o'ylardan qanday xalos bo'lsam ekan? Hozir soat „uch yarim“ligini tezroq xayolimdan chiqarsam edi. Pochta tashuvchi xachirlar tuyoqlari ostidan yuqoriga o'rlayotgan chang shamolda asta-sekin girdobday aylanardi, jonivorlar ortidan so'nggi choshgoh soatlarini buzib, yangi gazeta sotib olgani ikki erkak izma-iz kelardi.

Katta, larzon qorni ustida duolar kitobini ochib qo'ygan Anxel ota pinakka ketgan. U xachirlar dupur-dupurini eshityapti, uxlagani xalaqit qilayotgan chivinlarni haydar-kan, goh-gohida: „Eh, yashshamagurlar, qonimga tashna qilib yuborishdiku-a?“ – deya xunobi oshganidan g'udurlab qo'yadi.

Bunday fikrlar otamning boshini og'ritayotgani yo'q. Tavba, hammaning yodidan ko'tarilgan bir poy poyabzalni qo'yishga tobütning og'zini qayta ochgani erinmadi, marhumga endi ularning boridan yo'g'i... O'lganni orqasi-

dan yomon gapirmaydilar-ku, ammo bu mijg'ovni odamday ko'mishga Makondoda yakkash undan bo'lak kim ham jur'at qilardi. Tobutni ko'tarib tashqariga chiqishimiz bilan ko'ziga qon quyilgan olomon ra'yiga qarshi borganimiz uchun toshbo'ron qilsa, aslo yoqa ushlaymayman. Qaniydi otam bu niyatidan qaytsa. Xosiyatsiz uy yaqinidan o'tayotganda bardavom issiq, jazirama kunlarda erkag-u ayollar tasavvurida birday jonlangan huzurbaxsh xayollar ro'yobidan mahrum etishga jazm qilganimizning oxiri baxayr emas. „Ertami-kechmi alaloqibat biz bu hiddan sarmast bo'lamiz“, – deyishardi ular ishonch bilan. Buni butun Makondo so'zlar, qishloq etagidagi uydan tortib, narigi burchagidagi, hu o'sha, oxirgi kulbasida yashaydiganlarning bari bir gapni to'tiqushday betinim takrorlaydi.

Hozir soat uch yarim bo'ldi. Senorita allaqachon boxabar. Senora Rebeka uni darhol ilg'aydi va lahza o'tmay, tinimsiz aylanayotgan ventilator parraklari ostidan uzilib, simto'rdan o'zi ko'rinmasa-da, sasi tashqariga otilib chiqadi: „Sinorita, bilasiz-ku, axir u iblis“. Ertaga maktabga o'g'lim emas, bil'aks mutlaqo boshqa bola boradi. U ulg'ayadi, bir qancha bolalarning otasi bo'ladi, nihoyat vaqt-soati yetib, joni uzilganida, bu qishloqda hech kim uni nasroniylarga xos tarzda so'nggi manzilga kuzatishni farz, deya bo'yniga olmasa kerak.

Sarg'ish itko'zlari ayollarga yutib yuborishga tayyor yirtqichday boquvchi, kelib chiqishi-yu qayerdanligi nomalum kimsa bundan yigirma besh yil ilgari qo'lida tavsifnoma ko'tarib, otamga uchramaganida va shu qishloqda qolib ketmaganida edi, hozir tinchgina uyimda o'tirardimku-ya. Tavba, go'yo tavqila'nat deysiz va u tug'ilmasim-danoq manglayinga bitilgan ko'rinadi. Bu yozg'iriq – mana shu otashi odamni o'ldiradigan ~~ANPPTTLLA TSSNO KADUSA~~ yilida, ayni o'ttizga yaqinla ~~WASBOUTUBUHQHNT YONDA:~~

ga kelib: „Men bilan birga borasan!“ – deb aytmaganiga dovr o‘zini ma’lum qilmagan. U hassasida xontaxtani chertib qo‘yarkan, hali so‘rashga ulgurmasimdan: „Azonda do‘xtir o‘zini osib qo‘yibdi, boshqa yo‘li yo‘q, uni so‘nggi manzilga kuzatamiz!“ – deya og‘zimga urdi.

* * *

Hindular xonadan chiqib, mix quti-yu bolg‘a ko‘tarib kirishdi. Biroq tobutni mixlashga shaylanmaslaridan burun o‘lgan odam yotgan to‘shakka cho‘kdilar. Bobom ko‘rinishidan vazmin edi, lekin bu vazminlikda tugal xotirjamlik sezilmasdi. Ruhi tobutdagi o‘lgan odam singari sokinlikka erishmagan, aksincha paytavasiga qurt tushgan odamday besabr va bezovtaligini berkitishga urinayotgani kunday ravshan. Unga itoatkorlig-u loqaydlik begona. Bobom oqsoqlanib, xona bo‘ylab aylanarkan, yerda yotgan narsalarni yig‘ishtirib, yon-atrofni tartibga keltirmoqda.

Xonadagi chivinlar tobutdan uchib chiqqan chiqar, devdim. G‘o‘ng‘illagan ovoz qo‘shni uydagi ventilyator tovushi ekaniga amin edim, adashibman, bu tobut devoriga urilib, ichkariga intilayotgan chivinlarniki ekan. Ko‘zlarimni yumib, boshimni chayqayman. Bobom jomadonni ochib, qandaydir buyumlarni qo‘liga oldi, ular aynan nimaligini ko‘rolmay qoldim. To‘shak uzra to‘rtta uchqun yaltirar, chekayotganlarning yuzi ko‘rinmasdi. Odam sil-lasini quritar darajadagi jazirama, mangulikka cho‘zilgan og‘ir lahzalar, chivinlarning betinim g‘uvullashi ostida kimdir: „Shunday o‘tiraverasanmi? Tobutda chivinlar bilan birga yotgan murdaday. Hozir bolasan, biroq shunday kun keladiki, seniyam mana shu o‘lik singari chivinlar izmiga topshirib, tobutga soladilar-u og‘zini mahkamlaydilar“, – deganday bo‘ldi. Beixtiyor seskanib ketdim va oyog‘imdagi yaltiroq poyabzalga boqdim. „Ipi yechilib

ketibdi-ku“, – deya ko‘nglimdan o‘tkazarkanman, nigohim oyimga qadaldi. U ham menga boshdan oyoq razm solib, poyabzal ipini bog‘lab qo‘ygani egildi.

Oyimning boshidan o‘tkir naftalin-u eski yog‘och sandiq hidi dimog‘imga urildi, bu ifor tag‘in menga tor tobut ichini eslatdi. Nafasim bo‘g‘ilib, damim ichimga tushib ketdi. Bu yerdan tezroq quyoning rasmini chizib, juftakni rostlashni, issiq bo‘lsa-da, ko‘cha havosidan o‘pkamni to‘ldirib, to‘yib-to‘yib nafas olishni istayman va sinalgan usulimni qo‘llayman. Oyim qaddini rostlaganida, sekingina:

– Oyi! – deya titrab arang shivirladim.

– Ha, bolam, – so‘radi oyim beozorgina jilmayib.

Uning terlab-pishib ketgan yuziga boqib, jur‘atsizlik bilan:

– Tashqariga chiqishim kerak, – dedim.

Oyim Bobomni chaqirib, nimanidir tushuntirib ketdi. Ko‘zoynak ostidan kaminaga qadalgan qisiq ko‘zlar, o‘tkir nigohini sezaman.

– Hozir mumkin emas! – mendan ko‘z uzmay, qat‘iy javob qildi u.

So‘nggi umidlirim uzilib, omadsizligimga loqayd holda tag‘in jimib qoldim. Voqealar rivoji arang emaklab o‘tayotgandek. Haytovur nimadir shiddat bilan lip etib, tezlashganday bo‘ladi-yu, tag‘in chumoliday odimlaydi. Oyim egilib, qulog‘imga shivirlaydi:

– O‘tib ketdimi?!

Biroq u shunday ohangda so‘radiki, o‘zimni xuddi gunohkordek his etdim. Qovoqlarim bo‘m-bo‘sh bo‘lishiga qaramay, oyimning savolidan og‘irlashib qolgandek bo‘ldi. Ataylab achchig‘imni yashirmasdan g‘azabimni sochdim:

– O‘tib ketgani yo‘q!

Bir ko'nglim: „Qo'lingni qorningga tira! Oyog'ingni yerga ur! Dunyoni boshingga ko'tar!“ – dedi-yu, afsuski, oyog'im havoda muallaq osilib turgani pand berdi-da, boz ustiga dafn marosimidaligimizdan andisha qilib, beadablik bo'lmasin uchun tag'inam indamadim.

O'lik yotgan xonada o'lik sukunat hukmron, tashqaridan kirib kelganlarning tovushi bu sukunatni buzib yubordi. Biri Bobom qo'lida ishlaydiganlardan, u boshlab kelgan keng kanop shalvar-u belidagi qalin kamariga qurol osgan odam esa nozir hamrohligida tashrif buyurgandi. Bobom unga peshvoz chiqdi. Yashil shalvardagi odam Bobomga nimalarnidir so'zlayotib, qorong'ilikka o'tib, tag'in yo'talib qo'ydi va nozirga derazani ochishni buyurdi.

Yog'och devorlar g'oyat xarob, go'yo kuldanda yasalganga o'xshardi. Nozir qo'lidagi qo'ndiq zarbidan lo'kidon surilib, deraza ochilishiga ulgurmasidan burun devorlar qulab tushadi-yu, ko'z ochib-yumguncha kul saroy ko'kka sovuriladi, keyingi zarbadan so'ng ochiq osmon ostida ust-boshimiz changga botgan, rang-ro'yimizga gard yuqib, suvga tushgan mushukday bir ahvolda shumshayib qolishimizga iymonim komil edi, biroq chuchvarani xom sanagan ekanman, harnachuk kul saroy bus-butun qoldi. Derazalar lang ochilib, xonaga yorug'lik tushdi. Oftobning zarrin nuri go'yo qafasga itarib kiritilgan hurkak yovvoyi hayvon bolasi singari so'lagini oqizganicha xonaga yugurib kirdi-yu, qayerga bosh suqishini bilolmay, devorlarga urildi, ularni timdalab yulib o'tib, nihoyat eng bexavotir burchakka borib biqindi.

Derazalar ochilganda g'alati-yu g'ayritabiiy buyumlar qiyofasi ko'rina boshladi. Onam chuqur „uh“ tortib, xo'rsinib qo'yarkan:

– Shu yerdan uyimizni ko'rishni istaysanmi? – deya men tomon qo'lini cho'zdi.

Oyimning panjalari orasidan Makondoga tikildim, negadir shu tobda o'zimni olis sayyoradan kelgan o'zga sayyoralikday sezdim. Salqin bodom soyasi ostidagi mo'jazgina nuragan eski kulbimiz naqadar yiroq. Bu xayri barakasiz uyda o'tirarkanman, go'yo butun umrga o'zimni shu o'rindiqqa mixlanib, to'rt devor orasida qamalgan bandiday his qildim, ko'ngilga xushyoquvchi yashil dalalar olishlashgan, go'yo o'sha kengliklarni endi hech qachon ko'rolmaydigandek ruhimni tushkun kayfiyat qamrab oldi, ular ko'zinga mutlaqo yot ko'rinar, kechalari aloq-chaloq tushlar ko'rib, alahsirab, dahshat ichr uyg'onganimda, oyim hikoya qiladigan, yakkash tasvii ruhimga orom baxshida etuvchi ertakdagi so'lim Susambildagi saroy shu tobda Makondodagi tinch-u osuda kulbimizning o'zi bo'lib tuyulmoqda edi. Shu yaqin oradan parishonxotir Pepe hushtak chalib o'tayotib, bizni payqamadiyam. Qo'shni bolaning qiyofasi xuddi hozirgina sochini oldirganday mutlaqo o'zgarib ketgandi.

Terdan jiqqa ho'l ko'ylagi tugmalari ko'kragiga qadar ochiq alkald¹ g'oyat jiddiy qiyofada o'midan turdi. U o'ylab topgan bahonalaridan o'zi hayratga tushib, men tomonga yaqinlashdi.

– Tana hali sovib ulgurmaganidir, shunday ekan, o'limini tasdiqlolmaymiz, – dedi u tugmalarini o'tkazarkan, bamaylixotir tamaki tutatdi, keyin tobutga bepisand ko'z qirini tashlab, xayolida o'ylardi: „Mana endi kaminani hech kim qonunni buzganlikda ayblolmaydi“.

Unga yuzma-yuz kelib, bor kuch-g'ayratimni nigohimga to'pladim-da, ko'zlariga tik boqib, tumtaroq o'ylarining tubiga yetishga intildim. To'qnashgan nigohlar tilga kirdi.

¹ Alkald – shahar hokimi.

– Siz boshqalarga huzur-halovat baxshida etish uchun qonunni buzyapsiz, – deyman.

U shu gapni kutib turganday, javobni paysalga solmasdan og‘zimdand chiqqanini ilib olib:

– O‘zingizdan qolar gap yo‘q, ko‘pga qarshi borish – ahmoqlik, sizam bashariyat ra‘yiga qarab, ish tutsangiz bo‘lardi. – dedi.

– Ko‘pni ko‘rgan, odamsiz-ku, axir, uning vafot etgani so‘qirga hassa-ku, – deyman asabim qo‘zib.

– To‘g‘ri, to‘g‘ri, lekin nima qilay, kamina qonunga bo‘ysunuvchi mansabdor bo‘lsa, bir parcha qog‘oz, jon xalos. O‘limini tasdiqlaguvchi yagona qonuniy hujjat, ya‘ni doktor xulosasi kifoya, bir gap kam, olam guliston, ha, abbay? – deya tag‘in aravani quruq olib qochadi u.

Shashtimni sindirgani yo‘l qo‘ymayman:

– Mayli, qonun chegarasidan chiqolmas ekansiz, chaqira qoling doktoringizni, o‘sha ordona qolgur guvohnomani yozib bersin sizga!

U bu gapimdan jonlandi, boshini qimirlatarkan, g‘oyatda kamtar-u sokin ohangda, ishonch-u dadillikni yo‘qotmay, so‘zlashda davom etadi:

– Tushungan odamning sadag‘asi ketsang arziydi, mana bu boshqa gap.

Alkaldning javobini tinglarkanman, u aroqdan emas, qo‘rqoqligidan es-hushidan ayrilganini his qildim. O‘sha zahoti alkald qishloq ahlining nafratini battar olovlantirishini tushunib yetdim. Bu tuyg‘u bo‘ronli kechada yaradorlar mana shu ostonaga olib kelinib, uni qichqirib chorlashgan lahzadan boshlab, gij-gijlanib kelindi (u darvozani ochmay, ichkaridan chiqmay so‘zlagan).

– Doktor, iltimos, yaradorlarga yordam bering, deya eshigingizga bosh urib keldik... – odamlarning tavallo-lariga eshik qurg‘ur ochilay demasdi. – Bizga sizdan

bo'lak, hech kim yordam berolmaydi, bir odamgarchilik qiling.

Shuncha yalinib-yolvorishlar havoga uchdi (eshikni ochmagan), guvohlar so'ziga qaraganda, u xona o'rtasida sarg'ish itko'zlarini tashqariga yaqqol ko'rsatib turgan chiroqni yuqoriga ko'tarib:

– Men odamgarchilikdan chiqqanman, hammasini unutdim, hatto andishani ham, ularni boshqa joyga olib boring, – debdi yuragiga tosh bog'lab. Ichkaridan tambilangan eshik lo'kidoni o'sha tun surilmadi (uy eshiklari o'shandan buyon faqat bugun ochildi). Xalqning qahr-u g'azabi o'sib, tomir yoyib, maddalagan kasallikka, og'irdard Makondo yuragidagi so'nmas nafratga aylandi. To'r devor ichida irib-chirib ketishini so'rab, yog'ilgan qag'ishlar esa o'sha tun hukm kabi yangradi va u umr oxiriga qadar makondoliklar ko'kragiga shamol tegishiga aslo yo'l qo'ymagay.

Rappa-raso o'n yil u zaharlashlaridan qo'rqib, jamoat joyidan suv ichmadi. Hindu xotin ila bir tan-u bir jon bo'lib, tomorqasida ter to'kib yetishtirgan sabzavotlar bilan kun ko'rardi. O'n yil burun u Makondoga shafqat qilmaganiday, Makondo ham unga omonlik yo'q, deya ikki oyog'ini bir etikka tiqqan. Qishloqdagilarning kattasidan tortib, kichigigacha uning o'limidan xabar topgan (qarisidan yoshigacha bu quvonchli xabardan terisiga sig'maydi, yelkasidan tog' qulaganday yengillashib qolishgani aniq) va huzurbaxsh zavqni tuyishga hozirlanmoqda, ko'pchilikning fikricha, ular bunga to'la haqli. Makondoliklar doktor uyi unga aslida qabr bo'lishini, unda chirib ketishini faqat o'sha kuni surilmagan lo'kidon-u ochilmagan eshik tufayligina xohlashyapti.

Ezgu niyatim – quturgan darg'azab olomon yovuzligi oldida ojiz, xalq nafrati uni burchakka taqab, devorga mix-

lab qo'yadiganga o'xshaydi, hatto cherkov ham shashtimdan qaytarish yo'lini topdi-ya.

Anxel ota:

– Oltmish yil e'tiqodsiz yashab, o'zini osgan dahriyni ikki dunyo bir bo'lganda ham bu tabarruk tuproqqa aslo qo'ydirmayman! Ko'p tixirlik qilavermang! Maslahatim: xalq ra'yiga qarshi bormasangiz, Xudo sizni yorlaqagay, hozir bir go'rtortmas kofir-u betavfiqni nasroniy kabi ko'mishga jazm etishingiz, marhamat emas, balki kufir, gunohi azimdir, uni tuproq qabul qilmagay, – deya o'z ta'sirini o'tkazmoqchi bo'ldi.

Men pinagimni buzmay:

– Muqaddas kitoblarda yozilganidek, o'tganlarni qabrga qo'ymoqlik tiriklarning burchi. Burchni ado etmoqlik iymondandir, – dedim.

Anxel ota:

– To'g'ri-ku-ya, lekin bu vaziyatda uni ko'mish bizning emas, hukumatning bo'ynida! – deya vaj-taqal qilib, mayyitni qabrga qo'yishdan ochiqchasiga bosh tortdi.

Shuncha qarshilikka qaramay, baribir yarim yo'ldan qaytmadim. O'zim bilan birga uyimda o'sib-ulg'aygan to'rt guaxironi ergashtirib keldim. Qizim Isabelniyam yonimda hamroh bo'lishga majburladim. Shuningdek, Makondo ko'chalaridan mana shu qo'llarim bilan mayyitni qabristongacha sudrab borishdan burun, bu kirdikorlar odatiy, ommaviy, eng yomoni, hamma tomondan ma'qullanib, ko'zga tashlanadigan darajada ulkan shakl-u shamoyil ola boshlayapti. Ha, bunaqasini faqat daqqiyunusda ko'rishimga to'g'ri kelgan, Makondo har narsaga qodir. Basharti, ular oqsoqligim, pirovardida mamlakatning sof vijdonli, qarib qolgan palkovnigini andisha qilishmasa, harnechuk qizginamning ojizaligini yuzxotir qilib, omonlik berishar. Uni bu yerga o'zimni o'ylab olib kelmadim

axir. O'lganning xotirjamligi uchun bo'lmagan taqdirda ham, ado etish – ham farz, ham qarz, deya bo'ynimga olganimni oxiriga yetkazishni ko'zladim, xolos. Isabelni qo'rqqanimdan emas, balki oqibat yuzasidan chorladim. U esa bolasini yetakladi (men uni yaxshi tushunaman), mana endi uchovlon shu yerda so'ppayib o'tiribmiz, gardanimizga ilgan kechmish yuki Makondo tog'laridan ham zalvorli.

Ichkariga kirishdan burun, uni shiftga osilgan holda ko'rsam kerak, deb o'ylagandim, biroq hindular, harqalay, chaqqonlik qilib qolishibdi, bo'ynini arqondan ozod etib, bechoralar o'likni ko'mish bir soatdan ortiqqa cho'zilmasa kerak, degan umid bilan mayyitni marosimga hozirlab, rasamadiga ko'ra kafanlik kiydiribdilar ham. Marhumning xonasiga kirganimdan keyin tobutni olib kelishlarini kutgan bo'lsam, qizim-u nevaram atrofga obdon razm solib, rahmatlining ahmoqona qarorini izohlovchi jo'yali javob bo'ladigan ishora izlashganini sezdim. Yozuv stolida pala-partish sochilgan qog'ozlarga qarab bo'lmaydi, biroq birortasi uning dasxati bilan yozilmagan. Mana, yigirma besh yil burun uyimizga kelgan kuni hay-hay demasa, Makondoni ham joylashtirsa bo'ladigan qo'lidagi o'sha katta beso'naqay jomadon. Shunday katta jomadonda atigi ikki dona ko'ylak, unga tegishli bo'lmagan sun'iy jag', zotan tishlari bus-butunligini hisobga olganda, buni taxmin qilmoq qiyinmasdi, kimningdir surati va mana shu muqovasi qora yon daftar. Men jomadonni tortib chiqardim, ichida chang bosib, eskirgan eski tang'ali qog'ozlarga-yu quti tagida ishlatilmaganidan sarg'aygan o'sha sun'iy jag'ga ko'zim tushdi. Kichik stolda jinchiroq yonida hali taxi-yu muhri buzilmagan gazetalar qalashib yotibdi. Men ularni ko'zdan kechirdim. Uch oy avval yigirma sakkinchi iyulga dovur olingan fransuz tilidagi nashrlar. Bu

yerda boshqa yilgi xuddi shunday o'qilmagan gazetalari ham qalashgan, yigirma yettinchi yanvar, yigirma oltinchi noyabr... almisoqdan qolgan eng eski oktabr yigirmasida chiqqan gazetalaram bor... „Ana xolos, odamlar ixlosi undan qaytib, tashqi olamdan uzilib, yakka moxovday yashay boshlashidan bir yil o'tib, u umuman gazeta o'qimagan chog'idan. O'sha paytlardayoq u vatani-yu vatandoshlari bilan barcha rishtalarni uzgani aniq“, – xayolimda shunday o'ylar charx urardi.

Odamlar tobutni ichkariga olib kirib, ichiga mayyitni qo'ydilar. U Atlantika sohillarida general-intendant lavozimini egallagan polkovnik Aureliano Buendianing yigirma besh yil burun urush davrida Panamada menga tavsianoma tariqasida yo'llagan nomasini olib kelgan kun tag'in yodimga tushdi. Titilib ado bo'lgan jomadonni zulmatdan tortib chiqaraman-u qolgan-qutgan lash-lushlariga yana bir bora nazar solaman. Jomadon bir burchakda og'zi ochiq holda yotar, yigirma besh yil oldingi buyumlar hamon o'z joyida. „Ikkita ko'ylak, sun'iy jag', surat-u qora muqovali yon daftar“ hech nima o'zgarmagan va bari kechagiday yodimda. Men ularni birma-bir terib, tobut og'zi mixlanmasidan ilgari ichiga solib qo'yaman. Surat ham qo'l tekkizilmaganday – aslo joyidan siljimagan. Undagi nusxa boshdan oyoq ordenlarga ko'milgan harbiy edi. Suratni tobutga qo'yishim bilan, sun'iy jag'-u qora muqovali yon daftarni ham joylashtirdim. Endi tobut og'zini mixlab tashlashsayam bo'ladi, deya odamlarga ishora qildim. „U tag'in safarga hozirlanmoqda. Dorilfanodan dorilbaqoga rixlat qilish, ya'ni so'nggi manzilga yetish oldidan burungi safar chog'ida hamroh bo'lgan buyumlarni olib ketish, menimcha, mantiqliroq, lekin bu dunyoda mantiqli nima bor o'zi?“ deb o'ylayman. Mayitning orom topgan yuziga boqib, axiyri u chin xotirjamlikka erishganini payqadim.

Xonaga razm solib, bir poy poyabzali qolib ketganiga ko'zim tushdi. Odamlarimga bir imo qilgandim, baraka topgurlar tobut og'zini darhol qayta ochishdi, ayni shu mahal poyezd hushtagi eshitildi, u ham Makondoni tark etayotir.

„Uch yarim“ bo'ldi deya xayolimdan o'tkazdim. 1928-yil 12-sentabr soat uch yarim. 1903-yilda, adashmasam, ayni mana shu lahzalarda u ilk marta biz bilan bir dasturxoniga o'tirib, o'tsho'ruva keltirishlarini so'ragandi. Adelaida mehmon izzatini joyiga qo'yib:

– Qanaqasidan bo'lsin, doktor? – deb so'ragani.

U hayvonlarga xos vahimali, yo'g'on, quloqqa o'r-nashib qolguvchi yoqimsiz cho'ziq manqa tovushda javob qilgandi:

– Qanaqasidan bo'lardi, oddiy, eshaklar bosh tortmaydiganidan-da.

2

Gap shundaki, Meme bu yerda yo'q, qayerdaligi tirik jonga ma'lum emas. Oxirgi marta biz u bilan o'n bir yil avval ko'rishganmiz. U kulbasi yonida sharob do'konini ochib, ishini kengaytirdi, so'ng asta-sekin qishloq ahlining ehtiyojlarini qondiruvchi turli oziq-ovqat, ro'zg'orga kerakli ul-bul narsalar bilan savdo qila boshladi. Sajiyasiga erinchoqlik yot Memening mehnatsevarligi-yu tongdan tungacha tinim bilmasligi tufayli do'konda hamma narsa saranjom-sarishta. Ichkari-yu tashqarisi yog' tushsa yalagudek toza-ozoda turar, boz ustiga barchaga bemin-nat xizmat qilardi. O'sha vaqtlarda qishloqda to'rttadan bittaning uyida ham yo'q, nihoyatda kamchil-u noyob „Dometik“ tikuv mashinasi yakkash unga tegishli, savdodan bo'shaganida chevarlikka ham vaqt topar va bariga birdek ulgurardi. Uddaburon, chaqqon Meme do'konga

tashrif buyuruvchilarni ham hindularga xos ochiq samimiyat bilan qarshi olar, bu bosiqlik-u hotamtoylik odamlar qalbidagi barcha shubha-gumonlarni tarqatib, qahr-u g'azabini ko'kka sovurib yuborardi.

U bizni tashlab ketmaguniga qadar ko'rishib turardik. O'limdan xabarim bor-u, biroq uyimizda o'sib-ulg'aygan qiz uzoq yillar ishonchli oqsoch, doktor esa hamisha hurmat-izzatga shoyon mehmonday qadrlanganiga qaramay, otamning ko'ziga tuz sepib, ikkisi qachon oshiq-moshiqqa aylanganidan va opam deb e'zozlaganim boshi yostiqa tekkanida bir bor ko'rib qo'yishga arzimagan odamning ma'shuqasi bo'lishga qanday rozi-rizolik bildirgani-yu qishloq etagidagi uyga nima uchun ko'chib o'tganidan hali-hamon bexabarman. O'gay onamning so'zlariga qaraganda, doktordan sira yaxshilik chiqmas ekan, „Zig'ircha odamgarchiligi yo'q“, degani degan. Memening tobi qochganida qasam ichib, otamni qizning dardi og'ir emasligiga ishontirganmish. U tekshirib ko'rish u yoqda tursin, hatto buni bemor betiga qaramay xulosa qilgan ekan. Meme shunchaki darmonsizlangan taqdirda ham sakkiz yil davomida yelib-yugurib og'irini yengillatgan oqsoch xizmatini nazariga ilib, minnatdorchilik yuzasidan bir ko'rib qo'ysa ham haqi ketmasdi.

Voqealar rivojidan xabarim yo'g'-u, biroq bir kun saharbardonda Meme uyimizdan g'oyib bo'ldi, u ham. O'gay onam doktorning xonasini qulflab qo'yishni buyurdi va biz o'n ikki yil burun, to'y ko'ylagini tikkan kunda bu mavzuga nuqta qo'ydik.

Uyimizni tark etgan Memeni uch haftalardan so'ng, tong chog'i, cherkovdagi yakshanba ibodatida yaltir-yultir bezaklari ko'zga tashlanadigan, yurganda etaklari shig'ir-lyadigan uzun shohi ko'ylakda va sigirga egar yarashmaganday sun'iy gullari kelishmagan keng ayvonli shlapada

ko'rib qolib, o'lay agar, tanimabman. Odmi usti-bosh-u uzukkun yalangoyoq yurishiga ko'nikkanimdan, uni bu qiyofada ko'rish menga erish tuyuldi. Garchi u oldingi qatorda oliy nasab ayollar safida tonggi ibodatni kibor xonimlarga taqlidan jiddiy qiyofada eshitayotgan bo'lsa-da, hashamdor ko'ylakdayam kimligi baribir shundoq sezilib turardi. Hindu xotin sajdaga bosh qo'yib, jonini jabborga berib, barcha rasm-rusumlarni bajarishga har-chand urinmasin, bularning bari unga shu qadar yot ediki, bechoraginaning bir-biriga yopishmagan, beo'xshov harakatlarini qabul qilish – nasroniylikdan bexabar hindu oqsochni ko'rishga odatlanmaganidan hang-mang bo'lib qolgan tanish-bilishlariga, boz ustiga o'ziga ham oson kechmayotganini sezish qiyin emasdi.

Men (o'shanda o'n uch yoshda edim) hayratdan yoqa ushladim, nima uchun Meme uyimizdan izsiz ketib, nega satang xonimlardek, ibodatga kiyiladigan ko'ylakda emas, yoqasi-yu ko'krigidagi bezaklari ila yana ikki ayolning ko'ylagini, hay-hay demasa uchinchisini ham bezashga yetgulik hashamdor libosda cherkovga kelgani-ni aslo anglolmasdim. Ibodat adog'iga yetishi hamonoq, erkag-u ayollar darhol ikki qator bo'lib tizilib, bo'sag'ada uning qadamini poylab, bayramona tarzda yasangan hindu ayolning istiqboliga chiqdilar, yig'ilganlarning sukut saqlab turishidan qandaydir dahshatli voqea yuz bera-jagini taxmin qilish mumkin edi. Meme ostonada paydo bo'ldi, qarshisida uni hoziroq sharmandasini chiqarish-ga hozir-u nozir olomonni ko'rib, ko'zlarini chirt yumib oldi, tag'in ochdi, ilojsizlikdan haftrang soyabonini yuziga tutdi. Baland poshnali poyabzalda arang qadam tashlab, ikki qator tizilgan erkag-u ayollar to'dasini yorib o'tayotganida, kimdir uning yo'lini to'sdi va olomon uni o'rab oldi. Meme qafasga solingan qushday tipirchilardi.

Ayol hayratlanganidan nima qilarini bilmay boshi qotgan, qaddini tik tutib, kibr-la jilmayishga urindi, ammo tabassumi shu qadar soxta chiqdiki, yuzi bir tomonga qiyyshayib qoldi. Meme soyabonini ochgani uchun otamni payqamagandi. Uyatdan yer yorilsa-yu yerga kirib ketsa, qo'rquv ichida sichqonning ini ming tanga bo'lib ko'rinayotgan ilojsiz ojiza odamlar orasidan qutulib chiqish chorasini topolmasdi. Otam qo'limdan mahkam tutdi-yu o'qday otilib, shu qadar epchillik bilan Memeni tortib chiqardiki, yig'ilganlar, hatto nima yuz berganining fahmiga borishga ham ulgurmadilar. Otam boshqalar bilan hamfikir bo'lmagan paytlaridagidek, o'rtabiatiga mos qiyofasiga o'ta jiddiy tus berib, dimoq-firoq bilan shaxdam odimladi.

Meme doktorning mashuqasiga aylanganidan xabar topganimda oradan ancha vaqt o'tgandi. U uyi yaqinida do'kon ochib, avvalgiday savdo qilar, odamlarning gap-so'zlariga parvoyi falak, go'yo bozor kunidagi xunuk voqea hech qachon yuz bermaganiday kibor xonimlar kabi yasan-tusan qilib, ibodatga borardi. Ikki oy... ikki oy o'tib, uni cherkovda qayta uchratmadim.

Men qora murti qayirib qo'yilgan, sarg'ish itko'zlari ayol zotiga ikki yamlab, bir yutishga tayyor yirtqich kabi tikiluvchi doktorni yaxshi eslayman. O'ylab qaragam, fohihadan qolgan arvohday, dasturxonga duo o'qilganidan so'ng o'tiradigan sho'rtumshuq, o'tsho'rvaga o'ch odati bilan menga yovvoyi eshakni eslatuvchi bu odamga zinhor-bazinhor yaqinlashmagan ekanman. U yaradorlarga yordam berishdan bo'yin tovlagan kechadan boshlab, atigi bir bora ham ko'chada ko'rinmadi. Qishloq ahli doktorga hukm o'qishidan burunroq do'kon yopildi. Meme savdoni to'xtatganiga qaramay, yana bir necha oy shu uyda yashaganiga aminman. Aftidan, u ancha ilgari yo'qolgan, harqa-

lay daraxtda haqoratnoma paydo bo'lmagunga qadar hech zog'ga tirikligining issiq-sovug'i yo'q edi. Unga ko'ra, doktor ma'shuqasini odamlar u orqali o'zini zaharlab o'ldirmasliklari yoxud mahv etmasliklaridan burun o'ldirib, o'z tomarqasida ko'mganmish. Memeni o'n bir yil oldin turmushga chiqayotgan paytlarda uchratdim. Kechga yaqin cherkovdan qaytayotganimda hindu xotin do'kon ostonasiga chiqib, hazil ohangida: „Chabella, opa-singillik shu bo'ldimi endi, menga bir so'z demay, erga tegyapsanmi?“ degandi.

* * *

– Mana, – dedim men. – U buni xuddi shunday qilgan.

Bugun pichoq bilan kesilgan arqonni tortib ko'rarkanman, u hali bus-butun, anchagina pishiqligiga ishonch hosil qildim va odamlarim tanani bo'shatish uchun kesgan sirtmoqni qayta shiftdagi to'sindan o'tkazib joyiga bog'ladim. Gardanida necha begunohlar xuni bor, aybi zil-zambil odamni ko'tarishga shundan boshqasi yaramasdi. Issiqdan terlab-pishib yuzi sholg'omday qizargan alkald qo'lidagi shlapasi bilan yuzini yelpirkan, sarxush nigohini arqonga qadab:

– Shunday mayin chilvir qanday qilib, odam gavdasini ko'tardiykin, bo'lishi mumkin emas, – dedi.

Men esa:

– Ishonavering, bu chilvir uzoq yillar mana shu tanani belanchakda ko'taraverib, ko'nikib ketgan, – deya ko'nglidagi shubhalarini tarqatishga urindim. U shlapani qo'limga tutqazib, kursiga chiqdi-yu osilib turgan sirtmoqqa bosh suqdi. Alkald kursida turib, o'ynab turgan arqonning uchiga ko'z tikdi:

– Bo'lishi mumkinmas, bu chilvir odam zotini ko'tarmaydi.

Bundaylarni ko'raverib, ko'zim pishib ketganidan niyatini darhol angladim. U bu ahmoqgarchilikni ko'mish marosimini uyushtirmaslik maqsadida qilayotgan edi.

Uning yuziga ishonch-la boqdim.

– U sizdan bir boshga kattaligini nazardan qochirdingiz, shekilli?

U tobutga razm solarkan:

– Shunday bo'lgan taqdirda ham, uning aynan shu chilvirdan foydalanganiga ishonolmayapman.

Shubhasiz, alkaldning maqsadini tushunib turibman – vaqtni imkon boricha cho'zish, chunki u yoki bu majburiyat bilan o'zini bog'lab qo'yimoqchi emas. Xonada timirskilanib maqsadsiz izg'ishi, hovliqmaligi – qo'rqqoligidan darak berib turibdi. Six ham kuymasin, kabob ham deydiganlar xilidan, voy muloyimog'rig'-ey, marosimni o'tkazishni ochiqcha man ham etolmaydiku-ya, biroq yo'l bermayotgani ham uning ikki karra qo'rqqoligini ko'rsatyapti. U tobut oldida to'xtab, men tomonga qayrildi:

– O'lganiga ishonch hosil qilishim uchun, hech bo'lmaganda mayyitning qanday osilib turganini yana bir bor ko'rishim kerak. – dedi u tomdan tarasha tushganday.

Bundayin bo'lmag'ur shartga ko'ngan bo'lardim. Odamlaringa bir imo qilsam bas, hayal o'tmay, tobut og'zi ochilib, mayyitni qanday turgan bo'lsa, o'shanday o'z joyiga osiltirib qo'yishardi. Alhol bu yerda emas, uyda o'tirishi kerak bo'lgan bolani ayadim. Ustiga ustak, qarshimdagi janobga arqon egasini ko'tara olishini isbotlash uchungina joyini topganidan xotirjamlik tuyib, foni dunyoni tark etgan, o'zini himoya qilolmay jonsiz tanani xo'rlab, ruhini chirqiratish ko'zimga g'irt pastkashlik bo'lib tuyuldi. Tirik ekanman, hech qachon bunday bo'lmaydi. Men aniq va qat'iy javob berdim:

– Mabodo, shunday ahmoqona buyruqni qo‘l ostidagilariga buyuradi, deb o‘ylasangiz, bekorlarning beshtasini aytibsiz. O‘lganni shunchalar qiynash qo‘lingizdan kelar ekan, marhamat bu ish o‘zingizga siylov, ammo oqibatiga kallangiz bilan javob berasiz. Biroq bilib qo‘ying, uning qachon o‘lgani-yu bunga qancha bo‘lgani bizga qorong‘i.

U qimir etmadi. Alkald tobut yonida tik turgan joyidan jilmay, bir menga, bir bolaga, bir Isabelga tikilib, so‘ng tag‘in tobutga nazar tashladi. Qo‘rqoq birinchi musht ko‘taradi, uning yuzi qorayib, chang solishga hozirlangan-day, ko‘zlari do‘layib, aft-angori o‘zgarib ketdi. Alkald:

– Bu ishingizning oqibati aynan qayerga olib borishi mumkinligini tushunib turgan bo‘lsangiz kerak deb umid qilaman! – dedi ovozi atay balandlatib.

Bu so‘zlar zamirida nima yotgani fahmiga yetib, aslo bo‘sh kelmayman:

– Xotirjam bo‘ling, yuki mening bo‘ynimda.

Bu gap dard ustiga chipqon bo‘ldi, rangi-ro‘yi gezarib, lablari titrar, tahdid ohangi ikki karra kuchaygandi:

– Aslini olganda, polkovnik, sizga savolni boshqacha qo‘yishim mumkin edi: bu odam kechqurun o‘zini osib qo‘yganidan qanday boxabar bo‘ldingiz?

U yonimga yaqinroq kelgunicha javob bergani shoshil-madim. Bor alamini shlapasidan olayotganday qo‘lida g‘ijimlab, qarshimda to‘xtaganida, issiq nafasi burnimga urildi. Men pinagimniyam buzmadim:

– Bu savolni rasamadiga ko‘ra so‘rasangiz, men ham xonasi kelganida jonim bilan javob qilaman.

U o‘sha joyida qimir etmay turaverdi. Javobim uning-chun kutilmagan bo‘ldi-yu, biroq hayratga soldi deyol-mayman.

– Shubhasiz, polkovnik, men sizdan bu savolni qoidasiga binoan so‘rayman.

Har bir savoliga dadil va tugal javob berishim lozim edi, u o'zini harchand xotirjam tutishga, meni qo'rqi-tishga urinib, gapni aylantirmasin, baribir metin irodami-ni bukkani o'jizligini his qilganidan sabr kosasi to'lib borardi.

– Odamlarim tanani arqondan bo'shatdilar, qachon xayolingiz tovlab, bu yerga kelishingizni qo'l qovushtirib kutib o'tirolmasdim, axir, qadamingizning o'zi to'tiyo bo'ldi-ku. Sizni ikki soat burun chaqirgandim. Atigi ikki ko'chani bosib kelishingizga shuncha vaqt kerak bo'libdi-da.

U gaplarimga jo'yali javob topolmay, kalovlanib qoldi. Men esa alkald qarshisida hassamga suyanib, biroz oldin-ga egilgan ko'yi so'zlashda davom etdim.

– Ikkinchidan, u mening birodarim.

Men hali gapimni tugatmasimdan u yuzimga tupugini sachratib, istehzo bilan masxaraomuz kulib yubordi.

– Bundan osoni yo'g'-a? – haytovur uning tabassumi darhol g'oyib bo'ldi. – Bundan chiqdi, siz uning o'zini osmoqchi bo'lganidan xabaringiz bor ekanda-a! – dedi u dabdurustdan.

Yer tagida ilon qimirlasa sezaman, u barini chuvalashtirib, oyog'ini osmondan qilishga intilayotganini fahmlaganim bois, og'ir-bosiq va xotirjam ohangda:

– Qulog'ingiz og'irmi, deyman, uning joniga qasd qilganidan xabar topishim bilan birinchi qilgan ishimga sizga odam yuborish bo'ldi, ya'ni bundan ikki soat burun, – dedim.

U go'yo unga arz bilan emas, balki savol bilan murojaat qilganday oddiygina javob berdi:

– Men tushlik qilayotgandim.

– Xabarim bor, biroq xayolimda tushlik soatlari anchaga cho'zilib ketganga o'xshaydi, bafurja choshgohgacha dam olgan ko'rinadilar, – deyman.

U endi so'zlamogga gap topolmay qoldi. Noiloj alkald

yon berdi. U bir bolaga, bir qarshisida o'tirgan Isabelga, bir hindularga va tag'in o'zimga boshdan oyoq razm soldi. Uning basharasi o'zgardi. Qo'lidagi qartalarini ochishga hozir qimorbozday, avvaldan o'ylab yurganlarini amalga oshirishga va ko'nglini yorishga jazm etgan ko'rinadi. U menga orqasini o'girib, nozir tomon yo'naldi. Nozir chapdastlik bilan orqasiga o'girildi-yu xonani tark etdi.

Alkald ortiga qaytib, qo'limdan tutdi:

– Polkovnik, siz bilan yakkama-yakka gaplashishim kerak. – Uning so'zlashish ohangi mutlaqo o'zgardi. Uyatdan yerga kirib ketgudek bo'lib, arang murosa yo'liga o'tdi. Alkald bilan narigi xonaga o'tarkanmiz, yelkamga birodarlarcha qoqib qo'ydi, uning nima haqda so'zlashmoqchi bo'layotganini sezib turibman.

Yotoqxona qarshisidagi xona salqin-u nurafshon. Chorbog'dan tushayotgan oftob nuri xonani yoritib turgandi. Oyog'i kuygan tovuqday besaranjom Alkaldning yuz qiyofasiga xos bezovta nigohidan niyatini uqyapman.

– Polkovnik, biz bu ishni boshqacha hal qilishimiz mumkin... – chaynalib so'zlaydi u ayyorona iljayib. Gapi-ning bismillosidan nima demoqchi bo'layotgani ma'lum.

– Qancha? – deb so'radim dangaliga.

Uning yuzi buqalamun terisiga o'xshab o'zgardi-yu suyakni ko'rgan itday yaltoqlanib, mutlaqo boshqa odamga aylandi-qoldi.

Meme bir lagan shirinlik, bir vaqtlar onamdan yopishni o'rganib, tayyorlagan yupqa patirini olib chiqdi. Soat to'qqiz edi. Peshtaxta orqasida bir-birimizga baqamti o'tirdik, mening sharafimga kamtarona dasturxon tuzaldi. Hindu xotinning yuzi yorishib, harchand hazil-huzil qilib so'zlamasin, bu zo'rma-zo'raki soxta quvnoqlik ortida ulkan qayg'u yashirinligi, xayollari o'tmishning zul-

mat ko'chalarida sargardon kezinishi sezilardi. Peshtaxta ostidagi jinchiroq yorug'ida cherkovning yakshanba ibodatiga baland poshna-yu serhasham ko'ylakda kelgan Memedan ancha ulg'aygan ayolni ko'rib turardim. Kechmishni xotirlash uning uchun cheksiz azob edi. U xotiralarini varaqlayotib, uzoq yillar ko'raverib, ko'rishga odatlangan qiyofasi, shu vaqtga dovur o'zgarmay kelayotgan yoshligi haqida o'ylardim, faqat hozir o'sha xotiralar to'xtab qolgan nuqtasidan siljib yurib ketganida, uning kech bo'lsa-da, biroq shiddat-la qariganini his qildim.

Meme o'tgan asrning so'nggi yillarida, urushdan burun xonadonimizdagi to'kin-sochin hayot to'g'risida hazin tovushda, bir maromda sokin so'zlardi. Meme oyimni ko'p-u xo'p esladi, u haqda, ayniqsa, o'sha kech men cherkovdan qaytayotganimda: „Chabella, menga bir og'iz lom-mim demay, erga tegyapsanmi?“, – hazillashib so'rganini tilidan qo'ymadi. O'sha vaqtlarda men oyimni qo'msab, betinim o'ylayotgan kezlar edi. „Umring o'xshamasin-u onaginangning o'zisan“, – dedi Meme. Men esa uning gaplariga ishondim. Hindu ayolining bir-biriga qovushmagan poyintar-soyintar so'zlardan manzum bichib-to'qilgan dudmal hikoyasi haqiqatdan ko'ra ko'proq afsona yo cho'pchakka yaqin, asliyatdan bir qadar uzoq bo'lishiga qaramay, g'oyat samimiy-u sokin ohangda so'zlagani bois o'sha tun, hayotimdagi uzoq o'tmishning unutilmas kechasiga aylagandi. U urush davridagi ota-onamning darbadariyklari, yo'l azobi go'r azobiga aylanib ulgurgani va u Makondoning barpo etilishiga tamal bo'lib xizmat qilganini aytib berdi. Ota-onam urush asoratlaridan qochib, qo'nim topish mumkin bo'lgan tinch-osuda boshpana-yu so'lim makon qidirishgan, oltin junli qo'y terisi¹ haqida

¹ *Oltin junli qo'y terisi* – yunon mifologiyasida uchraydi.

eshitib, uni izlab topish niyatida kelgindilar jamuljam bu joy sekin-asta so'lim qishloqqa aylanibdi: qishloq ahlining ayrimi omonlik ilinjida manzil-u mo'ljalsiz hijrat qilib, shu yerlarga qadami yetgan qochoq, ayrimi taraqqiyot ta'siridan an'ana-yu diniy urf-odatini saqlab qolishni istovchi niyati xolis, ayrimi mol-holini boqish-u boyish murodidagi umidvorlardanmish. Makondo ota-onam uchun o'zlari orzu qilgandek butun borliq, chin jannat-u so'lim go'sha edi. Ular bu yerda munosib joy topdilar, bir necha yil ichida uch otxona-yu bir emas, ikki mehmonxonaga ega qasr qurdilar. Meme endi hikoyasiga shu qadar chuqur singib ketdiki, ikir-chikir tafsilotlar-u eng g'ayritabiiy voqealarni go'yo kechagina boshdan kechirganday va hamon o'sha zamonda yashayotgan odam kabi so'ylab berardi. Tush ham o'ngga aylanayotganday edi xayolimda. Bu ishda hech kim yo'l azobidan bo'lak uqubat chekmaganiga ishontirardi u. Hattoki otlar ham chaylada chivinlardan himoya qiladigan to'r yopinchiq ostida yotar, bu otamning tentakligi yo puli oshib-toshib yotganidan emas, balki onam shunaqa mehribon-u odamgarchilikni o'rinlatadigan ayol bo'lganidan ekan, u zabonsiz hayvonni ham odam o'rnida ko'rish kerak, deya hisoblarkan. Har safar dam olgani qulay joyda to'xtaganlarida kiyimlar joylangan jomadonlar, tug'ilmaslaridan burun o'lib ketgan ota-bobolariga tegishli lash-lushlar, yaroqlilik muddati allaqachon o'tib ketgan oshxonaning ashqol-dashqoli, avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgan mehrobga qo'yiladigan but-u sanamlar, bor bud-shudi, ko'ch-ko'roning bari avaylab yerga qo'yilardi. Otlar, tovuqlar, bolalikdan ota-onamning qo'lida ulg'aygan to'rt hindu-guaxiro (Memening o'rtoqlari) go'yo hayvon o'rgatuvchisi bilan butun o'lka bo'ylab darbadar yurgan haqiqiy ko'chma sirkning o'zginasiga o'xsharmish.

Meme hammasini haminqadar g'ussaga botgan ko'yi so'ylardi. Menda esa vaqtning oldinga harakatlanishi uning uchun haqiqiy yo'qotish bo'lganday taassurot uyg'otar, qalbining tub-tubidan otilib chiqayotgan bu xotiralar bulog'i – Memega haqiqiy baxt suvini ichirgani, chaylayu to'ryopinchiqqa o'ralgan otlarni tomosha qilish chin bayramga aylanganini tuyganim qadar, ota-onamga bu sayohat haqiqiy jazo-yu jahannam azobiday tuyulganini anglardim.

Keyin bari chappasiga ketibdi. Yangi tug'ilgan Makondo qishlog'iga o'tgan asr oxirlarida urush huzur-halovatidan ayirib, xonavayron qilgan, biroq hali-hamon hashamat qoldiqlarini saqlab qolishga intilayotgan oila ko'chib keldi. Hindu xotin qishloqqa oyimning qanday qadam bosganini eslaydi. Oyim ikkiqat, rang-ro'yi qum o'chgan, bezgak asoratidan ko'zlarining osti qoraygan, boz ustiga oyoqlari shishganidan ayanchli ahvolda xachirga yonbosh o'tqazilgan ko'yi qishloqqa kirib kelganmish. Ehtimol, o'shandayoq otam qalbiga shubha-gumon iloni o'rmlab kirgan-u oyimdan umidini uzgandir, nima bo'lganda ham u oxir-oqibat shu yerda langar tashlashga qaror qilgan va sargardonlikda qornida o'sib, to'lg'oq onlari yaqinlashgani sayin uni sekin-asta o'ldirib borayotgan chaqaloqning eson-omon dunyoga kelishini kutarkan.

Chiroq hindu xotin yuzining bir tomoninigina yoritib turardi. Keng yuzi, ot yoliga o'xshash tekis-u qalin sochlari bu diqqinafas kambar do'konchada but yo arvoh tilga kirganda o'tmish haqida qanday so'zlasa, xuddi shunday hikoya qilardi. U bilan burun sira yaqin bo'lmaganman, g'olibo, o'sha sirli tunda kutilmagan samimiy gurungdan so'ng men qarindosh-u qondoshlik rishtalaridan ham mustahkam rishtalar bilan bog'langanimizni angladim.

Oraga cho'kkan sukunatni uning yo'tali buzdi. Ovoz hozir men otam-u bolam bilan o'tirgan xonadan kelayot-

gandi. Quruq, uzuq-yuluq, so'ng uzluksiz yo'tal egasini tanidim, uni hech kimniki bilan adashtirib bo'lmasdi, u yotgan to'shagining bu yoniga ag'darilganini payqash mumkin edi. Meme darhol jimib qoldi, uning yuzini qop-qora bulut qopladi. Men u haqda butunlay unutgandim. Shuncha vaqtdan buyon (kech soat 10 lar atrofida) biz bu yerda o'tirgan bo'lsak, xayolimda Meme bilan yolg'izdek edik. Hali qo'l tekkizishga ulgurmagan shirinlig-u patir solingan tovoqchani tutib turgan qo'limda og'riq his qildim. Oldinga egilib, uning qulog'iga sekingina:

– U uxlamaganmidi? – deya shivirladim.

Meme mutlaqo hayajonlanmay befarq javob qildi:

– Tonggacha uxlamaydi.

Kutilmaganda nega Meme oilamiz o'tmishi to'g'risida bu qadar chuqur qayg'uga botib so'zlayotganini tushunib yetdim. Hayot butkul o'zgardi, Makondo dam olish kunlarida pulga bahs boylashib, garov o'ynaladigan kichik gavjum shaharchaga aylanganda, yakkash Memegina o'zining baxtli bolaligi xotiralariga qorishib yashardi. To'rt devor orasida tuni bilan mijja qoqmay, kalamushday u yerdan bu yerga g'imirlab chiqadigan, hamon unutilmagan itko'zlari-yu yovvoyi yirtqich hayvon tovushiday yoqimsiz ovoz egasi bilan uning hayoti qayg'u-yu g'amga botgan ko'yi rangsiz o'tardi. Bir zamonlar boshi yostiqqa tekkanida bir bora ko'rib qo'yishga arzimagan, bir jonsarakligidan uyning u burchidan bu burchigacha betinim sandiroqlab yuraverganidan har qanday og'ir-bosiq ayolni ham jaza-vaga tushirishga qodir qayg'u-yu quvonch begona, hissiz erkak bilan yashayotganiga achinib ketdim.

Har safar ovozlarimiz balandlashganda, uning sarg'ish itko'zlari kattaroq ochilib, chaqnashini tasavvur qilarkanman, so'zlashish qobiliyatimni qayta topganimdan keyin suhbatni boshqa tomonga burishga urindim.

– Savdo qalay? – so‘rayman undan.

Meme jilmaydi. Uning g‘amgin-u nursiz tubassumi tuyg‘u bilan emas, xuddi xontaxta ostiga yashirilgan, faqat ehtiyoj tug‘ilganidagina qo‘llash mumkin-u deyarli kerak bo‘lmaganidan undan qanday foydalanishni unutmagan uchun ham bechora shu lahzada uni noo‘rin ishlatib qo‘ydi. „Ha... mana...“ – u mujmal javob qildi-yu tag‘in mutlaqo begona odamday jimib qoldi. Memega tovoqni tutqazib ketishim kerakligini darhol fahmladim. U indamay o‘rindan turib, tovoqni peshtaxta yoniga olib bordi. O‘sha yerdan menga qarab turib takrorladi: „Umring o‘xshamasin-u, oyingning xuddi o‘zginasisan“ – dedi. Bilmadim, u chin aytdimi yo yolg‘on, harqalay suhbat chog‘ida men chiroqqa orqamni o‘girib o‘tirgandim, shu bois yuzimni aniq ko‘rganiga shubham bor. Biroq u tovoqni peshtaxta yoniga eltganida va chiroqqa yaqin kelib, yuzimga sinchiklab boqdi-yu tag‘in: „Umring o‘xshamasin-u, oyingning xuddi o‘zginasisan“, – deya o‘tirib oldi.

Meme oyimni Makondoga qanday olib kelishgani to‘g‘risida so‘zlashda davom etdi. Onamni xachirdan tushirib, tebranma kursiga yotqizib qo‘yishgan. U o‘sha yerda qimir-lamay, oldiga qo‘yilganini ishtahasiz, arang yutardi. Ba‘zan oyoqlaridan mador ketib, Azroil jonini sekin sug‘urib olayotgan mahal kun yarmiga qadar, tebranma kursida birov qo‘lidan sovigan nonushtani olib qo‘ymagunicha tutib turaverarkan. To‘qqiz oy davomida mahv etgan ajalning unsiz azoblari tufayli oy-kuni yaqinlashganda ayvondan yotoqxonagacha bo‘lgan masofani bosib o‘tolmay, o‘n ikki qadam yurmasdan yiqiladi va uni qo‘lda ko‘tarib ketishga to‘g‘ri keladi. Tebranma kursidan to‘shakka do‘vur bo‘lgan oraliq darbadar kechgan og‘ir kunlar mashaqqatidan achchiq edi, biroq u baribir bu hayotda zimmasiga yuklangan oxirgi vazifasini ado etadi.

Memening aytishicha, oyimning o'limi otamni qayg'uga botirgan ekan, biroq g'am butkul mag'lub etib, irodasini bukolmadi. „Shu erkakning uyini sarishtalaydigan xotini yo'q“, desalar, hech kim ishonmaskan. Qaysidir kitobda suyukli odamini unutmashlig-u har kech eslash uchun xotirasiga rayhon o'tqazish kerakligi to'g'risida o'qib bilgach, u chorbog' devori oldiga qatorlatib gul ektirdi-yu bir yil o'tib, ikkinchi marta o'gay onam Adelaidaga uylanibdi.

Ba'zida Meme o'pkasi to'lib, yig'lab yuborguday bo'lardi. Biroq u o'zini tiyib turar, chin pushmonlik tuyg'usi ila gunohlarini yuvish mumkinligiga sidqidil ishonardi, axir u o'z xohishi bilan baxtdan voz kechdi-ku. Keyin u jilmayib qo'ydi va o'rindiqning suyanchig'iga suyanib, bir qadar uzoqlashganday tuyuldi. U qayg'u bulutlarini quvib, quyoshning yorqin nurlari kabi nurafshon xotiralarini uyg'ota olganidan baxtiyor edi, shu tobda Memening labida jilvalanayotgan mehribon, mayin tabassumini tanidim. Besh yildan keyin otam dasturxon boshida ovqatlanayotgan mahal: „Polkovnik, hoy, polkovnik, sizni ostonada bir kelgindi yo'qlayapti“, – deya bo'yqizning bolalarcha soddadillik bilan yugurib kelib, xabarni yetkazganidan keyingi voqealar esa mutlaqo boshqa hikoya edi.

3

Bu biz o'tgan asr oxirida Makondoga endi ko'chib kelgan yillarda hali ibodatxona qurilishi boshlanmasdan burun yuz bergandi. Ibodatxona ortidan uzun ko'cha o'tgan, u yerda nomiga bo'lsayam bitta daraxt ko'rinmasdi. Kun choshgohdan oshgach, maktabdan qaytgan qishloq bolalari devor yonida o'ynashardi. Ibodatxona bunyod qilinganidan so'ng, devor oxirida yerga to'rt simyog'ochni

qoqib qo'ydilar, qoziqqa o'xshab qolgan simyog'och atrofini o'rab, joyni omborxonaga aylantirsa bo'larkan, xuddi shunday qildilar ham. To'rt girdi o'ralgan kulbada turli qurilish anjomlari saqlanardi.

Ibodatxonadagi ish yakunlangach, kimdir uning devoriga ohak surib, oqlab qo'yibdi, tosh devordan iborat quruq omborxonaga odam yashaydiganday qilib eshik qurdilar. Bir yil o'tib, bu joy ikki kishi yashashi mumkin bo'lgan mo'jazgina ikki xonali kulbaga aylandi-qoldi. Ichkaridan hali qurimagan ohak hidi kelardi. Ko'ngilni yayratgan yagona, yoqimli, pokiza tuyg'ular ifori, birdamlik ruhi ayni shu yerda tirik edi. Devorlar oqlanganidan keyin hasharchilarning beminnat xizmat qilgan qo'llari omborxonaning ichki qurilishini ham adog'iga yetkazdi, ichkaridagi eshikka lo'kidonni o'rnatib, ko'chaga qaragan eshikka qulf o'rnatishdi.

Omborxonona qorovulsiz, unga qorovul tayinlanmagan. Hech kim bu mulkka egalik huquqini da'vo qilgani shoshilmasdi. Qishloqqa kelgan ilk ruhoniylar Makondoning eng ko'zga ko'ringan o'ziga to'q oilalarning birinikida joylashdi. Keyin uni boshqa ibodatxonaga ko'chirdilar. O'sha vaqtda (g'olibo bu hali birinchi ruhoniylarning ketishidan ilgari bo'lgandir) qorovulxonani qo'lida emizikli bir go'dagi bilan qandaydir ayol egallab olgandi. Ayol eshikni qay tariqa ochgani-yu qaysi yo'l bilan bu yerda qo'nim topgani qishloqdagi tirik jonga ma'lum emas. Burchakda qora kosov, mixda esa kuvacha osilgandi. Devorlardagi ohakni yomg'ir suvlari yuvib ketdi. Chorbog'dagi toshlar sirtida yomg'irdan qolgan loy qotib qolgandi. Ayol quyoshdan saqlanish-chun novdalardan soyabon to'qidi va kulbaning girdini toklar bilan o'rab, eshik tepasiga tumor-u dumaloq non osib qo'ydi.

1903-yilda ruhoniylarning kelayotgani to'g'risidagi mish-

mishtar to'rt tomonga ovoza bo'lganida ayol hamon o'sha qorovulxonada yashardi. Makondoning yarim ahli din xizmatchisini orkestrning orombaxsh kuylari ostida kutib olgani markaziy ko'chaga chiqdi. Daf'atan bir bola halloslab yugurib keldi-yu ruhoniyning xachiri allaqachon muyulishga yetganini xabar qildi. Musiqachilar bir safga tizilib, kuyni boshlab yubordilar.

Vakil minbarga chiqib, ruhoniyni eson-omon yetib kelingani bilan tabriklab, nutq irod qilmoqlikka tayyorlanayotgan edi. Xachirga arqon bilan mahkam bog'lab qo'yilgan bu qadar katta jomadonni umri bino bo'lib ko'rmagan Makondo ahli uni orqalab kelayotgan notanishga ko'zi tushgani hamonoq, mardonavor qadam tashlayotgan harbiylar qatori minbar vazifasini o'tagan stoldan tushib, joyida tek qotgan notiqqacha hamma hang-mang bo'lib qoldi. Garchi olis safarga chiqayotganda, hatto ruhoniylarning ham oddiy odamlarday kiyinishi haqiqatga yaqin bo'lishiga qaramay, biroq harbiylarga xos kiyingan qiyfasi sovuq odamni rido kiygan ruhoniyga o'xshatish hech kimning xayoliga kelmadi.

Ha, bu o'sha edi. Qishloqning u burchagidan tortib, bu burchagigacha yig'ilgan katta-yu kichik aylanma so'qmoq bo'ylab, kelayotgan eti ustuxoniga yopishgan qotma, oriq, oftobda qoraygan qoramag'iz chuvak yuzi cho'zinchoq, ust-boshi dalva-dalva, qo'lida tutgulik siyohi qolmagan ilma-teshik soyabon ko'targan g'alati ruhoniydin ko'z uzmasdi. Ibodatxonaga yaqinlashgani hamon, u birovdan qorovulxonani ko'rsatib: „Bu nima?“ deb so'radi-yu, hali o'ziga kelishga ulgurmagan odamning: „Cherkov ortidagi kulba, avliyo ota“, – deya g'udranishidan biror nimani anglamay, to'g'ri qorovulxona tomon yo'naldi. Ayol qayoq-qadir g'oyib bo'ldi, bola esa ichkarida qiya ochiq eshik ortida o'ynardi. Ruhoniy tambalanmagan beso'naqay jo-

madonini arqonidan bo'shatib, xachirini ergashtirgan cha hovli sahnidan o'tdi-yu toklar soyasiga bog'ladi va imoratga boshdan oyoq razm soldi. Keyin jomadonini ochib, ichidan to'rbelanchakni olgach, xonaning u burchidan bu burchiga qadar arqon tortdi va to'rbelanchagini ildi. Oyog'idagi etiklarini yechishi hamonoq, ko'zlarini katta-katta ochib, qo'rquv ichra tikilib turgan bolaga e'tibor qilmasdan pinakka ketdi.

Ayol yuzidan nur yog'ilib turuvchi istarasi issiq dilkash odam emas, balki g'alati ruhoniyni ko'rib, nafaqat lol qoldi, balki kutilmagan mehmon tashrifidan noqulay ahvolga tushdi. U oyoq uchida yurib, lash-lushlarini yig'ishtirgan cha temir kosovi-yu kuvachasini unutib, hovliga yig'ma karavotini olib chiqib, to'rt tomonga dor tortdi-da, kiyimlarini yoyib, to'sib chiqdi. Bir soatdan so'ng kelgindilar bilan shug'ullanadigan oqsoqollar kengashi vakillari bir to'da harbiycha yurishga taqlid qilayotgan o'yinqaroq bolalar qurshovida orkestr ketidan ergashib, Makondo bo'ylab savlat to'kib yurib kelisharkan, ruhoniyni yolg'izlikda topishdi. U belanchakda qornini yerga berib, yalangoyoq, ust-boshini yechgan holda yotardi. Bu odamning katta yo'ldan qishloqqa kirib kelishi barchani tong qoldirganidan, undan qorovulxonada nima qilayotganini so'rashga hech kimning aqli yetmadi. Aftidan hamma uni ikki yildan buyon he yo'q-be yo'q, birovning ruxsatsiz-u hech qanday hujjatsiz o'ziga xon, ko'lankasi maydon bo'lib, betashvish yashab kelayotgan ayolning qon-qarindoshi chiqar, endi bu kelgindi butun urug'-aymog'ini yig'ib, omborxonani butkul egallab oladi, deb o'ylashdi. Shu bois ayol mehmonni ruhoniyya yo'yib, uyalganidan berkinganini, „qo'rqqanidan yashirindi“ga chiqarishdi. Qulning aqli choshgohdan keyin kiradi, deganlariday, kelgindilarni joylashtirish bilan shug'ullanadigan oqsoqollar kengashi avvaliga undan bi-

ror izoh so‘rashni ko‘ngliga keltirmay, kirib kelishiga indamadi, u esa hech kimning gurungini eshitishga ro‘yxushlik bermay, ostonadan kirganlarni „Kecha tuni bilan mijja qoqmaganman“, – deb sovuq muomala bilan qarshi oldi.

Yangi mezbonning ochiqcha sig‘ishtirmaganidan andak ko‘ngli og‘rigan qishloq oqsoqollar kengashi vakillari noroziliklarini yashimay, asta-sekin tarqaldilar. Bu qadar g‘ayrioddiy ruhoniyni hali hech kim ko‘rmagandi. Ozg‘in tanasiga yarashmagan taqir boshi sigirning kallasidek katta, lab degani mutlaqo sezilmaydi, tug‘ilganida go‘yo og‘izsiz tug‘ilgan-u og‘iz o‘rniga o‘sha joyni qandaydir tirqish, pichoq bilan qirqib qo‘yganga o‘xshardi. Bu notanish yo‘lovchi hammaga kimnidir eslatardi, azonda bari oyday ravshanlashdi. Oyog‘iga kalish ilib, boshiga shlapani qo‘ndirganicha palaxmon-u qayroqlarni qiyratib, qochoqlarning so‘lim qishlog‘iga aylangan Makondo ko‘chalarini changitib yurgan davrlarini esladilar. Chollar sakson beshinchi yillarda uning fuqarolik urushidagi ishtirokini esladilar. U polkovniklikka erishgach, o‘n yetti yil adolatsiz hukumatga qarshi kurashgan qo‘rqmas-u jasur, qaysar, o‘jar jangchi edi. U ortiga qaytmaguncha, qishloqdagilar u haqda boshqa bir og‘iz ham gap eshitishmagan, o‘ziyam xabar bermagandi. Uni cho‘qintirishayotganda berilgan ismni xotirlaydiganlar oz edi. Biroq qariyalarning aksariyati onasi bergan laqabni (u o‘zboshimcha-yu o‘jar edi) yaxshi xotirlashardi, urush paytlaridayam uni shunday chaqirishardi. O‘r... Bukrini go‘r tuzatadi, tabiatiga xos qaysarligi bois, umrining oxiriga dovur uni „O‘r, hoy, O‘r“ deya chaqirardilar.

Bu odam ham o‘sha mahal, o‘sha soat va o‘sha ahvolda baayni O‘r Makondoga kirib kelgan kuni biznikiga tashrif buyurdi. U ham yetti pushti va qo‘lidan qanday ish kelishi noma‘lum ruhoniy singari qishloqning dunyobexabar

sodda, omi odamlari yig'ilib, ilhaq kutgan katta ko'chadan emas, hammani hayratda qoldirgan holda hech zog'ning yetti uxlab tushiga ham kirmagan aylanma yo'ldan keldi.

Qabuldan so'ng, tushlik chog'i uyga qaytdim. Dasturxonga o'tirishimiz bilan Meme hovliqib kirib keldi-yu:

– Polkovnik, hoy, polkovnik, sizni bir kelgindi yo'qlaypti, – dedi.

– Shu yerga chaqiraveringlar.

– U sizni qabulxonada kutyapti. Aytishicha, paysalga solib bo'lmaydigan bir muhim yumushi bormish.

Adelaida Isabelni ovqatlantirishdan to'xtadi (u hali unda besh yoshda edi) va mehmonga peshvoz chiqdi. Xotinim tashvish ichra ortiga qaytdi.

– U bir joyda o'tirolmay, xonada xuddi oyog'i kuygan tovuqday yuribdi. – dedi.

Chilchiroq yorug'ida ayolim o'z joyiga qanday qaytayotganini kuzatib turdim. Uning hayajonlanayotgani shundoqqina sezilib turardi. Mayda-chuyda yumushlaridan bo'shab, tag'in Isabelni ovqatlantirishga tushdi.

– Uni dasturxonga chaqirsang bo'larmidi? – dedim har doimgi kabi xotirjam ovqatlanishga urinarkanman.

– Aslida shuning uchun chiquvdim. So'rashganimga e'tiboram qilmadi, betinim u yoqdan bu yoqqa yurib, xonani boshdan oyoq sinchiklab ko'zdan kechirarkan, javondagi burama balerina haykalchasidan ko'z uzolmay qoldi. Salomimni eshitmadi-yov, deb o'ylab, qayta so'rashdim. U tag'in alik olmay, balerinani olib, yozuv stoli-ga qo'ydi-da, boshdan oyoq sinchiklab, raqsga tushishini tomosha qildi, balki, musiqa unga xalal bergandir, deb o'yladim, ammo men igna emasman-ku, ko'z ilg'amasa, yozuv stoli oldida g'o'ddayib turaverdim. G'alati odam ekan, u o'yinchoqni bir necha bor burab, raqsini tomosha qilib, pinagini ham buzmay o'tiraverdi.

Adelaida shu gaplarni aytarkan, Isabelni ovqatlantirishda davom etardi.

– O‘yinchoqqa andarmon bo‘lib, salomingni eshitmagandir.

– Bilmadim. Biroq birinchi marta so‘rashganimda hali musiqa yangramayotgandi, so‘ng u raqqosaga nazari tushgani hamon, javondan olib, xuddi uni ilgari ko‘rib-bilib ishlatganday kerak joyidan buradi-da, undan ko‘z uzmay hissiz kuzatdi, hatto miyig‘ida jilmayganiyam yo‘q, go‘yo uni raqs emas, balki faqat ishlash mexanizmi qiziqtirayotganday edi.

U hech qachon menga uyga kelganlar xatti-harakatlari to‘g‘risida bu qadar batafsil so‘zlamagandi. Garchi uyimizda keldi-ketdi ko‘p, deyarli har kun tanish-bilishlardan biri mehmon bo‘lar, ular tunab qolishganida ham ortiqcha gap-so‘z eshitmaganman. Mehmonlar bemalol otini sayisxonaga bog‘lab, ovoz berib ichkariga xuddi o‘z uylariday kirib kelaverardilar.

– Biror yumush bilan kelgan yo birov omonatini topshirmoqchidir, e‘tibor qilma, – dedim mehmonning beizvatligidan og‘ringan xotinimni tinchlantirib.

– Baribir g‘alati odam ekan, salom Xudoning qarzi, alik bandaning farzi emasmi, nima bo‘lgan taqdirdayam, kim bo‘lishidan qat‘i nazar birovning eshigiga ishi tushib kelgan odam biroz kamtarroq bo‘lmaydimi? Musiqa tuga, so‘rashar deb kutib tursam, raqqosa bir sakrab yana chiroyli harakatlar ila o‘yinni davom ettirganini ko‘rib, qiziqishini yashirmay, kursiga o‘tirmasdan egilib, unga sinchiklab razm soldi, keyin menga o‘yinchoq qancha vaqt o‘ynashini bilish uchungina murojaat qildi. Mehmon xonada borligimni ko‘ra-bila turib o‘zini bilmaslikka solganidan jahlim chiqqanidan xudbinligim tutib, to‘nimni teskari kiydim-u qayta so‘rashmadim, rasamadiga ko‘ra sovuqqi-

na jilmayib qo'ydim. U katta sariq ko'zlari bilan odamga boshdan oyoq andisha qilmay, razm solarkan. Nihoyat mehmon o'zidan ham sovuq tovushda va g'oyat rasmiy ohangda:

– Polkovnikni ko'rsam bo'ladimi? Huzuriga muhim ish yuzasidan kelganman. – dedi. Tovushi ham g'alati-yu siniq, so'zlari tushunqsiz, go'yo og'zi mahkamlangan-u so'zlashga qiynaladigan odamday edi.

Qoshlari chimirilgan xotinim qizimni ovqatlantirar, men esa bu notanish qanday yumush bilan kelganini oldindan chamalayotgandim, biroq bu voqealar o'sha kuni boshlanib, bugun nihoyasiga yetishini bilmagan ekanman.

– U xonada tinimsiz aylangani-aylangan, – takrorlardi Adelaida qizimning ovqatini yedirarkan. Bu notanish xotinimda shunday g'alati bir taassurot qoldirgandiki, u g'ayritabiiy bu odamni tezroq qabul qilib, muddaosini bilishimni istardi. Mening esa negadir narigi xonaga chiqishga yuragim dov bermayotgandi, dasturxon boshida o'tirib, bamaylixotir ovqatlanardim.

Men unga qarab:

– Dasturxonga marhamat, o'sha yerda bafurja gaplashib olarsiz, mehmon, – dedim. U gapimga javob berish tugul mutlaqo eshitmaganday, qovog'ini solib, orqasini o'girib oldi-da, tag'in raqqosaga andarmon bo'lib harbiylarga xos tarzda tek qotib turaverdi. Men oyog'idagi qo'nji uzun etigi, egnidagi maxsus kiyimi-yu oxirgi tugmasigacha o'tkazilgan ko'ylagidan harbiy bo'lsa kerak, degan xayolga boruvdim. U qo'lida o'yinchoqni olib, go'yo chiqib turishimni kutib turgan odamday, javob bermay o'tiravergani uchun so'zlashga gap topmadim. Tavba, o'lay-da ketay, odam deganam shunaqa bo'larkanda-a. Qiziq, aft-angoridan uni kimgadir o'xshatdim-u, ammo eslolmayapman.

– Biror jiddiy ish chiqqan-ov? – men unga sinovchan nazar tashladim.

– To‘g‘risini aytsam, bilmayman. U avval boshini egib, orqasini o‘girib turgani uchun yuzini yaxshi ko‘rolmagandim, biroq sizga uchrashmoqligini aytib, ko‘zimga tik boqqanida: „Xo‘jayinim bilan guvohlarsiz, yuzma-yuz gaplashmoqchimisiz?“ – deb so‘raganimda qiyofasiga bir bora razm soldim. U bir kishiga judayam o‘xsharkan, uni birovga, to‘g‘rirog‘i, uning o‘zi-yu faqat negadir o‘zligini yashirishga urinayotganini bir aytay dedim-u, tag‘in tilimni tiydim.

Uning gaplarini pinagimni buzmay, shamdonlarga tikilgan ko‘yi jimgina tinglab turdim. U bolani ovqatlantirishdan to‘xtab, menga tikildi:

– Olamni suv bossa, to‘pig‘ingizga chiqmaydigan odamsiz-da, lekin o‘mingizda bo‘lsam, allaqachon uning nega kelganini bilib qaytgan bo‘lardim. U topshiriq bilan kelganiga aminman. O‘zini ko‘rsatayotgani kabi emas, balki kimga o‘xshasa xuddi o‘shaning o‘zi. Harbiylikiga ishonchim komil. Mo‘ylovining uchi velosiped ruli misol yuqoriga qayirib qo‘yilgan, yuzi moy surilganday yaltilaydi. Qo‘nji uzun etikdagi odam o‘zini ko‘rsatayotgani kabi emas, bil‘aks ko‘ringani, ya‘ni aniq o‘shaligiga shubha qilmayman.

Bu gapni u beixtiyor hayrat ichra qat‘iy ishonch bilan aytdi. Havo dimligidan nafas ololmay jig‘ibiyron bo‘lib borardim.

– Xo‘sh, kimga o‘xsharkan?

– To‘g‘risini aytsam...

Gapi og‘zida qoldi. Men:

– Yaxshi, u bilan dasturxonga duo o‘qiganimizdan keyin ko‘rishaman. – dedim sabr kosam to‘lib, suhbatga nuqta qo‘yarkanman.

– U qo‘g‘irchoqdan ko‘z uzmay, o‘yinchoqni qo‘lida tutib turganidayoq kimga o‘xshashini esladim-u sizni bundan xabardor qilgani ortga qaytdim. Biroq eshikni ocharkanman, so‘nggi bor orqamga o‘girilganimda, uning kosasidan chiqqudek katta itko‘zlari oyog‘imga boqib turganini payqadim.

U shunday deya tilini tishlab qoldi va bolani ovqatlantirib bo‘lguncha miq etmadi. Yurakni ezadigan sukunatda faqat temir qoshiqlar ovozi eshitilardi, xolos. Dasturxonga duo o‘qishim bilan qo‘lsochiqni tovoq tagiga qo‘ydim.

Shu mahal xonadan taralayotgan burama o‘yinchoqning quvnoq musiqasi qulog‘imga chalindi.

4

Oshxonamizdagi suyanchig‘i yo‘q singan kursini Bobom pechka yoniga olib, boshmoqlarini quritgani qo‘yadi.

Kecha xuddi shu mahal Tobias, Abram, Xilberto va men maktabdan chiqib, dalaga bordik. O‘zimiz bilan qushlarni otishga tosh, tuxumini terib olgani qalpog‘-u buklama pichoq oldik. Yo‘lda men oshxonaning bir burchagiga tirkab qo‘yilgan kursini esladim. Bir vaqtlar unda mehmonlar o‘tirishardi, endi u o‘sha arvoonga tegishli. U har tun kursiga o‘tirib, shlapasini yechmay, o‘chgan o‘choq kulidan ko‘z uzmaydi.

Tobias va Xilberto ariqning eng qorong‘i burchagiga borib qolishdi. Ertalab maydalab yomg‘ir yoqqani uchun loy o‘tzorda oyoq toyib ketardi. Kimdir oramizdan hushtak chalib yubordi. Baland, keskin ovoz ko‘m-ko‘k tog‘ oralig‘ida xuddi bochka tubidan kelayotganday tuyuldi. Abram men bilan orqama-keyin borardi. U qo‘lida toshlarni, men esa buklama pichoqni tutib turardim.

Kutilmaganda tunuka tom tirqishidan xuddi tirik

qushday patirlab, oftob nuri barg-u o'tlar yuzini siypalab o'tdi.

– Ko'rdingmi? – dedi Abram. Men oldinga boqdim va zovur oxirida Xilberto-yu Tobiasdan o'zga tirik jonga ko'zim tushmadi.

– Bu qush emas, – dedim. – Quyosh nuri-ku.

Qoramtir suvda oyoqlarini shaloplatib, sohil tomon yurib ketyapmiz. Birodarlarimga bir chetdan razm solaman, sachrayotgan suv go'yo ular tanasini namlantirmayotganday tuyulardi.

– Bugun birorta ham o'lja ko'zga tashlanmayapti, tutolmasak kerak, – o'zimdand chiqqan gapga, eng avvalo, o'zim ishondim. Abram kulib yubordi. Uning ahmoqona kulgisi novadan sirg'alib tushayotgan suvning shaloplaga tovushiga o'xshardi. U kiyimlarini yechdi.

– Sen bo'lmasang, sanamjon, chumchuq tutmasak, suv tubiga sho'ng'ib, qalpoqni baliq bilan to'ldiraman, nima deding? – so'radi u.

Abram qarshimda yalang'och holda sho'ng'ishga tayyor turar, u qo'limdagi pichoqqa qo'l cho'zayotgandi. Men qo'limni orqaga qilib turaverdim. Pichoqni kaftimda siqarkanman, uning mayin-u tarang tig'ini his qildim.

– Pichoqni unga bermayman, – deb o'yladim ichimda va bu so'zlar tilimga ko'chdi. – Senga pichoqni bermayman. Menga kechagina sovg'a qilishdi, uni bugun kun bo'yi o'ynagim kelyapti.

Abram hamon qo'lini cho'zib turardi. Men unga shunday dedim: „Tixirlik qilaverma, hali bunga yoshlik qilasan“.

Abram meni tushundi. Do'stlarim orasidan faqat u so'zlarimni yaxshi anglaydi.

– Mayli, zorim bor-u zo'rim yo'q, bermasang berma, o'zi to'ymaganning salqiti harom, – dedi u biroz og'rib. – Narsalaringni yech, biz seni tosh ustida kutamiz. U

suvga kalla tashladi-yu go'yo katta yaltiroq baliqday suzib ketdi, suv esa xuddi uning teginishidan suyuqlashib qolganday edi.

Qirg'oqda qolib, issiq yerga yotib oldim. Men tag'in pichoqni yoydim va Abramdan ko'zimni olib, daraxtlarga, choshgohdan keyin o'txona misol yonayotgan dahshatli, g'aroyib, go'zal shafaqqa tikildim.

– Tezroq, – deb qichqirdi u boshqa sohildan. Tobias toshning ustiga o'tirib, hushtak chaldi.

– Bugun cho'milmayman. Ertaga. – deb o'yladim.

Abram qaytishda chakalakzorga o'zini urdi. Uning oridan borayotgandim:

– Bu yerga kelmaganing ma'qul. Bandman, – dedi.

Men so'qmoqda yer bilan bitta bo'lib yotgan xazonlar ustiga o'tirib, samoda yolg'iz qaldirg'och qiyshiq yo'i chizayotganidan ko'z uzolmay qoldim.

– Bugun atigi bitta qaldirg'och, – dedim men.

Abram anchagacha ovoz bermadi. U xuddi meni eshitmayotganday barglar orqasida jim o'tirardi. Uning jimligi g'oyat sirli edi. Uzoq sukunatdan so'ng, u chuqur „uh“ tortib:

– Qaldirg'ochlar, – deya so'z qotdi.

– Bugun negadir faqat bitta? – takrorladim. Abram hamon barglar orasida menga ko'rinish beray demasdi. U tag'in jimib qoldi, bu sukunatda tiq etgan tovush eshitilmasdi. Yurakni ezadigan, zerikarli sokinlik. Biroz vaqt o'tgandan so'ng u tag'in tilga kirdi:

– Nega faqat bitta? Ha albatta.

Men indamay o'tiraverdim. U o'tlar orasida qimirlab qo'ydi. Barglar shitirlashidan do'stimning qayerdaligini bilish qiyin emasdi. Oraga tag'in o'lik sukunat cho'kdi, Abram butunlay ketib qolganday tuyuldi. Keyin yana chuqur „uh“ tortdiyu so'radi:

– Nima deding?

– Bugun atigi bitta qaldirg'och, – deya takrorladim va samoda qanotlari yoyilgan qushning chizayotgan aylanasiga boqdim. – U baland-balandlarga qadar ucha olarkan, – deya qo'shib qo'ydim.

Abram o'sha ondayoq ovoz berdi.

– Balki shuning uchun bittadir, unga yetadigani topilmagan.

U barglar orasidan ishtonbog'ini bog'lab chiqdi. Men qaldirg'och osmonda chizayotgan aylanasiga tikilib turganimda, u yuzimga tikilmasdan so'zlarimni eshitmagan-day qayta so'radi:

– Qaldirg'ochlar xususida bir nima dedingmi?

Qaldirg'ochning samodagi harakatiga andarmon bo'lib, uzoq qolib ketdik. Makondoga qaytganimizda hamon samoda olov yonardi. Men uyga qarab yugurdim, oyimning so'zlariga ko'ra, hali dunyoga kelmasimdan burun, kuylagani bobomning oldiga kelib ketishni kanda qilmaydigan semiz, ko'zi ojiz ayol-u San-Xeronimolik egizaklar ila to'qnashib ketdim.

Bugun tunda biz Xilberto-yu Tobiassiz tag'in daryoga boramiz, deb o'ylovdim. Chuchvarani xom sanagan ekanman. Men Abram bilan yolg'iz borib, u suvga kalla tashlab yuzasiga qalqib chiqishini-yu uning badani oltin baliqning terisi singari yaltillab, suzishini tomosha qilishni istayman.

Basharti Bobom uyga kelgan mehmon bilan suhbatlashgani qo'shnixonaga chiqsa, hali-beri qaytmaydi, balki biz ungacha hammasiga ulgurarmiz. O'shanda men Abram bilan daryoga boraman.

U uyimizda yashab qoldi. Men bunday injiq odamga hovli burchagidan xona ajratish katta xato bo'lishini anglab, unga peshayvondagi ko'chaga qaragan bir xonani taklif qildim. U eshikka e'lon osdi (uyimiz devorlarini qay-

ta oqlamagunimizga qadar, egri-bugri harflar ila yozilgan e'lonning yozuv taxtasi uzoq yillar osilib turardi) bir hafta o'tmay, keti uzilmaydigan mijozlarga kursi tashishdan bo'shamay qoldik.

U Aureliano Buendianing xatini berganida suhbatimiz cho'zilib ketdi. Adelaida uni uyimizga muhim ish bilan kelgan mansabdor harbiyga yoyib, dasturxonni bayramdagiday bezadi. Biz polkovnik Buendianing yetti oylik qizi-yu tentaknamo to'ng'ichi to'g'risida chaqchaqlashdik. Gap-so'zlaridan bu odam general intendantni juda yaxshi tanishini angladim, biroq shuni ham tushundimki, ishonchli sultoni qilmog'ligi nomidan shunchaki foydalanish uchun hurmati yuksakligini payqadim. Meme ichkariga dasturxon tuzalganini bildirganida xotinim mehmonni qabul qilgani qo'liga nima ilgan bo'lsa, shuni dasturxonga qo'ygandir, deb o'ylovdim. Biroq ne ko'z bilan ko'rayki, yangi yil bayramlarida tuzaladigan shohona dasturxon yozilib, xitoy chinnilarida suzilgan taomlarni ko'rib, kutganimdan ortig'i muhayyo bo'lganidan hayratda edim.

Adelaida to'yimizga qadar poytaxtdagi oilaviy yig'in-u ma'rakalarda kiyadigan tik yoqali duxoba ko'ylagini kiyibdi. Uning oliy nasablarga xos nazokatli odatlari bor ediki, bu turmush qurganimizdan buyon oilamizdagi ba'zi tartib-qoidalarga bir muncha o'z ta'sirini ham o'tkazardi. Bo'ynida ajdodlarimizga tegishli tumor yaltirar, mehmonxonadagi muhit-u dasturxondagi to'kislik singari u ham benuqson edi. Biz ichkariga kirganimizda mehmon o'zining chang, aftodahol kiyimidan o'ng'aysizlandi, bir muddat kalovlanib, nima qilishni bilmay, xuddi bo'yinbog'ini to'g'rilab qo'yayotgan odamday ko'ylagining yoqasiga qo'l tekkizdi. Noqulay ahvolga tushishda o'zim ham mehmondan qolishmagandim, Adelaida va bu shohona dasturxon uchun g'oyatda oddiy kiyinganimni his qildim.

Laganlardagi go'sht – uyda pishirilgan o'rdak har doimgidan farqlanmasa-da, chilchiroqlar yorug'ida xitoy chinnilarida yanada o'zgacha qiyofa kasb etib turgandi. Xotinim mehmonning yolg'izligini bilsa-da, uni mashhur harbiy arbobga yo'yib, izzatiga dasturxonga sakkiz juft tovoq qo'ygandi. Uyimdagi muhit hech qachon bu qadar soxta ko'rinmagandi.

Magarda barini tabiiy ham odatiy darajada chiroyli ko'rsatishga qodir mohir qo'llari (haqiqatdan g'aroyib-u g'ayrioddiy darajada oppoq qo'llari bor edi) bo'lmaganda Adelaidaning ko'rinishi g'oyat darajada kulgili ko'ringan bo'lar edi. U dasturxonga o'tirishga iymajib, ikkilanayotgan mahal men shoshib:

– Ayolim, ya'ni yangangiz, doktor, – dedim.

Adelaidaning oftobday charaqlab turgan yuzini darhol qora bulut qopladi-yu rang-ro'yi o'zgarib, ta'bi namozshom bo'ldi. Biroq shunga qaramay, u kibor xonimlarga xos tarzda qo'lini uzatib, rasamadiga ko'ra so'rashdi.

Mehmon ham harbiylardek yurib kelib, shunchaki xojako'rsinga salomlashdi.

– Yaxshimisiz, yanga, – dedi u nomini aytishni ep ko'rmay.

Adelaida bilan o'lganning kunidan salomlashayotgan doktorning g'alati va qo'rsligini his qildim.

Mehmon atoyi Xudo, uni ishlatilmagan billur idishlar-u xitoyning sara chinnilari ko'zni qamashtirib turgan qismi, shohona dasturxon to'riga o'tqazib qo'ydik, biroq asti qovog'idan qor yog'ib turgan mehmon go'yo oppoq dasturxon ohorini buzib turgan sho'rvaning dog'iday taassurot uyg'otardi.

Adelaida mayni qadahlarga quydi. Avvalgi hayajon o'rmini endi tajanglik egallagan, hafsalasi pir bo'lganidan zo'r-bazo'r iljayib turgan xotinimning chehrasiga boqib:

„Hammasi hozircha o‘z holicha ketaversin-chi, ammo keyin o‘zingiz barini bir boshdan izohlaysiz“, – deyayotganini uqdim. U mayni quyib bo‘lganidan keyin, Meme ovqat suzilgan kosalarni keltirayotganda, u kursiga yastanib o‘tirgan ko‘yi jilmayganicha:

– Yaxshi qiz, menga go‘sht sho‘rva o‘rniga, iltimos, o‘tsho‘rva olib kelsangiz, – dedi.

Meme joyida qotib qoldi. U qaqillab kulib yuborishdan o‘zini arang tiyib, Adelaidaga boqdi. Adelaida ham jilmaydi-yu iymajibgina so‘radi:

– O‘tsho‘rva? Qanaqasidan bo‘lsin, doktor?

O‘ziga xos cho‘ziq ovoz bilan:

– Qanaqasidan bo‘lardi, yanga, oddiysidan, eshaklar bosh tortmaydiganidanda, – deya javob qilgandi.

5

Choshgohdan so‘ng Makondoliklar ayni pinakka ketadigan mahal bari adog‘iga yetar, balki. Alhol sirli, ko‘rinmas hasharot-u qurt-qumursqalarning g‘imir-g‘imiri bir muddat tinchib, hatto tabiat harakatdan to‘xtaganday tuyuladi, butun koinot tartibsizlik chegarasida aylanayotganday go‘yo, jaziramadan nafas ololmay, uyg‘ongan ayollar issiqdan qahri jo‘shib: „Makondoda hali ham chorshanba“ – deyishadi. Keyin butun Makondo ayollari o‘z burchaklariga biqinib olib, bir-birlarining quloqlariga shivir-shivir qiladilar.

Agar uydagi gap har doim tashqariga to‘g‘ri kelganda biz allaqachon tobut orqalab, qabristonga yetardik. Afsuski, har doim ham biz o‘ylaganimizday bo‘lavermaydi, bunaqada kechga dovur ham bu ish adog‘iga yetmasa kerak. Nafas olib bo‘lmaydigan darajada issiq havoda, shu vaqtgacha mayyitni ko‘mib qaytgan, darvoza tagida o‘tirib, biz uch mardumni la‘natlayotgan ayollar nazaridan tezroq pana-

roqqa qochish niyatida uyga tomon yo'l olayotgan bo'lar-
midik. Ko'mish marosimini hech kim man etolmaydi. Hech
bo'lmaganda bu lattachaynar alkald qat'iyatli bo'lganda
ham go'rga edi, alhol otam -- o'z yumushlariga qaytgan,
bolam maktabda, men esa uyda muz solingan sharbatimni
ichib o'tirardim. Biroq barining oyog'i osmondan bo'ldi.
Otam qat'iyati alkald shashtini sindirdi. Qishloq ahli shu
mahal ko'zimizga ko'rinmayotgan bo'lsa-da, uning qoni
qaynayotgani, uzun, uzluksiz, ayovsiz ivir-shivir, qahrli qa-
rashlar bizni ta'qib qilayotgani seziladi, garmisel ham odam-
lar qahri ko'lankasiday hali u yon, hali bu yonga aylanib
o'tib, och bo'riday uvullagani-uvullagan. Go'yo qishloqda
tirik jon qolmaganday, ko'chada odam zoti ko'rinmaydi,
hammasi yuragiga tosh boylab, darchasini ichkaridan tam-
balagan. Xonada bir bola poyabzalidan ko'z uzmay, jim-
gina o'tiribdi, tevaragida bo'layotgan voqealarni aqliga
sig'dirishga urinar, nigohini hali shiftga, hali gazetalarga,
hali devorlarga qadab, jon-jahdi bilan qaramaslikka qan-
chalik tirishmasin, tili tishlangan, sarg'ish ko'zlari itday
boqishdan butkul mahrum o'lik ko'zlariga ko'zi tushganida
nima qilishni bilmasdi. Bola murdaga tikilib, to'rt tomoni
mahkamlangan taxta tobut ostida qanday yotganini c'zicha
tasavvur qilar, tag'in bari chuvalashib ko'z oldida kursi, soy,
sohildagi do'stlari bilan kechgan iliq xotiralari gavdalanar-
di. Kun kelib u ulg'ayadi, sepkillarga to'la qo'llari hozirgi
kabi beozor, beg'ubor boladan ustara-yu tig' tutishga mos-
lashib, kunora soqol olishga qodir bilaklari kuchga to'lgan
baqquvvat erkakka aylanadi-yu ko'nglida: „Bugun-erta
kelishsa kerak, axir Makondoda chorshanba“, degan fikr
g'ujg'on o'ynayveradi. Hademay, ular kelishadi, zax dahliz
ostonasidagi kursida yastanib o'tirgan, qovog'idan qor
yog'ayotgan qiyofalar qarshisidagi Rebeka xonimning hu-
vullagan, kimsasiz, g'arib kulbasi derazasidan ko'z uzmay,

oyoqlarini chalishtirib, tizzalarini quchoqlagancha, sigaralarining uchini tishlab, bir xilda to'tiqushday sayraydilar. U doim qo'yg'an buyumlarining joyini unutib, besaranjom yuradi, alhol ventilyatorni yoqish xotirasidan ko'tarilgan, derazalari yopiq uyda betinim sarson aylangani-aylangan, bu sargashta kampir asabiy, darg'azab, bepushtligi hosilasi – yolg'izlikka mahkum kunlarini qarg'agani qarg'agan, u hali o'lmagan, so'nggi soatlarini kutib yashayapti. U xonalarning eshigini ochib-yopib, choshgohdan keyin soat uch marta bong urishini sabrsizlik bilan kutyapti. Bola qo'lini tushirib, o'rindig'ida bir qimirlab, tag'in avvalgiday qulay o'tirib olgunicha, ayol tikuv mashinasida so'nggi chokni tikib, boshini ko'tarishga ketadigan vaqtdan ko'ra, ikki baravar oz vaqt sarf bo'ladi. Bola to'g'riga parishonxotir tikilib turganida, ayol tikuv mashinasini ostona burchagiga taqab qo'yadi, ikki erkak esa bamaylixotir sigaralari uchini tishlaganча gurunglashishar, notavon Ageda jonsiz tizzalarini umid-la tag'in bir karra qimirlatishga urinardi, to'rt devor orasida jaziramadan qiynalayotgan sinora Rebeka: „Makondoda bugun chorshanba. Iblisni qabrga qo'yishning ayni mavridi“, – deya bidirlagani-bidirlagan. Bola tag'in qimirladi, u yuz berayotganlarni idrok etishga, o'zgarishlarga ko'nikishga urinardi. Nimadir qimirlasa vaqt oqimi haytovur oldinga qarab ildamlayotganini payqaysan. Ungacha bu mutlaqo bilinmaydi. Terdan jiqqa ho'l ko'ylak, dim havo, yurakni siquvchi mangulikka qadar cho'zilgan arosatdagi lahzalar va mana shu tili tishlangan o'lik. Murda uchun bola qimirladi nima-yu qimirlamadi nima, vaqt o'tdi nima-yu to'xtab qoldi nima, endi hech narsaning ahamiyati yo'q, sodir bo'layotganlardan bexabar tobutda cho'zilib yotibdi. Dorilbaqoga yo'l olgan ruhning jonsiz tanasi abilsabil bo'layotgan mahal (bola tag'in qo'lini qimirlatdi) falaj Ageda yotgan joyida arang u yog'idan bu yog'iga ag'anadi,

senora Rebeka tebranma kursisida yastanib, soatdan ko'z uzmay turardi, o'tishi qiyin bo'layotgan soniyalarda Ageda bo'ynidagi marjonini qimirlatarkan: „Agarda yura olganimda Anxel ota yoniga borgan bo'lardim“, – deya xayolidan o'tkazardi. Bolaning qo'li pastga tushdi, erkaklar ayvonda o'tirib: „Hozir chindan ham soat uch yarim bo'ldimi?“, – deya soatlariga nazar tashlab qo'yishdi. Qo'llar joyida qotadi. Soat millari keyingi daqiqaga o'tish uchun o'rtadagi sohilda to'xtab qolgandek go'yo, Ageda qo'llarining yangi harakatlarini kutyapti, u qulochini keng yoyib: „Avliyo ota, avliyo ota!“, deydi umid bilan. Anxel ota dahshatli tushdan qo'rqib uyg'ongan boladay bir muddat alahlab, Agedaga ko'zi tushdi-yu: „Haqiqiy mo'jiza – ishonchdir“, – deya g'udrandi va tag'in bu yog'iga ag'anab, choshgohdan keyingi uyquning qolgan yeridan davom ettirarkan: „Ageda, hozir qalblarini tozalashga tashnalar uchun istagini qondirmoqlikning vaqti emas, bemahal chaqirma!“, – deydi. Biroq qo'llar tushishga ulgurmayin, xonaga avliyo ota kirdi va bari shu onda chuvalashganday, senora Rebekaning soati bolaning sekin harakati, bevaning besabrligi orasida adashib qolganday, nihoyat millar o'z sohiliga kelib urilgan ulkan to'lqinlarday keyingi daqiqa adog'iga yetishi bilan viqor-u salobat ila bong urib: „Soat rappa-raso ikkidan qirq besh daqiqa o'tdi“ – deya e'lon qildi. Otam: „Vaqt oqimiga qarshi suzayotgan odam, vaqt oralig'ida adashib qolishi hech gap emas,“ deya aytgani-aytgan. Hozir biz shunday, yo'lni yo'qotgan odamday garangsib turibmiz.

– Osmonlarda uchib yuribsan hali, qizim, – deydi otam xayollarim tubiga yetishga urinarkan.

– Ota, ko'nglim g'ash, nimadir yuz beradi-yov, – deyman xavotirimni yashirmay.

– Ko'nglingga olmasang, hech nima bo'lmaydi, iymonim komil, hozir ko'pgina xonadonlarda sut ichida gu-

ruch aylanib pishyapti, hech kimning biz bilan ishi yo'q, xotirjam bo'l, – deydi. Aslida esa ichini it tirnardi, o'zidan o'tganini o'zi biladi.

Tobutning qopqog'i yopilishi bilan o'lgan odamning yuzi esimdan chiqmayapti. U shunchalar xotiramga muhr-lanib qoldiki, devorga qarab turib, uning sovuq, dahshat-li, ochig'u cho'kik sarg'ish itko'zlarini va tishlangan tilini unutilmayapman. Eslasam, butun vujudimni vahm bos-yapti. Shim pochasi oyog'imni qichitgani-qichitgan.

Bobom onamning yoniga cho'kdi. Qo'shni xonadan qaytgach, kursini tortib, oyimga yaqin joyda oqsoq oyog'ini cho'zib, jim, o'ychan o'tiribdi. Bobom kutyapti. Oyim am... O'lgan odamning to'shagida bamaylixotir o'tirib, si-gara chekayotgan hindular ham kutyaptilar.

Magar ko'zlarimni boylab, qo'limdan tutib, butun Ma-kondoni aylantirib, boshqa uylarga va tag'in shu xonaga olib kirishsa, son-sanoqsiz xonalar orasidan bu hidni dar-hol tanigan bo'lardim.

Ushbu xonadagi axlat-u eski sandiqlardagi naftalin hi-dini hech qachon unutilmasam kerak, garchi bu yerda me-nyu Abram yashirib, tag'in Tobiasgayam joy qoladigan darajadagi kattagina antiqa jomadon bo'lsa ham. Xonalar hididan ajrata olish qobiliyatiga egaman.

O'tgan yili Ada qo'limdan tutib, meni tizzasiga o'tqaz-gandi. Ko'zlarimni yumib, kipriklarim orasidan chehrasi-ni ko'rib turibman. Kaminani tizzasida tebratib, mehr-la alla aytayotganidagi ayolning sokin qiyofasi g'ira-shira ma'lum. Ko'zim ilinay-ilinay deganda tag'in o'sha hid.

Uyda menga notanish iforning o'zi yo'q. Peshayvonda yolg'iz qolganimda ko'zlarimni yumib, qo'llarimni oldin-ga cho'zib yuraman. O'zim haqimda o'ylayman: „Bobom-ning xonasidan may-u malham hidi keladi“. Qo'llarimni cho'zib, tag'in oldinga odimlayman. Xayolimda oyim

xonasiga yaqinlashaman. Uning xonasidan yangi qartalar-u xushbo'y atirlarga qorishiq naftalin anqiydi. Xuddi ko'nglimdan o'tkazganimday, qo'shiq aytayotgan oyim xonasidan yangi qartalar isi dimog'imga urildi. Ustiga ustak atir-u naftalin iforini tuyaman. Uning xonasi oldidan chappa burilganimda aniq bilaman ochilmagan derazalar-u yuvilgan kiyimlar hidi keladi. Tag'in yana uch qadam yurdim, notanish is, joyimda tosh qotdim, ko'zlarimni ochmasimdan Adaning ovozi qulog'imga chalinadi: „Bolajonim, nega ko'zlaringni yumib yuribsan?“

O'sha tun uxlashdan burun hali hech qachon hech qaysi xonadan tuymagan hiddan hamon o'zimga kelolmayman. Rayhon gulining kuchli, o'tkir ifori. Men ko'zlarimni ochib, baland muattar bo'ydan mast bo'lgan ko'yi: „Siz ham sezyapsizmi?“, deb so'radim. Ada menga bir ko'z qirini tashladi-yu nigohini olib qochdi. Savolimni tag'in takrorladim: „Siz ham sezyapsizmi? Qayerdandir rayhon isi kelyapti“. „Ha chindan ham rayhon ifori, u to'qqiz yil burun mana shu devorlar yaqinida xushbo'y hid taratib, ochilib yotardi“. Men qaddimni rosladim-u o'tirib oldim.

– Ammo gullar ko'rinmayapti-ku, – dedim.

– Hozir chindan ham yo'q, biroq to'qqiz yil avval sen tug'ilgan vaqtlarda rayhon hovlini to'ldirib turardi. Issiq, jazirama kechalarda u xuddi hozirgidek muattar hid taratardi.

Men uning yelkasiga bosh qo'yib, og'ziga angrayib qarab qolgandim.

– Biroq bu mening tug'ilishimga qadar bo'lgan-ku, – dedim.

– Qish qattiq kelganida gullarni sovuq urib ketdi, so'ng ularni ildizi bilan kovlab tashlashga to'g'ri keldi.

Tunda boshqa iforlarni kesib tashlaguvchi bu o'tkir hid yo'qolmasdi. Adaga:

– Bu haqda menga gapirib bering, – deb oyoq tirab oldim.

U jim turib, oy yorug'ida ohaklangan devorga termilib dedi:

– Rayhon qanday gulligini-yu undan taralayotgan hid nega bu qadar o'tkir-u muattarligini anglab yetadigan kun ulg'ayganingda keladi.

Men tushunmadim, lekin birov bag'riga bosganday, kutilmaganda seskanib ketdim.

– Hm, – dedim.

– Rayhon tobutida tinch yotolmagan bezovta ruhga o'xshab, tunlari kezinadi.

Men uning yelkasiga suyanib, sukut saqlab turardim va hamon o'zimni chalg'itishga urinardim, pechka yonidagi bobom boshmoqlarini quritadigan eski kursi xayolimdan o'tdi. Oshxonada shlapasini yechmay, o'chib qolgan o'choq kuliga tikilib o'tiradigan kimsa bezovta ruh ekani-ni tushundim. Bir zum to'xtab, turib dedim:

– Balki, bu o'sha oshxonadagi arvohdir-a?

Ada menga ko'zlarini chaqchaytirib boqdi va so'radi:

– Qanaqa arvoh?

– Bobom paypog'i-yu boshmog'ini qo'yib quritadigan kursi bor-ku, unda arvoh o'tirganini ko'rdim.

– Yo'g'-ey, kursi paypog'-u boshmoqlarni quritishdan bo'lak boshqasiga yaramaydi, unda arvoh nima qilsin.

Bu o'tgan yilda yuz bergandi. Endi barining oyog'i osmondan bo'lib ketdi, qorong'ida ko'zlarimni qisib qarashim ham shart emas. Tun cho'kkaniga qaramay, arvoh ko'zlarining tubiga qadar ko'rinadi. Bu haqda oyimga aytmoqchi bo'lgandim-u, biroq u bobomga aytadi, deb indamay qo'ya qoldim.

– Bunga nima deysiz?

– Xavotirlanishga hojat yo'q, Makondoda hamma yoq

tinch, tinch oqayotgan suvdan sokin, o'ylaymanki, har bir xonadonda hozir sutda guruch bir maromda aylanib pishmoqda.

6

Avvalida u yettigacha uxlardi. Oshxonaga tugmalari yuqorisigacha o'tqazilgan, kir yenglari tirsagiga dovur shimarilgan, yoqasiz ko'ylakda, yuqorisi ko'kragiga qadar baland ko'tarilgan shimlarda, rangi uniqib, yirtilib-titilib ado bo'lgan eski kamarini taqib kirib kelardi. Eti yo'qligidan shimi tushib ketadiganday tuyulardi. Biroq qiyofasidagi harbiylarga xos jiddiy viqor, jonsaraklik, toliqish nimaligini bilmaydigan, hali unga, hali bunga qiziqib, bajarishga urinadigan kimsaga ozg'inligi aslo yot ko'rinmas, bari tabiiydek edi. Shom mahali u qora qahva icha: tashqariga chiqib, o'tgan-qaytgan bilan loqayd so'rashib, tag'in xonasiga qaytardi.

U uyimizda sakkiz yil yashadi, kutilmagan va g'alati odatlari boshqalarda hurmatdan ko'ra, qo'rquv uyg'otadigan bu odam Makondoning eng yaxshi doktori.

Banan shirkati-yu temir yo'l qurilishiga dovur u qishloqdagi yagona qo'li yengil shifokor edi. Xonasidagi kursilar o'sha kunlardan xotira. Shirkat ishchilariga tibbiy xizmatni tashkil qilganidan keyin Makondoda doktorning huzuriga keluvchilarning bari ostonasidan oyog'ini uzib, boz ustiga unikiga olib boradigan yo'lni unutib qo'ydilar. U o'zidan o'tganini o'zi biladi, biroq bu haqda birovga miq etgan emas. U avvalgidek eshigini ko'chaga qaratib, katta ochib qo'yar, charm kursida kun bo'yi huzuriga shifo istab keluvchilarni kutardi, biroq uni it ham yo'qlamagach, eshigini mahkam berkitib, lo'kidonni ichkaridan surib qo'yib, yakdillikka yuz tutganча, belanchagida xayolga tolganча kunni tunga ulardi.

O'sha kezlarda Meme uning xonasiga nonushtaga banan va apelsinlarni olib borib berishni odat qilgandi. U mevalarni yerdi-da, po'chog'ini burchakka otardi, hindu ayol bo'lsa, shanba kunlari xonasini beminnat tozalab, yuvib saranjom-sarishtalardi. Yurish-turishidan bu odamning kimligi ma'lum edi, mabodo Meme bir hafta xonasini yig'ishtirmasa, haqiqiy molxonaga aylanishi turgan gap, unga esa bari bir.

Endi u tayinli biror ish qilmasdi. Soatlab belanchagida cho'zilib tebranganicha xayol surib yotishi mumkin edi. Qiya ochiq eshikdan xona ichi g'ira-shira ko'rinar, ozg'in hissiz qiyofa, taralmagan sochlar-u bemorlarnikiday sarg'ish itko'zlaridan, shubhasiz, kurashdan chekingan odamning cheksiz qayg'usi jismi-yu ruhiga qattiq azob berayotganini sezish qiyin emasdi.

Avvaliga Adelaida uning biznikida yashashiga ko'nikib, hatto bu qaroriga chindanam xayrixohday ko'rindi. Biroq tushlik mahali hamma qatori bir dasturxonga o'tirishdan bo'yin tovlab, fotihadan qolgan arvohtay, duo o'qilganidan keyin ovqatlanishi ayolimning sabr kosasini to'ldirib yuborardi.

– Savob uchun bir kosa ovqatni kuchukka ham tutadilar, biroq bu odamga uyimizdan joy berib, Xudoga shak keltiryapmiz, axir, u naq ajina, iblisning o'zginasi, – derdi u tap tortmay.

Men unga qiziqish, havas yo savob uchun emas, balki rahmim kelganidan madad qo'lini cho'zгим kelardi (chunki bu g'ayritabiiy odamga boshqa birovning shafqat qilishi amri mahol).

– Musofirga marhamatliroq bo'lish kerak. U dunyoda yolg'iz va kimsasiz, boz ustiga ko'magimizga muhtoj. – deya xotinimni shashtidan tushirardim.

Temir yo'l ishga tushdi. Makondoning qiyofasi o'zgarib,

yangi odamlar paydo bo'ldi, kinoteatr va shunga o'xshash ko'ngilochar joylar ko'paydi. Hamma bir ishning etagidan tutgan, yakkash ugina bekor. U odamoviday uyidan chiqmay yashardi, bir kun nonushtaga hamma dasturxonga yig'ilgan payt keldi-da, sevinchdan terisiga sig'mayotgan odam kabi samimiy ohangda: „Makondoni yorqin kelajak kutyapti“, – deya elburutdan bashorat qildi. O'shanda undan ilk bora bunday gapni eshitib turgandim. „Hammasi o'tib ketadi-yu, biroq barcha taraqqiyot quliga aylanishga ulguradi“, – deb qo'shib qo'ydi u.

Keyingi oydan u namozshomlari ko'chaga chiqishni odat qildi. Kechgacha sarta-roshxona oldida mijozlar davrasida salqin havodan to'yib-to'yib nafas olishlari uchun qo'yilgan o'rindiqda o'tirardi.

Shirkat doktorlari uni tirikchiligidan mahrum etmoqlikdan yiroq edilar. 1907-yilda makondoliklar doktorning borligini xotirasidan faromush aylab, ostonaga istab kelishni kanda qilganda, o'ziyam bemor kutishdan mutlaqo umidini uzgan mahal, banan shirkatidan qandaydir bir „aqli“ doktorning davolashga ijozat beradigan maxsus hujjati bo'lishi kerakligini alkald miyasiga quyibdi. Dushanba kuni maydonning to'rt tomonida farmoyish paydo bo'ldi. Men unga farmoyishga amal qilmoqlik shartligini aytgandim.

– Nima keragi bor, polkovnik, men bu ishni qilmayotganimga ming yil bo'ldi, – dedi u pinagini buzmay.

Shu-shu men uning hujjati bor yo yo'qligini bilolmadim. Boz ustiga chindanam fransuzligi, hech qachon tilga olmagan yaqinlari bormi yo yo'qmi, kelib chiqishi kim, bular bari menga qorong'iligicha qoldi. Bir necha haftalardan keyin alkald va yordamchisi uyimga odamlarni davolashga haq-huquq beradigan hujjatlarni talab qilib kelishganida u xonasidan chiqishni istamadi. O'sha vaqtda

o'ylab qaragam besh yil bir tom ostida yashab, bir dasturxonda o'tirib, hatto isminiyam bilmas ekanmiz.

Uyimizdagi chiqish eshigi tashqariga qaragan xonaning nega hech ochilmasligini ayni o'n yettiga kirganimda, Meme bilan do'konida gurunglashib qolgan tunda bilishim kerak bo'lgan ekan. Doktor tejab-tergab yiqqanlariga (u uyimizda yashagan paytlarida pulini hech narsaga sarf qilmagan, yiqqani nafaqat uy, balki Meme uchun uyi yaqinida do'koncha ochib berishga ham yetgan ekan) muyulishdagi uyni sotib olib, o'ziga tegishli narsalari – to'r belanchak, dori-darmon terib qo'yiladigan xontaxtani olib chiqib ketganidan keyin, onam xonaning eshigiga katta qulf urib, qayta ochgani ruxsat bermagan. Xuddi doktordan qolgan lash-lushlarning bari u yotgan to'shakkacha onam nazdida bir baloga yo'liqqan, la'natlanganday tuyulardi.

Esimni taniy boshlaganimda tambalangan xona e'tiborimni torta boshladi. Qovun pishig'i mahalida (Meme va doktor uyimizni tark etganidan besh yil o'tib) kelgusi yilning boshidan Martin bilan o'sha yerga ko'chib o'tishini orzu qilayotgandim-da. Turmushga chiqqanimdan keyin bo'lajak umr yo'ldoshim bilan o'sha xonada yashashni tasavvur qilarkanman, uyimizning eng so'lim xonasiga aylantirmoqchiydim va bu haqda onamga sekin-asta yotig'i bilan tushuntirib, gap orasida xonani ochish kerakligiga bir-ikki shama qilib ham qo'ydim. Kelin ko'ylagimni tikishga qo'l urgunimizga qadar menga hali hech kim doktor, xonadonimizda mulkiga aylangan xona to'g'risida og'iz ochmagan, zero uyimizda tirik jon borki, uning borligini eslamasdi ham.

Menga besh yildan so'ng erga tegish taqdir qildi. Bolalik voqealarning bari esimda yo'g'-u, biroq g'ira-shira xotiralar, ba'zi narsalar to'g'risida mujmal qarashlarim bor edi. Xullas kalom, to'yimga hozirlik ko'rilyotgan vaqtda ko'p

narsalar men uchun sirligicha qolgandi. Turmushga chiqishimdan bir yil burun ham Martin orzularimda go'yo sarobga o'xshab tuyulardi. Men uning shunchaki faqat tushlarimga kirib chiqadigan alp bahodirning ko'lankasi emas, balki qoni-yu joni bor odamligiga ishonch hosil qilmog'im kerak edi. Biroq yurak yutib, onamga rejalarim to'g'risida og'iz ochib so'zlolmasdim. „Qulfni olib tashlayman, derazaning oldiga stol qo'yaman, uy burchagiga karavotni joylashtiraman. Ayvonga chinnigullarni tuvagi bilan keltiraman. Shiftga qalampirmunchoqlarni ilib chiqaman“. Taassufki, bularning bari xayol, taqdirimga bitilgan kimsa bilan kechadigan abadiy berk xonadagi lahzalar shirin orzulardagina tirik edi, xolos. Ko'z oldimda tasvirlanadigan tasavvurlarda yashaydigan, qo'l cho'zganimda sirg'alib chiqib g'oyib bo'ladigan, to'rt tugmali charm kamzulini chap yelkasiga tashlagan qurch yelkari keng, qop-qora mo'ylovli yigit sharpasi ko'rinish berib turardi.

Iyul oxirida u biznikida mehmon bo'ldi. Ular kun bo'yi uyda, otam xonasida qandaydir sirli, menga mavhumligicha qolgan moliyaviy masalani muhokama qilishardi. Namozshom tushganda Martin va men, onam hamrohligida dalaga aylanishga chiqdik. Qaytishda botayotgan quyoshning g'ira-shira yorug'ligi tushayotgan mahal, u yonimda birga odimlar, garchi shundoq qo'l cho'zsam yetadigan joyda bo'lishiga qaramay, ko'zimga sarobday ko'rinar, barmog'im tegishi hamonoq tumanday tarqab ketadiganga o'xshardi. Uni tasavvurim mahsuli deb bilar, borligiga to'la ishonchim bo'lmagani uchun, o'gay onamga: „Men o'sha xonani tozalab, Martinga tayyorlab bera-man“, - deb aytolmasdim.

To'yimdan bir yil muqaddam unga turmushga chiqaman, degan o'ying o'zi haqiqatga yaqin emasdek edi. Men u bilan fevralda chaqaloq Palokemadoni xotirlash

marosimida tanishdim. Qishloq qizlari to'planib, qo'shiq aytib, chapak chalishidan huzurlanardik. Makondoda kino-teatr, ommaviy grammafoni va boshqa ko'ngilochar joylar bor edi, biroq otam-onam qiz bolaning u yerga borishiga qarshi edilar, „Bu ermak qalang'i-qasang'ilar uchun“, – derdilar.

Fevralda, kunduz kunlari havo isib borardi. Tushlikdan so'ng otam dam olar, biz onam bilan peshayvonda kashta tikardik. U o'midan turib, boshidan sharillatib suv quyayotgan mahal, ishini bir burchakka yig'ishtirib qo'yardik. Fevralda kechqurunlari sovuq bo'lar, qishloqda marhum chaqaloqlarni xotirlab, ayollarning kuylayotgan hazin, dardli nolalari quloqqa chalinardi.

O'sha oqshom biz chaqaloq Palokemadoni xotirlash marosimiga yig'ilganimizda, Meme Oroskoning xudodod¹ ovozi hammanikidan chiroyli va yoqimli eshitildi. U juda ozg'in, qo'pol, qahri qattiqday tuyular, biroq qo'shiq kuylayotganda shirali tovushi uni hammadan go'zal ko'rsatardi. Ilk bora tin olganimizda Garsia Xenoneva: „Daraxt ortida bir notanish yigit o'tiribdi“ – dedi. Menimcha, shu kuni hech kim Remedios Oroskoday maromiga yetkazib, qo'shiq kuylay olmagandi. „Ustidagi kalta kamzuli o'ziga nihoyatda yarashgan, – deydi Garsia Xenoneva. – U tun bo'yi betinim so'zladi va barcha angrayganicha uni tingladi. Yigit kamzuli tugmasini yechib, oyog'ini chalishtirib o'tirganida, poyabzalining ipi va paypog'i ko'zga tashlandi“. Meme Orosko hali-hamon kuylar, biz esa chapak chalib: „Kel unga turmushga chiqamiz!“ – deya hazil-huzil qilardik.

Uyga qaytganimdan keyin qiyofasini eslaganimda, bu so'zlar orasida hech qanday bog'liqlik ko'rmadim va

¹*Xudodod* – Xudo bergan.

ular haqiqatga yaqin emasdi. Martin bilan bog'liq xotiralarim xuddi birovning cho'pchagi, go'yo bemavrid vafot etgan chaqaloq ruhini shodlash uchun o'qiladigan qo'shiq kabi o'tkinchi tuyulardi. Ortimizdagi ayollar qonimizga tashna qilib yubordilar. O'laksaxo'r qushlarga o'xshab, biz tomon uzun bo'ynilarini cho'zib, kulgani qo'ymay, jiddiy qiyofada tergashardi. Kiraverishdagi zax dahlizda boshiga qora ro'mol yopingan ayol qahva qaynashini kutardi. Kutilmaganda oraga erkak kishining yo'g'on tovushi qo'shildi. U qanday to'g'ri kelsa shunday ayqash-uyqash kuylar, so'zlari poyintar-soyintar, bir-biriga mutlaqo yopishmasdi, nihoyat eplolmaganini ichdan tan oldi, shekilli, jimib qoldi. Veva Garsia meni yelkasi bilan turtib, yon tomonga qarashga ishora qildi. Yosh, xushbichim, xushqomat, soqoli qirtishlangan yuzi archilgan tuxumday silliq, yelkalari keng, to'rt tugmali charm kamzuli esa o'ziga g'oyat yarashgan. Notanish yigit mendan ko'z uzmasdi.

Martinning qaytishi haqidagi gap-so'zlar qulog'imga chalinishi hamon, xayolimda uyimizdagi eng tinch go'sha – o'sha tambalangan xonani unga mo'ljalladim-u, lekin timsolini ko'z oldimga keltirolmasdim. Men o'zimga „Martin, Martin, Martin“, deya betinim takrorlashga va shuurimga nomini singdirishga harchand intilmay, haqiqiy qiyofasi, ichki dunyosini tasvirlashga qilgan harakatlarim behuda ketar, bo'lajak umr yo'ldoshim siymosiga intilish va havas o'z ma'nisini yo'qotardi.

Biz qo'shiqni tugatishimiz bilan u qarshimda turgan quruq piyolani oldi. „Qahva quyqasida taqdiringizni o'qidim“. Men uyalib, boshqa qizlar qatori chiqish eshigi tomon yo'naldim, ortimdan har qanday qizning es-hushini o'g'irlyadigan darajada yoqimli, ayyor, yumshoq, ohan-rabo tovushini eshitdim: „Osmonga tikilib, yetti yulduz-

ni sanang va o'sha tun meni tushingizda ko'rgaysiz". Ostonada mo'jaz tobutda chaqaloq Palokemado yotibdi. Uning yuziga guruch sepilgan, og'ziga esa atirgul qo'yilgandi, dunyoga kelib, hali hayot ne'matining neligini anglamagan, uni tatimoqchi bo'lgan-u, biroq ta'mini bilolmay, ochiq ketgan ko'zlariga tayoqcha tiralgandi. Fevral bolani so'nggi bora ojiz nafasi ila kuydirayotgandi, xonada esa issiqda bukilib qolgan rayhon-u xushbo'y binafshaning og'ir ifori taralardi. Mana shu gullarning o'tkir hidi va o'lik sukunat hukmron xonaga ta'sirli yagona ovoz yorib kirdi: „Esingizdan chiqmasin. Faqat yetti yulduz, undan oshib ketmasin“.

Iyulda u biznikida mehmon bo'ldi. Unga katta gultuvaklarga suyanib so'zlash yoqardi. „Men hech ko'zlarimga boqmadim. Bu esa qarshingdagi erkak sevib qolishdan qo'rqishning sirli belgisi“, – dedi u. Chindanam men uning ko'zlarini sira eslolmayman. Iyulda, hatto dekabrda turmushga chiqayotgan odam ko'zlarining rangi qandayligini aytolmasdim. Shuningdek, olti oy burun fevral chog'i kun yarmidagi sukunatda bir juft mingoyoq bir-biriga buralib, hammomda oyoqostida uxlab yotar, guldan gulga qo'nib yurgan bolarilar quruq qaytayotganidan jig'ibiyron, u bo'lsa po'rim kamzulida kerilib: „Siz betinim men haqimda o'ylaysiz. Ruhiningiz jo bo'lgan qo'g'irchoqni xonaning mehrobiga ilib, ko'zlariga nina sanchib qo'yganman“, deya takrorlagani-takrorlagan. Bu haqda Xenoveva Garsiaga og'iz ochganimda u ustimdan qotib-qotib kuldi: „Soddasan-da, soddasan, bu bo'lmag'ur irim-sirimlarga erkaklar hindular cho'pchagi deb qaraydi“, – dedi.

Mart adog'ida u otamning xonasida soatlab o'tirib, menga hamon mavhum sirli ishning muhimligini uqtirardi. Turmushga chiqqan kunimdan – o'n bir yil, qaytgunicha o'g'limizga yaxshi qarashimni tayinlab, poyezd-

ning derazasidan xayrlashgan kundan – to‘qqiz yil o‘tdi. Oldinda to‘qqiz yil... men u haqda biror xabar eshitmagan to‘qqiz yil bor edi... Martin bilan shubhali safar to‘g‘risida til biriktirgan otam betinim kuyovining qaytishidan so‘zlaydi. Chaqaloq Palokemadoni xotirlash marosimidagi ilk uchrashuvimizda u ko‘zimga qanday sirli ko‘ringan bo‘lsa, hozir ham hech narsa o‘zgaragan, men uchun hamisha shunday bo‘lib qolavergan, hatto uch yil birga yashab, erimning aslida qanday odamligini bilolmadim. O‘sha tun u to‘rt tugmali kamzulining cho‘ntagiga qo‘lini suqib, mehmonxona eshigi oldida turardi. „Endi tinimsiz men haqimda o‘ylaysiz, ruhingiz jo bo‘lgan qo‘g‘irchoqning ko‘zlariga nina sanchib qo‘ydim“, dedi u. Uning ta‘sirli, yoqimli, sirli ovozi xuddi chin haqiqatni so‘zlayotganday, biroq bu haqiqatda g‘alati-yu g‘ayritabiiy nimadir bor edi. Xenovevaning gaplari har na shubhalardan bir muddat xalos qilardi „Bari hindularning bo‘lmag‘ur uydirmalari“. Kesakdan o‘t chiqdi, pismi qiz o‘lgur uch oy o‘tib, he yo‘q-be yo‘q qo‘g‘irchoq teatrining direktori bilan qochib ketdi. „Makondoda jilla kursa bir kishi men haqqimda o‘ylashi va har daqiqa xotirlashi haqidagi o‘ylar ko‘ngilga taskin beradi“, izziz g‘oyib bo‘lgan Martin so‘zlari qulog‘im ostida hamon jaranglaydi. Xenoneva Martinga tikilib, af-tini bujmaytirgani bujmaytirgan edi.

– Uf! Jonga tegdi, buning egnidagi to‘rt tugmali kamzuli chirib ketsa ham yechmaydiganga o‘xshaydi, – derdi mensimay.

7

Garchand tabiatidagi g‘alatiligi-yu loqaydligini yashirishga, o‘zini odamoxun va samimiy ko‘rsatishga urinmasin, u baribir qishloqda begona edi, balki, aksini istagan-

dir. Makondoliklar orasida yashasa-da, qalban odamlardan olisda o'z xotiralari olamida vijdon azobiga giriftor, tuzatib bo'lmas xatolari xayollariga g'arq bo'lgan ko'yi umrguzaronlik qilardi. Unga odamlar go'yo qorong'ilikda yashab, haytovur yorug'likka chiqib ko'nikolmay, oyoqlarida tik turolmaganidan atrofdagilardan hurkayotgan hayvonchaga qaraganday qarashardi.

U sartaroshxonadan qaytar va tun cho'kkanida o'z xonasiga biqinib olardi. Kechki ovqatdan voz kechgani-ga ancha bo'ldi, uydagilar avvaliga uni kech qaytganida charchab, o'z xonasiga kirib cho'zilishi bilan ertalabga qadar uxlasa kerak, deya taxmin qilishardi. Men esa kechalari uning botiniy dunyosida o'tmishdagi yovuz ruh bilan bugungisi chinakkam barqarorlikka yetgani murosaga kelolmay, savdoyi qaysarlik ila kurash olib borayotganini va bu ikki ruhning sirli kurashi vujudini butkul holdan toydirib, ich-etini kuydirib yuborishini tushundim. Ikki yog'iy orasida arosatda qolgan bechora tana to butkul oyoqdan qolib, to'shakka yiqulgunicha betinim yurib chiqishini bildim.

Doktordagi o'zgarishni men qo'njli qo'lqop kiyish odatini kanda qilgan kun kiyimlarini almashtirib, atir sepib o'ziga qarab, yurishni boshlaganidan sezdim. Tishimni-tishimga bosib, og'ir fe'liga arang bardosh berib yurganimda tuyg'ularim o'rmini rahm-shafqat egalladi. Ko'chalarda sang'igan yangi qiyofasi emas, balki uyga qaytganidan keyin xonasiga qamalib, tag'in avvalgi holiga qaytishi, poyabzalini tozalab, kiygulik siyoqi qolmaganidan titilib ado bo'lgan paypog'ini yuvayotganidagi aftodahol yuzi tasavvurimda gavdalanib, rahmimni keltirardi. Odatda doktorning tengdoshlari tinib-tinchib, ruhiy kamolotga erishgan bo'ladi, ular uchun bu mayda-chuyda yumushlarni uyini to'ldirib yurgan bolalari yo xotini bajaradi, u bo'lsa po-

yabzalini tozalaganidan keyin, lash-lushlarini oyoqos-tidan ko'zdan panaroqqa olib qo'yish kabi mayda-chuyda yumushlargacha o'zi qilishini o'ylasam, ezilib ketardim. To'g'risi, u har tun ust-boshini dazmolsiz tekislardi, tirmoqqa zor, Yaratgan bu tomondan qisgani yetmaganday, yonida suyanadigani, g'am-qayg'usini bo'lishadigan dardkashi yo'qligidan qalbi o'ksik va azobda edi.

Qishloq ahli undagi o'zgarishni payqab, darhol sartarosh qizini suyib qolganga chiqardilar. Mish-mishlar nechog'lik asosli edi bilmadim-u, lek g'iybatlar menga uni qiynayotgan yolg'izlik uqubati, hech kimga kerak bo'lmay yashash hissi va alamzadaligi qanchalik og'irligini payqashga yordam berdi.

Har kun u kundan kun po'rim kiyinib, sartaroshxonaga borardi. Qoplama yoqali ko'ylak, yenglaridagi zarhal tugmalar, toza dazmollangan shim, shimning tugmasini burun ham yopmagan kamar. Shu turishda u ust-boshi kamtarona abadiy omadsiz kuyovga, sho'rpehona jazmanga, gulsiz, unsiz bulbul bo'lib, birinchi uchrashuvga gul ko'tarib borishga aqli yetmagan befarosat yigitga o'xshardi.

1909-yil boshida doktor haqida shunday gaplar yurardi, biroq bu bo'lmag'ur ig'voga yagona asos, uning har kun kiyinib-taranib sartaroshxona ostonasida o'tgan-kegan bilan picha gurung berganidan bo'lak, sartarosh qizi ila jilla qursa bir bora uchrashganini dalillovchi pichoqqa ilinadigan atigi bitta jo'yali isbot yo'q edi. Mish-mishlarda qandaydir yovuz niyat borday tuyuldi. Makondoda sartarosh qizi yil bo'yi qandaydir ruh ta'qibiga yo'liqib, esi kirdi-chiqdi bo'lib, turmushga chiqmasligidan barcha xabardor edi. Ko'rinmas oshiq qizga kesak otar, xumchadagi suvni o'ynatar, sartaroshxonadagi ko'zguni qoraga bo'yab qo'yar va ojizani shunday urardiki, be-

choragining yuzi ko'karib shishib ketardi. O'jar ruhga qilingan choralar bari ko'kka sovruldi, cherkovdagi qurbonlik marosimi, ilohiy suv muolajasi, alas qilish-u jodu oldirish, tinimsiz duo o'qitishlarning birortasi kor qilmadi. Axiri, sartaroshning xotini yengildi, so'nggi chora – qizini yotoqxonaga qamab, oyoqostiga kelin-kuyovlar o'zidan ko'paysin, deya guruch sepib, xonani yasatdi, qilinadigan irim-sirimlarni o'rinlatib, ko'rinmas, tilsiz kuyovga qizini uzatdi. Ularga asal oyi uyushtirganidan keyin Makondoda, hatto erkaklar sartarosh qizining homiladorligiga ishonishdi. Biroq bir yil o'tar-o'tmas, uning ruhdan yengil bo'lishi kabi dahshatli voqeadan umid uzib, ortiq kutmay ham qo'yishdi, biroq tinib-tinchimas odamlar g'iybatlari, haytovur boshqa yo'nalish oldi: doktor va sartarosh qizi haqida qishloqda duv-duv gap tarqaldi, biroq tutqunlikdagi asira oshiqlaridan birini baxtiyor qilishidan burun o'zi kulga aylanishi tayinligini ular yaxshi bilishardi.

Shu bois bu gap-so'zlar tagida kimningdir yovuz maqsadi bor, deb taxmin qilayotgandim. 1909-yil oxirida u hali sartaroshxonaga qatnab yurganida, odamlar yaqinlashayotgan to'ydan shivirlashar, biroq birov qizning etagi unga tekkani tugul, yonidan o'tgani to'g'risida biror tayinli gap aytolmasdi.

O'n uch yil burun oftobi jag'-jag', ya'ni bugungiday quyosh tikkaga olib, ayamay qizdiradigan sentabr kunida onam bilan xolis niyatlar bilan to'y ko'ylagini tikishga bel bog'ladik. Har kun tushdan keyin otam uxlagani kirganida, biz ona-yu qiz gultuvaklar qatorlatib terilgan peshayvonga o'tirib, undan bundan chaqchaqlashib, ko'ylak tikkani o'tirardik. Sentabr doim shunday edi, o'n uch yil avval ham, daqqiyunusda ham. To'y tor oilaviy davrada o'tkazilishi oldindan belgilab qo'yilgandi (bu otamning

qarori edi), shunday bo'lsa-da, biz hafsa bilan to'y ko'yilagini erinmay, g'oyat antiqa va chiroyli bezaklar bilan tikishga bel bog'lagandik, shoshadigan joyimiz yo'q, to'ygacha hali bor edi. Tikishdan ko'ra gurunglashishga ko'p vaqt ketardi. Fikr-u zikrim o'sha xonada, onamga qanday qilib Martinga mos joyligini tushuntirsam ekan-a, deya o'ylardim. Nihoyat yurak yutib, bu haqda og'iz ochdim.

Onam mehr bilan bitay deb qolgan ko'ylakning orqasini o'girib, jazirama sentabr osmoniday musaffo, harir shleyfni yelkasiga qadayotgandi.

– Yo'q, – dedi u qat'iy, ta'bi namozshom bo'lganini yashirmay, sakkiz yil burungi xotiralari sanjobida qovog'idan qor yog'ib, so'zlashda davom etdi: – Xudo ko'r-satmasin, biror kimsa o'sha xonada yashamasin-ey, Xudoyi Xudovando, illo, billo men o'sha kunlarni ko'rmay ketay.

Martin iyulda qaytib kelib, biznikida turdi. U gultuvaklar terilgan tokchaga tirsagini tirab, suyanganicha atrofini tomosha qilishni yoqtirardi. „Men Makondoda butun umr qolgan bo'lardim“, deya takror-takror aytishni xush ko'rardi. Kechga yaqin onam bilan dalaga bordik. Qishloqda chiroqlar yonishiga oz qolganida kech tushayotgan mahal qaytdik. „Sen bo'lmasang ham Makondoda baribir umrguzaronlik qilardim“, dedi u. Ovozining ohangidan bu so'zlarni samimiy aytayotgani sezilardi.

Doktor uyimizni tark etganiga besh yil bo'lib qolgandi. Biz peshayvonda o'tirib, ko'ylak tikayotganimizda o'gay onamga ilk marotaba Martinga mos xona haqida so'zladim va u ilk marotaba o'zini hayratga solgan doktorning g'alati tabiati haqida yorildi.

– Besh yil avval, – deya hikoyasini boshladi u, – odamlardan o'zini olib qochib, hurkak yovvoyi hayvonday yashardi. Ha, haqiqiy odam ko'rmagan yovvoyi, qaysar,

o'txo'r eshak. Agar u butun qishloq ahlining qulog'iga lag'mon ilib, ko'rinmas, ruhdan homilador bo'lib qolganiga laqqa ishontirgan pismiqlik sartaresh qiziga uylan-ganida, balki, bularning bari sodir ham bo'lmasdi. Biroq u birdan sartareshxonadan oyog'ini uzdi-qo'ydi, oxirgi daqiqada niyatini o'zgartirdi, ammo bu tuban istakla-ri-ning yangi bosqichi edi. Odamlar nafratiga duchor bu yovvoyi eshakning shuncha ishdan keyin ham uyimiz-da yashashiga imkon berib, tag'in bu bag'rikenglik va odamgarchilikka to'g'ri kelishiga boshqalarni ishonti-rish-u ko'ndirish yakkash otangning qo'lidan keladi. U Memeni domiga ilintirib, uydan olib ketishgacha borib yetdi. Shunda ham otang yanglishganini tan olgan emas, qaysar-da qaysar.

– Bulardan bexabar ekanman. – dedim.

Bog'da chigirtkalarining chirillashi quloqni qomatga keltirardi. Onam ishidan chalg'imay, bir maromda ko'ylakka zeb berib, ko'kragiga marjon qadardi. Ustiga-ustak bir maromda-yu bir ohangda hikoya qilardi:

– U sartareshxonadan qaytgan so'nggi oqshom, biz ovqatlanishga yig'ilgandik (undan bo'lak, u umuman das-turxonaga o'tirmasdi) Meme ovqat suzdi. Uning rangi qum o'chgan. „Senga nima bo'ldi, Meme?“ – so'radim hovliqib. „Hech nima bo'lgani yo'q, xonim“, deb ko'zlarini olib qochdi. Shunday deyishiga qaramay, chiroq yorug'ida u yoqdan bu yoqqa o'tib qaytayotganida yuzidan betobligini sezdim. „Xudoyim, Meme senga nima bo'ldi, tobing yo'q-ku!“ – dedim. Dasturxon boshida u o'zini amallab tutib tur-di. Oshxonaga patnisni olib borayotganida otang: „Mazan-giz bo'lmasa, damingizni ola qoling“, – dedi. Uning ovozi chiqmadi, bil'aks patnisdagi idish-tovoqlar taraqlab yerga tushib, chilparchin sinayotganini eshitdik. Meme devorga suyanib qoldi. Otang xavotirlanib o'rnidan turdi-yu shu za-

hoti doktor huzuriga yugurdi. Sakkiz yil ichida hali biror marotaba unga ishimiz tushib, tinchini buzmovdik. Memeni xonasiga olib borib, bilganimcha, spirt surib, eshikka ko'z tikib turdim. Biroq hadeganda ulardan darak bo'lmadi, Isabel, bilmasang bilib qo'y, u sakkiz yil xonasini tozalab, zaharmargiga bir kosa ovqat tutib, ko'rpa-to'shagini yuvgan qiz xizmatini nazariga ilmay, boshi yostiqqa tekkanida kelib, bir marta ko'rishdan bosh tortdi. Sakkiz yillik boshpana, non-namak, qon-qarindoshday ko'rganimiz andishasi bo'lmadi. O'zini bilgan odam, yegan og'iz uyalar, deb shuncha yil yegan-ichganini oqlash uchun ham iltimosimizni yerda qoldirmasdi. „Yo'q“ deyishga qanday yuzi chidadi, hayronman. Doktor haqida o'ylasam, negadir Yaratgan egam bizga uni jazo tariqasida yuborgan, deb o'ylab qolaman, bu bilan hammaga ishonish kerakmasligini uqtirmoqchi bo'lganga o'xshaydi. Yaxshilik qil suvga ot, bilsa baliq, bilmasa xoliq, deb shunga aysalar kerak... Mayli, oqibat olamdan ko'tarilganiga ming yil bo'ldi, deylik, biroq bemorga yordam berish, jonini saqlab qolish doktorning burchi, manglayiga bitilgan qismati emasmi. Meme o'layotgandi (harholda biz shunday deb o'ylagan-dik), uning esa parvoyi falak, olamni suv bossa to'pig'iga chiqmaydi, xonasiga qamalib olgan.

Otang yolg'iz qaytdi: „Unga spirt surib qo'yinglar, ammo og'riq qoldiruvchi malham bermanglar“, – doktorning tayinli gapi shu ekan, so'zlashda davom etardi onam. – Otang bu gapi bilan yuzimga tarsaki tushirganday bo'ldi. Bilib-bilmay qilgan muolajalarimizdan Memening ahvoli biroz yaxshilangandi. Jahl otiga minib, hovurimni bosolmadim. „Ha, albatta spirt bilan! Allaqachon qildik, o'zimizam bilamiz, buning-chun doktor bo'lish yo doktor bo'la turib, birovga tiriktovon bo'lib yashash shart emas“. Otang darg'azabligimni sezib, aqlga tayandi, xotirjamlig-u

donishmandlik ila javob qildi: „Hay-hay, onasi, sal vazmin bo‘ling‘ Shaytonga hay, daryoga qilgan yaxshilikni biyobondan topasiz, barini keyin tushunasiz“, – oldindan ko‘rib-bilib qo‘ygan bashoratchiday dadil so‘zladi u.

O‘sha tun tashvishlarini qayta tuyayotgan onamning ovoz ohangida cheksiz nafrat sezilar, Memega qarashdan bo‘yin tovlagan doktordan butunlay ixlosi qaytgani shundoq ko‘rinib turardi. Jazirama sentabr kunida hammayoqni olmaning yoqimli ifori tutib ketgandi.

– Ko‘p o‘tmay, bozor kuni kibor oyimchalarga taqlidan saxt-sumbati kelishmay, yasan-tusan qilgan Memening cherkovda paydo bo‘lishi g‘oyat kulgili edi. – dedi u. – Ayniqsa, qo‘ng‘iroqchali soyaboni esimdan chiqmaydi. Meme, Meme... Bu qiz Xudoning jazosi bo‘ldi. Biz uni go‘dakligida, ota-onasi boqolmay, tirik yetim qilib tashlab ketganda, ochlikdan o‘lib qolmasin uchun qaramog‘imizga oluvdik, asrab-avaylab, ko‘pdan kam qilmay o‘stirdik, unga nomimizni berdik, u bizga to‘ng‘ichimizday gap edi, biroq eskilar bilib aytarkan, yetim bola boqguncha, yetim qo‘zi boqish kerak, deb. Ertasiga ertalab unga barcha lash-lushlarini yig‘ib, bo‘xchalarini tashigani hindu yordamlashishini kutib o‘tirgan vaqtda ostonada to‘qnash kelib qoldim. Mutlaqo boshqa odamga aylanib qolgan, qahrli qiyofasidan (hozir ham kechagiday yodimda) otang bilan qandaydir jiddiy masala xususida gaplashayotganga o‘xshardi. Chabella, u hammasini bichib-to‘qib qo‘yibdi, suvni ko‘rmay etik yechgan ovsar, menga bir og‘iz ham aytishni lozim topmaganini qara, xuddi men hech kim, devorda chizib qo‘yilgan jonsiz surat, odammas, uning uchun onayam emas ekanman. Uyimizda sodir bo‘layotganlariga aqlim yetmay, asl mohiyatini so‘ragani og‘iz ochgan ham edimki, otang gapirgani qo‘ymay: „Memedan hech nima so‘rama. U biznikidan ketyapti, balki, bi-

roz vaqtdan so'ng qaytar“, – shu gap bilan og'zimga urdi. Men o'zidan qayoqqa otlanganini so'rovdim, uning qilig'i oqsochnikidan oshib tushdi, u indamay ortiga o'girildi-da, ketvordi. Turgan joyimda haykalday tosh qotdim.

– Ikki kundan keyin, – deydi u, – men haligi so'xtasi sovuq ham biznikidan Meme ketgan tongda ipni uzganini va buni bildirishga fursat topolmay, xayr-xo'shni nasiya qilib, g'oyib bo'lganini eshitdim. Tavba, odam degani ham shunaqa bo'ladimi, sakkiz yil bir hovlida turib, rahmat, demay ketish, bu qanaqasi, shundaylarni ko'rganingda qanday qilib yoqa ushlamaysan. Menimcha, o'g'rilargina xonadoningga ana shunday kirib keladi va ishonchingni qozonishi hamon seni g'aflatda qoldirib, uyingni shipshiydam qilib, pusib tark etadilar. Men otang Memega yordam ko'rsatishdan bo'yin tovlagani uchun uni uydari haydagandir devdim. Biroq bu haqda otangdan so'raganimda: „Bu uzun hikoya, keyin bafurja gaplashamiz“, – quruqqina javob berdi qo'ydi. Besh yildirki, bu mavzuda og'iz ochgani yo'q.

Otangga o'xshagan ko'ngli bo'sh odamga-yu bosh-boshdoqlik hukmron biznikidek uydagina har kim miyasiga kelganini qilishi va shunga o'xshagan voqea yuz berishi tayin edi. Makondoda Memening cherkovga yasan-tusan qilib, kibor xonimlarga o'xshab kelgani yashin tezligida tarqaldi, otang esa o'sha kun uyalmay-netmay, uning qo'lidan tutib olomon orasidan olib chiqayotgan mahal avvaliga hech narsaga aqlim yetmay garangsib turdim, o'zimga kelganimdan keyin yer yorilmadi-yu kirib ketmadim. Ana xolos, o'sha kun bizning Meme uzoqqa emas, balki qishloq muyulishidagi uyda doktor bilan yashayotganligidan boxabar bo'ldim. Hayvonlarga o'xshamay ketsin, nikohsiz, harom-xarish yashashdan or qilmaganini qara, kesakdan o't chiqarkanda. Meme taqvodor bo'lmaganida

mayliydi. Otangga: „Kun kelib, Tangri Memeni ayni shu gunohi uchun jazolaydi, axir, bu yaratganga xush yoqmaydi“, – dedim, ammo o‘shanda ham u qovog‘ini o‘yib, mum tishlab oldi. Uzoq yillar davomida odamlardan yordamini ayamadi. Sinalmagan toyning sirtidan o‘tma, deydilar, otang gapimga kirmay, hamisha xato qiladi. Birodarim, deya qo‘lini cho‘zgani uni el orasida sharmanda qilib, pand berib ketadi. Garchand odamzoddan ixlosi qaytganiga qaramay, hamon hayotga qarashlari o‘zgarmagan, xotirjamligi zarracha tark etmagan.

Men bo‘lsam bari shunday tugaganiga va doktor uyimizdan ko‘chib ketganiga xursand edim. Agar o‘sha kechadagi oqealar yuz bermaganida, u hoziram o‘sha xonada yashab irardi. Xudoga shukrki, beso‘naqay jomadoniga lash-lusharini joylab, shu darvozadan qayta turqini ko‘rsatmaydigan bo‘lib ketganidan boshim osmonga yetdi. Borar eshigingni qattiq yopma, deyishadi, u esa hammasiga tupurib ketdi, bu kunni men sakkiz yil kutgandim va u xuddi men aytganday yuz berdi, otang esa tilini tishlab qoldi.

Ikki haftalardan keyin Meme o‘sha muyulishdagi uy yonida do‘kon ochdi, boz ustiga tikuv mashinalik ham bo‘lib oldi. U yangi „Domestik“ mashinasini biznikida yashab, yiqqan pullariga xarid qilgan. Men uchun bu haqorat edi, otangga xuddi shunday dedim. Biroq u so‘zlarimga indamadi. Otangning sabr-toqatliligi, hurfikrliligi, rahmdilligi men uchun telbalikdan boshqa narsa emasdi, xonadonimiz sha‘nini yerga urib bo‘lsa-da, ularning oyoqqa turishga yordam berganidan ko‘ngli xotirjam edi, nazarimda. Uning xotirjam yuziga tikilib, jahlim chiqqanidan: „Siz e‘tiqodingizdagi barcha yuksak narsalarni cho‘chqalarga yedirib bo‘ldingiz“, – dedim. Otang indamadi, biroq „Vaqti-soati bilan barini anglaysan“ – deya gapni qisqa qildi.

Bir kitobda aytilganidek, dekabr xuddi kutilmagan bahor kabi kirib keldi. U bilan birga Martin ham. U bizning uyimizda tushdan keyin qo'lida charm sakvoyaj, egnida o'sha to'rt tugmali kamzul, bu safar u toza, dazmollanganidan tep-tekis edi. Menga hech nima demay, to'g'ri otamning xonasiga o'tib ketdi. To'yimiz iyulga belgilangandi. Biroq ikki kundan so'ng otam onamni chaqirib: „Dushanba kuni to'y!“ debdi. O'sha kun esa shanba edi.

Ko'ylagim bitay deb qoluvdi. Martin kun bo'yi otam bilan suhbatlashar, dasturxon boshida nonushta mahali ham, tushlik chog'i ham, kechki ovqat vaqtidayam taassurotlaridan so'ylashdan charchamasdi. Bo'lajak umr yo'ldoshimni mutlaqo bilmasdim. Hali u bilan biror marta yolg'iz qolib suhbatlashmaganman. Biroq otam ikkalasini qalin do'stlik, birodarlik rishtalari bog'lab turar, otam uning tagiga ko'rpacha solib, shunday berilib, maqtab so'zlardiki, xuddi men emas, o'zi unga turmushga chiqayotganday tuyulardi.

Garchi to'y bugun-erta o'tishi ma'lum bo'lsa-da, men unga nisbatan hech nima his qilmasdim, qalbim bo'mbo'sh edi. Ko'z oldimni kulrang tuman qamrab olar, ichidan yo'l-yo'lakay to'rt tugmali kamzulinining tugmalarini tinimsiz yechib-o'tqazib Martin chiqib kelar, qandaydir ma'noli ishoralar qilar, biroq bu ma'noli ishoralarni tushunish tugul, yuzini ham tuzuk-quruq ko'rolmasdim. Bozor kuni u biz bilan ovqatlandi. O'gay onam dasturxon boshida ikkimizning joyimizni shunday belgilagandiki, Martin mendan uch kursi narida, otamning yonida o'tirardi. Biz onam bilan bir-ikki og'iz luqma tashlab qo'yganimizni hisobga olmaganda, asosan, otam va Martin faqat ish xusu-

sida gurunglashardilar. Uch kursi narida men bir yil o'tib, bolamning otasiga aylanadigan odamni ko'rib turardim, biroq bizni loaqal yuzaki bo'lsa-da, do'stlik rishtalariyam bog'lamasdi.

Bozor kuni kechga o'gay oyimning yotog'ida to'y ko'yilgimni kiyib ko'rdim. Ko'zgudagi oppoq harir ko'ylakda emas, balki bulutlarga burkangan rangpar aksimdan ko'z uzmay, o'z-o'zimga go'yo onamning ruhiga o'xshab tuyulardim. Garchi: „Bu men Isabel, egnimda esa oppoq bulut emas, balki to'y ko'yilgi, ertaga tong saharda turmushga chiqaman“, – deb qayta-qayta ta'kidlasam-da, oyimning ruhi tanamga o'rnashib, qiyofasi menda qayta tirilganday bo'lar, eng qizig'i, o'zimni tanimayotgandim. Meme menga u haqda shu uy oldida bundan bir necha kun burun so'zlab beruvdi. Aytishicha, u meni yorug' dunyoga keltiriboq, joni izilgan, to'y ko'yilgida tanasini kelinchaklarday yasaib, tobutga qo'yishgan ekan. Ko'zguga tikilsam, ko'z oldimda qaro zax yerda mog'orlab ketgan tobut ichra chirib ado bo'lgan kelinlik ko'yilgidagi oyimning suyaklarini ko'rardim. Oynadagi mening aksim emasdi. Oyim o'z olamidan qo'l cho'zib, meni kelin ko'ylakda ko'rish, bir bora qiyo boqqani va to'yimni o'z ko'zi bilan ko'rgani qayta tirilib kelganga o'xshardi. Ortimda yotoqxonaning o'rtasida g'amga botgan otam hayrat-u havasini yashirmay jiddiy qiyofada: „Bu ko'ylakda quyib qo'yganday, uning o'zisan“, dedi.

O'sha tun hayotimdagi ilk, so'nggi va yagona muhabbat nomasini oldim. Bu kinotasmaning orqasiga qirib yozilgan Martinning maktubi edi. Unda „*Bugun borishga ulgurmayman, bir qoshiq qonimdan keching. Polkovnikka kelishilgan ish qariyb bitganini aytib qo'ysangiz, bugun shu sabab deb kelolmayapman. Siz juda ham qo'rqyap-*

sizmi? M'' Bu noma menda g'alati tuyg'ularni uyg'otdi, bo'g'zimga alam qadalib, yotog'imga kirib ketdim, bir necha soatdan keyin onam uyg'otganida hali hamon alam tarqalmagan, osmonda qora bulutlar suzib yurar, qovog'i ochilmaganini tuyardim.

Aslini olganda, chindan uyg'ongunimga qadar, ko'p vaqt o'tib ketdi. Men kelin ko'ylakda mushki anbar ifori anqib turgan ochiq nam havodan to'yib-to'yib nafas olardim. Xuddi uzoq yo'lga chiqib horib-charchagan odamday toliqdim. Vakillar mehmonxonada to'rt soatdan buyon kutishardi. Men barini tanirdim, biroq ayni damda yasan-tusan qilib, katta soyabonli shlapalardagi ayollar-u qimmat kastumlardagi erkaklar mutlaqo begona, o'zi shundog'am dim mehmonxonada ularning bema'ni safsatalari bor havoni so'rib olayotganday tuyular, damim qaytib, bari hushimdan ayiradigan darajaga kelgandi.

Cherkov gavjum emasdi. Qandaydir ayollar ortlariga o'girilib, markaziy yo'lak tomondan kirib kelishimni kuzatisharkan qurbonlikka atalgan qo'zichoqqa qaraganday qarashardi. Qaysar, ozg'in, bu sukunat hukmron dahshatli tunda yagona o'tkir odam – aytgani-aytgan, degani degan jiddiy qiyofali shaxs qo'limdan tutganicha zinalardan tushib, meni Martinga topshirdi. Martin faqat sochini kalta qilib qirqtirmaganini aytmaganda ilk uchrashuvmizdagi kabi xotirjam jilmayib turar, u bu bilan menga munosib yagona, tengsiz erkakligini namoyon etmoqchi bo'layotganday edi.

O'sha tong vakillar dasturxon boshiga yig'ilib, rasamadiga ko'ra, o'tirib, nonushta qilayotgan mahal mening umr yo'ldoshim tashqariga chiqdi-yu choshgohdan keyingina qaytdi. Ota-onam g'alati holatimni sezmaganlikka olishardi. Ular o'rnatilgan tartiblarga ko'ra, bu dushanba

boshqalariga mutlaqo o'xshamasligini bilintirmaslikka intildilar. Egnimdagi ko'ylagimni yechib, javonning burchagiga tiqib qo'yarkanman: „Bir kun onamga kerak bo'lganiday, menga ham kafanlikka yarar“, deya ko'nglimdan o'tkazdim.

Xayoliy kuyov choshgobdan keyin qaytib, tushlik qilganini ma'lum qildi. Iliq dekabr kunida u sochini kaltalab, ichkariga kirishini ko'rishim hamonoq ko'z oldim xiralashdi. Martin oldimda o'tirar, bir muncha vaqt indamay sukut saqlardik. Hayotimda ilk marotaba men tun cho'kishidan qo'rqdim. O'z qo'rquvimni nima bilandir bilintirib qo'yganimdanmi, u sekin egilib qulog'imga shivirladi: „Nima haqda o'ylayapsan?“. Bir begonaning „sen“lashidan yuragimning ostidan bir nima „chirt“ etib uzilganday bo'ldi. Men xuddi to'lg'oq tutib, tug'olmay, qiynalayotgan ayolday qizarib-bo'zarib turgan osmonga boqib: „Yomg'ir yog'sa qaniydi, deya pman“, – dedim.

Peshayvonda so'nggi bor suhbatlashganimizda havo g'ayrioddiy darajada issiq edi. U sartaroshxonadan butkul oyog'ini uzib, xonasiga qamalib olgan vaqtlar. Uymizdan ketishdan avval, u meni peshayvonga chorladi. O'sha so'nggi tunda doktorga baqamti o'tirdim, kamdan kam hollardagi kabi u menga ko'nglini yordi. Tun – bu cheksiz do'zaxda yagona tiriklikdan dalolat berguvchi obihayotning jilolanishi, tabiatning haqiqiy mo'jizasi edi. Avvaliga biz terga botib, issiqdan nafas olishga qiynalgancha jim turdik. U yulduzlarga boqib, yozdan bahra olayotgan odamday qarshimda sukut saqlar, go'yo dim tun havosi uni gapirish qobiliyatidan ham butkul mahrum etgan. Biz qarama-qarshi mana shunday tebrama kursilarda o'z xayollarimizga g'arq, parishonxotir o'tirardik. Kutilmaganda chaqmoqning yilt etganiniyu uning ma'yus bir tomonga boshini ekkani ko'rib

qoldim. Yolg'izlik, yuragidagi boshboshdoqlik azoblari tinka-madorini quritgan, unga ham yashash oson emasdi. Hayot sahnasida u o'zini qanchalar loqayd-u badqovoq ko'rsatishga urinmasin, bundan, eng avvalo, ruhi qiynalayotgani sezilardi. Ilgari ilg'amagan rishtalar meni unga bog'lab turarkan, ba'zan qalbidagi tuyg'ular doktorning fe'liga o'xshab o'zgarardi. Biroq, shuni angladimki, shubhasiz, bu g'ayritabiiy odamni o'ziga xos tarzda yaxshi ko'rarkanman. Men qandaydir sirli kuchni, uning qorong'i xonadan ham qorong'iroq, zulmat bosgan qalbini, ruhi-yu vujudini azoblayotgan yolg'izlik dardini his etardim, o'sha daqiqadan boshlab, men uni o'z himoyamga olishga qaror qildim. U qarshimda singan, yengilgan, ezilgan qiyofada o'tirardi. Biroq u o'tkir nigohini menga qadaganida adashgan, arosatdagi yolg'izligida qayta topilgan ishonchni ilk bora ko'rib turadim. Men anglab-anlamay undan:

– Doktor, Xudoga ishonasizmi? – deya so'radim.

U ko'zlarimga tik boqdi. Sochlari yuzlariga tegib turar, ko'zlari chaqinday chaqnar, yuzida tashvish-u hayajon aks etgandi. Uning ovozi avvalgiday yirtqich hayvonlarniki-day cho'ziq va dahshatli chiqdi:

– Bu savol menga ilk marotaba berilyapti.

– O'z-o'zingizdan so'rab ko'rganmisiz hech?

U tashvishga tushganini namoyon etmaslikka urinardi. Garchi u savolimni „Kosa tagida nim kosaday“ tagdor tushungan bo'lsa-da, qiziqish uyg'otgan emas va bundan zarracha tashvishga tushmadi.

– Bu haqda muhokama-yu mushohada yuritish mushkul, – dedi u.

– Bunday tunda sovuqdan dildirash biroz erish tuyuladi, shunday emasmi? Agar bir odam to'g'ri-yu tekis yo'l qolib, hammadan oldinda dala oralab, boshqalarni ham,

o'zini ham qiynab egatlardan hatlab yursa, uning g'ayritabiyy qiliqlaridan hayratdan yoqa ushlaydilar-ku shunday emasmi?

U darhol javob berdi. Chigirtkalar tovushi, xotinin xotirasiga atab o'tqazilgan rayhon ifori borliqqa qandaydir ma'no, tiriklik baxshida etib turardi. Buyuk odam zulmat tunda yolg'iz tantana qilardi.

– Yo'q, polkovnik, bu meni sirayam tashvishga solayotgani yo'q. – Xayolimda u olma-yu rayhon hididan huzurlanayotgandi. – Meni boshqa masala mushohadaga chorlaydi, masalan, ko'zlarimga dadil ishonch bilan boqib, zulmat ichra egatlardan hatlab borayotgan odam kimligini yaxshi bilaman, dedingiz.

– Hammamiz, avvalo, ruhimizni qutqarishga urinayotgan xom sut emgan bandalarmiz, doktor va mohiyat ham aslida shunda, – men kutilganidan va keragidan ortiq chuqurlashdim. – siz Xudoni eshitmaysiz va borligiga ishonmaydigan kofirsiz, – dedim.

U endi o'zini bosib olgandi, shu sabab, xotirjam, ortiqcha hayajonga berilmay javob qildi:

– Ishoning, polkovnik kim-u kim, ammo men kofir emasman. Hamma gap shundaki, Xudoning bor yo yo'qligi haqidagi o'y meni tashvishga solmaydi, bu haqda bosh qotirmaslikka harakat qilaman, xolos.

Bilmadim nega, biroq men uning xuddi shunday javob qilishini avvaldan sezganday edim. „Bu odam, haq yo'lidan adashgan“, – o'yladim uning qaysidir kitobda o'qigan iborasini takror tinglarkanman. Orombaxsh tun ifori ikkimizniyam mast qildi. Ayni damda xayolimda barcha qiyofalar jamuljam bu izdahomning markazida turganday edim.

Panjaralar ortida qizalog'im va Adelaida tomonidan payhon qilingan chamanzor yotardi. Olma ifori kechalari

nafas olishga yordam berar, har tong zavq ulashib, ko'ngilga orom bag'ishlardi, muattar bo'ydan g'am-u tashvishlar unutilardi. Rayhon isi esa boshqacha, u Isabel yoshidagi qizlarga xush yoqadi, uning iforida o'z onasining hayoti davom etayotganga o'xshaydi. Barglar orasidan eshitilayotgan chigirtkalarining ovozi borgan sari quloqni qomatga keltiradi, yomg'irdan keyin egatlarni begona o'tlardan tozalab, yagana qilishni unutmamiz uchun hasharotlarning kuni tuqqandi. U qarshimda terlagan peshonasini ro'molchasi ila betinim artar, yuzi oy nurida yaltirar, bu esa g'ayritabiiy-u g'aroyib ko'rinayotgandi.

U biroz tin oldi:

– Nega bu savolni beryapsiz?

– Shunchaki xayolinga kelib qoldi-da, – javob berdim. – Balki, uzoq yillardan buyon sizga o'xshagan odam bu borada nima derkin, degan istak ustunlik qilgandir.

Men ham terlagan yuzimni artdim.

– Yolg'izlikdan qiynalayotganingiz meni tashvishga solayotgani uchundir, ehtimol. – uning javobini kutmay davom etdim. U qarshimda mungli, xarob, ruhan yolg'iz-u siniq ahvolda turardi. Men Makondoni, uning telbanamo odamlari-yu savdoyi qiliqlarini esladim. To'y-u ma'rakalarda, bayramlarda xuddi kul sepganday, pulni ayamay sochib, ma'nosiz zavqlanishlari esimga tushdi, bu bema'ni odatlardan nafratlanardim, bularning bari nafsni qondirishdan bo'lak narsa emas. Bundan nafratlanar, bu botqoqqa botib, g'arq bo'lmaslikka tirishardim. Shu tobda uning hayoti ko'zimga ana shu pullar kabi behuda sovurilayotganday, mabodo yana shunday davom etaversa, uning tanasi ham mana shu yolg'izlikda chirib ketishini hozirdan his qildim.

– Doktor, uylanish haqida hech o'ylamaganmisiz? – deb so'rovdim hamki, u xuddi shu savolni kutib turgan odamday:

– Qizingizni joningizdan ortiq suyasiz-a, polkovnik? – savolga-savol bilan murojaat qildi u.

Tabiiyki, men hamma otalar kabi unga shamolni ham ravo ko‘rmasligimni aytdim. U davom etardi:

– Tabiiy. Biroq siz boshqacha odamsiz. Bu uyni o‘z qo‘lingiz ila qurganingiz uchunam, boshqalardan farqli o‘laroq, undagi har bitta mix siz uchun qadrlı. Men o‘zingiz eshik derazalarni to‘g‘rilab yurganingizni ko‘raman, zotan bir og‘iz so‘zingiz kifoya, uyda bu ishni qilishga qodir odam yetarlicha, ularga ishonmaganingizdan emas, balki bu o‘zingizga yoqqanidan yumushlarni qilishdan erinmasligingizni tushunaman. Men uchun baxt bu biror ish bilan mashg‘ul bo‘lmoq, ya‘ni „Dilba yor-u, dast ba kor“ deydiganlardansiz. Uyingizda biror ishkal chiqarib, sizga yumush topib beradigan odamdan minnatdor bo‘lasiz, polkovnik.

– Tarki odat amri mahol, – dedim uning nima haqida so‘zlamoqchi bo‘layotganini tushunganday, – sut bilan kirgan jon bilan chiqar, aytishlaricha, onam bir joyda bekor o‘tirolmaydigan ayol bo‘lgan ekan.

U boshini qimirlatib, gapim ma‘qul kelganligini bildirdi. Biroq u o‘z fikrini, bafurja tinchlik-xotirjamlik bilan singdirishga urinardi.

– Bekorchidan Xudo bezor, – dedi u. – Havas qilsa arziydigan odat. Boz ustiga haqiqiy baxt, agar u bu hayotda bor bo‘lsa, ana shunda deb bilaman. Shuning uchun sizda shunday uy va shunday qiz bor.

Men bu bilan u nimaga shama qilayotganidan bexabar edim. Lekin tushunmasam ham so‘radim:

– O‘zingizchi, doktor, siz ham menikiga o‘xshagan qiz o‘stirishingiz mumkin?

– Menmi... yo‘q, polkovnik, – dedi u kulib, biroq o‘sha

daqiqaning o'zida jiddiy tortdi. – Mening bolalarim aslo siznikidek bo'lmaydi.

Uning samimiy so'zlayotganiga zarracha shubha qilmadim, biroq bu jiddiy vaziyat meni dahshatga sola boshlagandi. „U achinishdan boshqasiga loyiq emas. Chindan bu odamni ham himoya qilish kerak“, – deya o'ylardim.

– Doktor, O'r haqida eshitganmisiz hech?

U bosh chayqadi.

– O'r bu – kelgindi ruhoniyligi. Uning Ruhoniyligi bir tomon-u hammaga el, chin insoniyligi bir tomon. Sizni u bilan tanishtirib qo'yishim kerak, – dedim.

– Ha, ha, mayli, – kutilmaganda muhim gap yodiga tushganday shoshilib so'zladi u. – Gapingizning ma'nisiga ko'ra, ruhoniyligi bo'la turib, bolalari bor desangiz?

– Hozir meni bu o'ylantirmayapti, – javob qildim men. – Odamlar uni yaxshi ko'rishadi, bilasizmi, nega u o'zi haqida bo'lgan-bo'lmagan gaplarni bichib-to'qishlariga indamaydi. Mana, sizga tirik misol, doktor. O'r munofiq ham emas, avliyo ham. U chin erkak, rasamadiga ko'ra, erkak kishi qanday yo'l tutishi mumkin bo'lsa, xuddi shunday vazifasini sidqidil ado etayotgan haqiqiy erkak.

U meni diqqat bilan xotirjam tinglardi. Uning sariq itko'zlari ko'zimga tik boqib turardi.

– Bu yaxshi, – dedi u.

– O'ylaymanki, O'r bora-bora avliyoga aylansa kerak, – samimiy so'zlashda davom etdim. – Makondomizda hali hech kim hech qachon bunaqasini ko'rmagandi. Dastlab, biz unga ishondik, zotan u o'zimiznikiga aylangandi, chollar uning bolalarga qo'shilib qushlarni ovlaganini borib, shataloq otib yurgan kezlarini hamon eslaydilar. Urush vaqtida u mardonavor jang qilgan va u polkovnik darajasiga yetishgan. Urush faxriysining qo'li qon, deya qadrlamaydilar, biroq ruhoniyligining el orasida hurmati bor.

Boz ustiga biz injil o'rniga „Bristol asarlar to'plami“ni o'qib berishlariga ko'nikdik.

U jilmaydi. Aftidan bu hikoya unga ham ilk kunlarda bizga zavqli-yu kulgili tuyulgani kabi tuyulmoqda edi.

– Qiziq, – dedi u.

– O'r shunaqa. U odamlarni boricha qabul qiladi. G'alayonlarga o'z ilmiy qarashlari bor. U ular haqida har bozor kuni so'zlab beradi. Shu sabab uning va'zlari Injildagi matnlarga emas, balki „Bristol asarlar to'plami“ga asoslangan.

U kulib, hamma gaplarimni zavqlanib tingladi. Menam ancha jonlanib qoldim.

– Biroq bir gap bor, doktor, – dedim men. – Urning jachon Makondoga kelgani sizga ma'lummi?

U bosh chayqab qo'ydi.

– Tasodifni qarangi, u ham siz Makondoga kirib kelgan kunda paydo bo'lgandi. Eng qizig'i, mabodo katta akangiz dunyoda bor bo'lsa, garov o'ynashim mumkinki, u xuddi O'ring o'zginasiga o'xshardi. Tashqi ko'rinishini nazarda tutyapman.

Hamsuhbatim endi boshqa narsa haqida o'ylashi mumkin emasdi. Uning suvga tushgan bo'lka nonday bo'shshib, yumshab qolganidan niyatimni ochiq bildiradigan vaqt yetganini angladim.

– Xullas, doktor, – dedim men. O'ring yoniga boring va dunyo siz o'ylayotganingiz hamda sizga ko'rinayotgani kabi xarob emasligini anglaysiz.

U ortiqcha tixirlik qilmay, ruhoniy ila ko'rishishga mayl bildirdi.

9

Xona eshigiga osilgan qulf qandaydir fayzsiz, hay-hay, demasa yutib yuboraman, deydigan darajada sovuq

edi. Adelaida uni doktor Meme bilan birga yashayotganini bilgan kuni osib qo'ydi. Men uning biznikida turishiga izn bergan kunimdan boshlab, xotim uni uydan haydab chiqarishga sabot-u matonat ila tinimsiz kurash olib borгани va u ko'chib chiqqan kunni g'alaba onlarining tantanasiga yoydi. Oradan o'n yetti yil o'tdi hamki, o'sha qulf hali hamon o'sha xonani qo'riqlaydi.

Basharti mening sakkiz yil davomida o'zgarmagan qarorim odamlarga va yaratganga xush kelmagan ekan, buning uchun beriladigan jazoni paymonam to'lishidan ancha burun tortdim. Hayotligimda odamgarchilik hamda iymondan deb bilganlarim gunoh bo'lsa, aftidan buning badalini to'lash manglayimga bitilgan ekan. Qulf zanglamasidan oldin ostonada qo'lida men haqiqiyiligini to'la aniqlashga ulgurmagan bir to'da loyihalar ila paydo bo'lgan Martin yakkayu yagona qizimga uylanish niyatida edi. U biznikiga to'rt tugmali kamzulida atrofdagilarni hayratlantirib, g'ayrati jo'sh urgan yosh burgut misoli kirib keldi. Bundan o'n bir yil ilgari u Isabelga uylandi. U men majburiyatlarini bo'ynimga olib imzolagan hujjatlarini portfelga solib, boyligim ila ta'minlanadigan bitimni tasdiqlashi bilan ortga qaytishga va'da bergan kundan to'qqiz yil o'tib ketdi. To'qqiz yil o'tgan bo'lsa hamki, uning ishonchimga kirib, ko'zlarimni shamg'alat qilib, niyatiga erishgan qallob deya o'ylashga haqqim yo'q.

Sakkiz yillik tajriba havoga uchdi-ya. Agar Adelaida qarshilik qilmaganida o'sha xonani Martin egallagan bo'lardi. U bu safar qaysarlik ila qarshilik ko'rsatdi. Bu masalada xotim bilan tortishish befoydaligini angladim, u o'lsa-o'ladiki, kerak bo'lsa kelin-kuyovlarni sayisxonaga joylashtirishi mumkinki, faqat o'sha xonaga emas. Bu safar bu ishning mohiyatini aniq-taniq ko'rib turardim. Shu bilan birga men sakkiz yil mobaynida kechikkan g'alaba-

ni tan olmoqlikka majbur edim. Martinga ishonib, ikkimiz ham adashdik, bu umumiy xatoga kiradi, bunda hech kim g'olib ham, mag'lub ham emas. Biroq peshonaga bitilganidan qochib qutulib bo'lmagay, „Almanax“larda yozilgani kabi tashqi ta'sirlar, borliq voqea-hodisalar o'z vaqtida, kerak paytda biz istasak ham, istamasak ham bari bir paydo bo'laveradi.

Memega hayot yo'lini tanlab, o'ziga zarur bilgani-ni qilishi mumkinligini, buning uchun uyimizniyam tark etishiga qarshi emasligimni bildirganimda, Adelaida meni ko'ngli bo'shlikda va bo'shanglikda aybladi (men doim shunday qilardim) men aytganimdan qolmay, so'zim-ni o'tkazishga, ishlarimni xohishimcha bajarishga intilardim. Voqealar chappasiga aylanayotganidan ichimdan zil ketsa-da, ojizligimni sezdirmasdim. Ba'zan o'z uyimda go'yo men emas, qandaydir sirli kuch hukmronlik qilar, u hayotimizni shunday yo'lga to'g'rilab qo'yardiki, go'yo uning qo'lida ojiz o'yinchoqqa o'xshab ko'rinardim. Bari tabiiy, navbatma-navbat xuddi shunday bo'lishi kerakday davom etardi.

Hayal o'tmay, Meme may do'kon ochdi (aslida bu meni u qadar ham hayron qoldirgani ham yo'q, chunki sajiyasiga bekorchilik yot ayol, haddan tashqari injiq mahalliy doktorning mashuqasi oxir-oqibat may do'koni ochishi tabiiy edi). Men tushundimki, u biznikida yashagan davrda vaqtini havoga sovrurmagan ekan, qog'oz pullarini ko'paytirib, hatto kutilganidan ham ortiqroq boylik yig'a olganiga aqlim yetdi, kerakli mablag'ni to'plagunicha ularga qo'l uchini ham tekkizmagan.

Meme do'kon ochib, u bilan birga yashayotganiga qaramay, ayolga to'la ishonch bildirmagan. Biror marta bo'lsa hamki, uni ko'zdan qochirmasdan, do'kon ortida xuddi yov istehkomni qamal qilgan yog'iydek ayolning

xatti-harakatlarini kuzatardi. U tashqaridan biror nima sotib olmasdi, uyida tomorqasida yetishtirilgan sabzavotlar ila oziqlanardi, dastlabki oylarda Meme o'zi uchun go'sht xarid qilardi, bir yil o'tib, u bu odatidan voz kechdi, balki, bu odam bilan yaqin aloqalar uniyam oxir-oqibat vegetarianga aylantirgandir, ehtimol. Ular o'z olamlarida o'ralashib, xuddi shunday yashayotgandilar, to boshqarmadagilar Memening tanasini izlab, tomorqani ag'dar-to'ntar qilishmagunga qadar.

U to'rbelanchagida tebranganicha yolg'izligi bilan qo'shmazor bo'lib, o'z yog'ida o'zi qovurilib yotgandir, deb o'ylashgandi. Hali hech kimning tiriklar dunyosiga qaytishi yetti uxlab tushiga kirmagan mahal, bu yakdillikda u o'limidan avval ichki botiniy dunyosida Xudoga bo'lgan ishonchi ustun kelib, yuqori cho'qqiga yetishini bilardim. Ertami kechmi, u baribir bu surgundan ozodlikka, zulmatdan yorug'likka chiqishi tayin, biroq yarim hayotini Xudosiz o'tkazgan odamni qamchin-u qayish bilan ham, yo ko'ziga qo'rg'oshin quyish, yoki tilini kesib, tuz bosish, yo bo'lmasam, otashga kuydirish kabi zo'rlovlar ham birinchi uchraganga dardini doston qilgani majbur etolmagan, hattoki muhabbat alangasi ham bunda o'z ta'sirini o'tkazolmagan bo'lardi. Taassufki, o'limidan biroz oldinroq ko'zlari ochildi.

Bu vaqt bir kunmas bir kun yetib kelajagini Memening tobi qochib qolgan kuni, undan xonasiga iltimos bilan kirganimdayoq bilganman. Ularning munosabati chuqurlashmasidan avvalroq bilganimda, ikkisining nikohsiz yashashiga ko'nmagan bo'larmidim? Shunday bo'lishi tayin edi. Taqdirlar kitobida yangi bob ochilganining fahmiga borganimda, bu ishimga munkir kelgan bo'lardim.

U belanchakda emas, balki to'shakda yorug'lik qayerdan ko'p tushayotgan bo'lsa, shu yerga qarab yotardi. Xo-

nasida elektr lampasi bo'lsa ham u undan sira foydalanmas, shamlar bilan kifoyalaniq bo'ya qolardi. U nim qorong'i xonaga ko'zlarini o'rgatib, yolg'iz ukkiday o'tirardi. Men ichkariga kirganimda joyidan qo'zg'almadi, biroq ichkariga qadam qo'yganimda, u xonada yakka emasligini sezdi. O'shanda men:

– Doktor, agar sizga malol kelmasa, mazasi qochgan hindu qizimizni ko'rib qo'ysangiz, devdim.

U o'midan irg'ib turdi-yu karavotiga o'tirib oldi. Bir necha muddat burun u xonaga kirganimda kimdir ichkarilaganini sezdi-yu, biroq bu boshqa birov emas, aynan menligimga keyin aqli yetdi. Aftidan bu taassurotlar mutlaqo har xil edi, chunki u qiyofasini darhol o'zgartirdi, sochlarini to'g'rilab, o'midan qo'zg'almay qarab turardi.

– Adelaidaning aytishicha, uni ko'rib qo'ymasangiz bo'lmaydiganga o'xshayapti.

U joyidan qimir etmadi ham, hayvonga xos cho'ziq va yoqimsiz manqa tovushi bilan:

– Bunga hojat yo'q. Gap shundaki, u homilador. – dedi va keyin o'midan turiboq yuzimga tik boqib, so'zlashda davom etdi. – Meme ancha yillardan beri men bilan birga. Xastaligining sababi shu.

To'g'risini aytmog'im kerakki, bundan hayratga tushmadim. Men bundan uyalmadim ham, hatto miyamda bari ayqash-uyqash ham bo'lgan emas, boz ustiga negadir jahlim ham chiqmadi, faqat uning oshkora tan olishi haddan ortiq beadablik va bu barcha chegaralardan o'tib tushganday tuyulgani uchun g'azabimni qo'zg'atgandir. Men negadir hissiz edim, boisini o'zimam bilmayman. Men joyimda qotib turardim, butun tanam harakatsiz, uning kavshanadigan hayvonikiday cho'ziq va yoqimsiz tovushidan joyimda tosh qotgandim. Oraga uzoq sukunat cho'kkan, u birinchi qadamni qo'yishimni kutar

va hamon to'shagida qimir etmay o'tirardi, bu jimlikdan uning nima demoqchiligini anglardim. Biroq uyalishga kech edi.

– Vaziyatni tushunib to'g'ri baholayapsiz, deya umid qilaman, doktor. – Shundan boshqa tayinli bir gap aytmoqlikka ojiz edim.

– Odamzod – ongli mavjudot. U yetti o'ylab bir keshi kerak, demoqchisiz-a, polkovnik? Tavakkal qilayotgan paytdayoq barini oldindan biladi. O'yindan o't chiqdimi, demak barining jilovi qo'ldan chiqqan.

Bu kinoyalar tanish edi. Ammo bu bilan niyatini angalay olmasdim. Odatda u shunday sirli so'zlardiki, bu jumboqda kalavanning uchini topmoqlig-u asl maqsadini anglamoqlik mushkul edi. Kursini surib, qarshisiga cho'kdim. U o'rnidan turib, shimining kamarini o'tqazib, to'g'rilab oldi. Keyin tag'in hech nima bo'lmaganday davom etdi:

– Men ehtiyot choralarini ko'rib qo'ygandim, chunki u ikkinchi marta ikkiqat bo'lyapti. Birinchi marta bir yarim yil avval edi. Biroq hech kim undagi o'zgarishni sezgan emas.

U ortiqcha his-tuyg'ularga berilmay so'zlar, shu tobda odam emas, eshakdan farqi yo'q edi, so'zlari sovuqdan sovuq edi. O'rnidan turib, xona bo'ylab yurarkan, qorong'ida qadam tovushlarini eshitib turadim.

– Birinchi marta u hamma narsaga rozi edi. Hozir esa aqlini tanigan. Ikki oy oldin tag'in bo'yida bo'lib qolgani ni aytganida, men unga kechqurun kelsa, birinchi safargi doridan berishimni aytgandim. U bugun emas, erta devdi. Oshxonaga qahva ichgani kiriboq, bu haqda eslatgandim, kelmasligini aytib qoldi.

U tag'in to'shagiga yaqin keldi, biroq o'tirmadi, ko'zimga tik boqishga yuzi chidamaganidanmi, ortimda u

xona bo'ylab, tinmay yurgani-yurgan edi. Uning so'zlarini tinglab turardim, xayolimda go'yoki belanchakda tebranib so'ylayotganga o'xshardi. Bu nuqtda hayajon begona, ishonch singib ketgandi. Gapini bo'lish bema'nilik. Shu vaj men faqat tingladim.

– Baribir ikki kun o'tib u keldi, – dedi u. – Men hammasini hozirlagandim. Unga o'tirib turishni buyurdim, o'zim esa idish olib kelishga bordim. Biroq „Ich“ deganimda u bosh tortdi va tushundimki, bu safar uni bu ishga ko'ndirib bo'lmagay. U menga tik boqib: „Men ichmayman, bunisini o'ldirmayman...“ dedi

Bir doktorning doktor bo'la turib, odamlar hayotini saqlab qolish o'rniga, dunyoga kelmagan go'dakning umr hamchirog'ini so'ndirishga jazm qilgani – ulkan shafqatsizlik bo'lib tuyuldi va jahlimni chiqarib yubordi. Axiyri, o'zimni tutib turolmadim:

– Doktor, bolaning uvoli tutishidan qo'rqmaysizmi? Sizning... bu... ishingiz... hayvon bu qadar vahshiy bo'lmaydi-yov. Axir, bu jinoyat-ku, siz ikki karra jinoyatga qo'lgansiz... va mening uyimda... farzandimday aziz qizni yo'ldan urish... boz ustiga uni homilani tushirishga majburlash... bu vahshiylik... Tirmoqqa zor bo'lasiz, bu harakatingizni hech nima oqlamaydi.

– Men axir qo'limdan kelganini qildim, polkovnik. Boshqasiga ilojsizman. Buning fahmiga borishim bilan sizga uchrashdim va shu kunlarda gaplashmoqqa shaylangandim.

– Hozirgi vaziyatni yumshatuvchi boshqa yo'llar ham bor, niyat xolis bo'lsa, manzil bir qadam, doktor. Uymizdagi qonun-qoidalardan xabaringiz bor, oshing halol bo'lsa ko'chada ich, deganlar, – dedim sekin yotig'i bilan tushuntirarkanman.

– Sizga tashvish tug'dirishni istamayman, polkovnik,

ishoning. Hindu qizni o'zim bilan muyulishdagi uyga olib ketaman. Baribir u bo'sh yotibdi.

– Odamlar ko'z o'ngida nikohsiz yashash, doktor, – qonim qaynadi – Taqvodor qishloq ahli oldida ochiq-oydin bunday ish qilish aslida nima ekanini bilasizmi?

U qarshimda o'tirishga qaror qildi, shekilli, qo'llarini tizzalariga tiraganicha ko'zini lo'q qilib, nigohini menga tikdi. Uning ovoz ohangi sovuq edi, faqat biroz o'zgarib, darg'azabligi sezilardi.

– Polkovnik, sizga ma'qul va noqulaylik tug'dirmaydigan yagona yo'lni aytyapman, boshqa yo'l-u manzilni, chora-yu usulni bilmayman, shunda ham sizni o'yladim. Aks holda bola meniki emas, deya tonaman.

– Meme bola siznikiligini aytadi, – menam bo'sh kelmadim. Uning gaplashish ohanggi meni shunga majbur qildi.

Biroq u hamma-hammasini yig'ishtirib, qat'iy va shafqatsiz javob qildi:

– Polkovnik, xotiringiz jam bo'lsin. Meme o'lsa-o'ladiki, bu gapni aytmaydi. Shunday ekan, yagona yo'li men ko'ch-ko'ronimni yig'ishtiraman, ertagayoq muyulishdagi uyga ko'chib, Memeni o'zim bilan birga olib ketaman-u, sizni tashvishdan qutqaraman! Istamasangiz, marhamat katta ko'cha, polkovnik.

Meme bolaning otasi u ekanini aytolmasligini ro'kach qilgan doktorning so'zlari meni chindan ham boshi berk ko'chaga olib kirdi. Bu ishonch ostida chuqur asos bordek ko'rindi.

– Bu qanaqasi, doktor, bunday ohangda so'zlashishga haqqingiz yo'q, biz Memega o'z qizimizga ishongandek ishonamiz va iymoningiz komil bo'lsinki, qizimizni aslo yolg'izlatib qo'ymaymiz.

– Siz men bilgan narsalarni bilganingizda edi, doktor, bunday demasdingiz. Qo'polligim uchun kechiring, biroq

qandaydir hinduni o'z qizingiz bilan qiyoslab uni haqorat qilyapsiz.

– Sizda bunday so'zlashga hech qanday asos yo'q.

Lekin u alam va qat'iy ishonch bilan so'zladi:

– Yo'q bor. U bolaning otasi aynan men ekanimni aytolmasligiga yetarlicha asos bor, buni o'ziyam biladi. – U boshini egdi va chuqur tin oldi. – Kechqurunlari Meme uydan chiqib qayerlarga borishini bilganingizda edi, mendan hatto uni birga olib ket degani yuzingiz chidamagan bo'lardi. Hozirgi vaziyatda barcha og'irlik mening bo'yimda, polkovnik. Bola uyingizda tug'ilguday bo'lsa, keyin ko'rasiz tomoshani, sizni tashvishdan qutqazmoqchiman, xolos.

Shunda men u Meme bilan cherkovning yaqinigayam yo'lamasligini tushundim. Hammasidan oxirgi gaplarni eshitish og'ir bo'ldi, bir hisobda u haq edi, agar bola mening uyimda otasiz tug'ilsa, bu qishloqda qanday bosh ko'tarib yuraman. Uning qo'lida zo'r qartalari bor. Bu safar ularning atigi bittasi ham mening vijdonimni mahv etishga qodir edi.

– Mayli, siz aytganча bo'la qolsin, doktor, – tilga kirdim axiyri taslim bo'lib, sulh shartlarini qabul qilmoqlikka ko'narkanman. – Bugunoq muyulishdagi uyni ko'chib chiqishingizga hozirlashlarining harakatini qilaman. Lekin shuni bilib qo'ying, boshqa bu uyda qorangizni ham ko'rishni istamayman. Ishonchim-u sizga bo'lgan hurmatimning barini poymol qildingiz, tuzimni yeb, tuzlig'imga tupurdingiz. Polkovnik Aureliano Buendia bularning baridan boxabar bo'lganida edi, bu qilmishlaringiz badalini burningizdan tortib chiqargan bo'lardiku-ya, yo rab, bu zamonda o'zi birovga ishonib bo'larmikin?! Nachora, boshga tushganni ko'z ko'radi.

Men bu so'zlarimdan jahli chiqib yoqalashar, deya kut-

dim, titrab qaqshab, alamimdan nima qilarimni bilmayman, zotan o'zim mushtlashib barining xumoridan chiqmoqchi edim, biroq u shunday so'zladiki, men vijdon azobida qoldim.

– Ko'pni ko'rgan, tushungan odamsiz, polkovnik. – dedi u. – Siznikida uzoq qoldim, sizga tirik tovonga aylanib qolganimni bilaman, mehmondorchilik keragidan ortiq cho'zildi-yu mehmon izzati tugadi, biroq buni yuzimga solish shart emasdi.

Doktor shu gapni aytib, o'rnidan turganida, g'olibligini tan olmay ilojim yo'q edi. Uning yuzida sakkiz yillik mehmondorchilik uchun chuqur minnatdorchilik bildirganidan qoniqish hissi aks etgandi. Aksincha, o'sha tun o'sha vaziyatda yuzi qora men bo'lib qoluvdim. Uning sarig' ko'zlariga boqishdan uyalaman, shuncha yil qilgan-qilmaganimni bir tiyin qilib, minnat qilganimdan uyalib ketdim, qaniydi yer yorilsa-yu kirib ketsam, deb ko'zlarimni yashirgani joy topolmayman, meni nima jin urdi hayronman. Endi mana shu gunohimni deb, umrimning oxiriga qadar vijdon azobiga giriftorman. U ko'ngliga zarracha g'arazli niyat keltirmasidan:

– Ha, aytgancha, Memeni spirt bilan yaxshilab artib qo'yinglar, biroq og'riq qoldiruvchi dori bermaganingiz ma'qul, – dedi.

10

Bobom onamning oldiga bordi. Bechoraning ko'rishidan holdan toygani shundoq sezilardi. Kursida faqat ko'yilag-u shlapa, ichida oyimning bor-yo'qligi aslo bilinmaydi. Bobom uning joyida qimir etmay turganidan tashvishlanib, „Uyg'on, qizaloq“, – dedi ko'zi oldidan hassasini aylantirarkan. Oyim ko'zlarini pirpiratdi, qayerlardadir uchib yurgan ruhi tanasiga qayta kirganday bo'ldi. „Nima

haqida o'ylayapsan?" – so'radi bobom. Oyim o'lganning kunidan jilmayib: „O'r haqida“, deya javob qildi.

Bobom uning yoniga cho'kdi. Hassasiga ikki qo'lini qo'yib, so'ng iyagiga tiradi. „Tasodifni qara, men ham ayni o'sha haqda o'ylayotgandim!“

Ularga bu so'zlarning ma'nosi tushunarli edi. Otabola bir-birlariga qarab gurunglashardilar. Oyim bugun boshqacha, hassasiga suyangan Bobom ham o'ychan. Ular xuddi Abram ikkimiz Lukretsiyaning yoniga ahilinoq bo'lib borganimizday bir-birlariga shunday yaqin.

Men Abramga „Tik-tak“, deya ishora qilaman. Abram, odatdagiday, kaminadan uch qadam oldinda borardi. U ortiga o'girilmay:

– Hali erta, sal kechroq, – deya javob berdi.

– Hozir ayni vaqti, boraylik, bo'yin tovlama!

Abram yuzimga qaramay, ahmoqlarga o'xshab kuladi, ovozi xuddi quvurdan otilayotgan suv tovushiga o'xshaydi. Quvurdan tag'in sas keladi:

– Soat beshlarda, maylimi? Bir necha qadam yugurib, qo'shib qo'yadi. – Agar biz hozir ketsak, uydagilar xavotirdan yorilib o'lishadi.

– Besh nihoyatda kech, borgunimizcha vaqt o'tgan bo'ladi. Hayit o'tgandan keyin, bording nima-yu bormading nima. – Ikki oyog'imni bir etikka tiqib olaman men.

Abram tang ahvolda qoldi, ko'ngli bo'sh bola-da, ra'yimni qaytarishga beti chidamaydi.

– Mayli, unda ketdik, – yugurishga tushib ketdi u.

Lukretsiyani ko'rish uchun daraxtlari qalin shox-shabali besh ko'chadan va ariqchalardan kechish kerak. Ovoz chiqarmay, yashil echkiemalardan manzum to'sin orqali o'tiladi. Abram yorqin quyosh nurlari ostida o'qday uchib boryapti, uning ortidan esa itlar galasi qolmaydi. Keyin u to'xtaydi. Uning qarshisida esa deraza. Biz „Lekretsiya“,

deya qizni uyg'otib yuborishga cho'chiganday, sekin shivirlab chaqiramiz. Biroq u uyg'oq, o'z to'shagida uxlamay oyoqyalang to'pig'igacha yopib olgan ohori to'kilmagan ko'ylakda o'tirardi.

Shivirlagan tovushimizni eshitgan Lukretsiya ko'zlarini ko'tarib, xonaga ko'z yugurtiradi, yapaloqqushniki kabi katta ko'zlarini derazaga qadab, bizga lo'q qilib qarab turibdi. Uning og'zi ochilib, mitti tishlari ko'rindi... Boshi aylana, sochi o'g'il bolalarnikiday taqir qilib olingan. U o'rtaga chiqib, kulishdan to'xtadi va egilib eshikka qaradi. Qizning qo'llari to'pig'iga tegdi-yu ko'ylagining etagi sekin-asta yuqoriga ko'tarilaverdi. Abram bilan derazadan ko'z uzmaymiz. U tez-tez nafas olar, chanqagan odamday quruqshagan lablarini yalab qo'yar, qadalib qolgan katta ko'zlari esa yonardi. Uning oppoq marmarday yaltirayotgan qorni va undan yuqorisini ham ko'ramiz. Lukretsiya yuzini ko'ylagi bilan yopib, qarshimizda tik turib, oyog'ini polga shu qadar qattiq tirab olardiki, natijada oyog'ining uchigacha titrab turgani seziladi. Kutilmaganda u ko'ylagini yechib, chaqinday chaqnaib turgan ko'zlarini o'ynatganicha, ko'rsatkich barmog'ini cho'zib shundayin baqirdiki, ovozi butun uyni tutib ketdi. Eshik ochilib, ichkaridan ayol yugurib chiqib keldi va: „Hey, ona suti og'zidan ketmagan zumrashalar, qani tez tuyoqlaringni shiqillatib qollaring-chi, bo'lmasa, onangga aytib beraman!“

Biz anchadan buyon Lukretsiyani ko'rgani bormabmiz. Bugun dalalar oralab daryo bo'yiga o'tamiz. Agar bular bari erta tugasa, Abram meni kutib turadi. Biroq Bobom joyidan qo'zg'alay demaydi. U hassasiga iyagini tirab, onamning yonida haykalday tosh qotgan. Men undan ko'z uzmay turibman, balki u mening nigohimni sezayotgandir va chuqur xo'rsinib, g'amgin ovozi bilan: „O'r barini xip-

chin bilan savalab bo'lsa-da, dafn marosimiga olib kelar-diku-ya", – dedi.

Shundan so'ng u o'rnidan turib, tag'in tobutga yaqin-lashdi.

Bu xonada ikkinchi marta bo'lishim. O'n yil burun qanday bo'lsa, xuddi shundayligicha turibdi. U o'n yil avval hayotiga qo'l silkib, Meme bilan shu uyga ko'chib o'tganidan beri, hech narsaga qo'lining uchini tekkizma-gan ko'rinadi. G azetalar o'sha joyida turar, stol ustidagi buyumlar siljimagan. Odam qo'li unga tegmasa, o'zi oyoq chiqarib yurib ketolmaydi-ku. Xuddi kechagina O'r ik-kovlon hukumat va bu odam o'rtasida sulh tuzib, tinchlik o'rnatgani elchi bo'lib kelgandaymiz.

O'sha kunga qadar banan kompaniyasi qishloqqa ergash-tirib kelgan ifloslar bizni siqib suvimizni chiqardi. 1915-yil-da gullayotgan Makondo salqitlarigacha kuyib kulga aylan-di-yu har tomonga sochilib ketdi. Sahroga o'xshab sarg'ayib qolgan qishloqdagi pana-pastqam uylarda rohat-farog'at baxsh etgan o'tmish xotiralaridan kecholmay, bugunning xosiyatsizligidan azoblanayotgan alamzada xalq bor. Ke-lajakda esa zulmatga cho'mgan dahshatli saylov tunidan bo'lak hech nima kutib turmasdi, yorug' kundan darak yo'q.

Bir kun tunda o'sha xosiyatsiz kechadan olti oy burun kimdir tuhmat toshlari yog'dirilgan haqoratnomani shu uy eshigiga yopishtirib ketibdi. Uzoq vaqt – to so'nggi fevral shamollari qora harflarni yuvib, qog'ozini yirtib yubormagunigacha – u bilan hech kim qiziqmagandi. 1918-yilda saylovlarning yaqinlashuvi hukumatdan say-lovchilarni o'z ta'sirida tutib turish kerakligini talab qilardi, kimdir yangi hukumatga qishloqda tarki dunyo qilgan zohid yashashini, uning o'ligiyam-tirigiyam ma'lum emas, mabodo o'lgan bo'lsa, vafotini tasdiqlash kerak-

ligini shipshipdi. Ustiga-ustak hukumatdagilarga u bilan birga yashagan hindu ayol vino do'konini ochganini-yu u o'sha paytlarda Makondoda gullab-yashnaganini ham yashirib o'tirmabdi. Biroq bir kuni (hech kim o'sha sana-yu yilni aniq eslolmaydi) do'kon ochilmabdi. Odamlar Meme hali hamon doktor bilan birga avvalgiday tarki dunyo qilib, tomorqada o'stirilgan sabzavot-u mevalarni yeb kun ko'rishadi, deya xiyol qilib yurishardi. Biroq muyulishdagi haqoratnomada doktor ma'shuqasini qishloq ahli ayoli orqali uni zaharlab qo'ymasliklaridan qo'rqqanidan vahshiy-larcha o'ldirib, tomorqasiga ko'mgani yozilgandi. Biroq o'sha paytlarda hech kimda doktorni oshkora ayblashga jo'yali asos yo'q edi. Menimcha, hukumat ishonchli odamlardan iborat qo'riqlash xizmati-y-politsiyani birlashtirmaguniga qadar bu hech kimnin yetti uxlab tushiga kirmagan. Buni qarangki, haqoratno ma bilan bog'liq eski hikoyani avvaldan o'ylab, birdan Memening murdasini topish ilinjida butun tomorqa-yu tashlandiq, ko'zdan pana joylarni kovlab tashlashdi. Biroq hech nima topisholmadi.

Aks holda doktorni uyidan sudrab chiqishgan, turgan gapki, maydon o'rtasida hukumat sharafiga yana bir qurbonlik keltirilgan bo'lur edilar. Bu ishga O'r aralashdi. U doktordan jo'yali javob olishiga shubha qilmay, menikiga kelib, birga borishni taklif qildi.

Biz uyning orqa eshigidan kirdik, to'rbelanchakda cho'zilib, aftodahol yotgan odamga, to'g'rirog'i, undan qolgan salqitga ko'zim tushdi. Dunyoda bundan dahshatliroq narsa bo'lmasa kerak. Ayniqsa, kimligi-yu zoti noma'lum kelgindining xonadagi buyumlarga qo'shilib, chang bosib yotgani vahimaga solardi. Uning sochlari oppoq qorday oqargan, ochiq qolgan sarg'ish ko'zlarida uyimizda yashab yurgan davrlaridagi kabi hali hamon yengilmagan kuch uqubati

zohir edi. Hozir unga qo‘l tekkizsam, ko‘zimga somonga o‘xshab titilib ketadiganday tuyuldi. Uning mo‘ylovi kaltalangan, qaychi yordamida siyraklashgan soqoli ostidan iyagi ko‘zga tashlanardi. Bir nuqtaga qadalgan ochiq ko‘zlari-dan uni hali oyog‘idan joni chiqib ulgurmagan chalajon odamga o‘xshatdim.

Kutilmaganda u tilga kirdi, ovozi ilk marta xonadonimizga tashrif buyurganidagi kabi yovvoyi, cho‘ziq va manqa chiqdi. U boshqa aytar gapi yo‘qligini bildirdi. Tushunishimcha, u bizni politsiya uyiga so‘roqsiz-u ruxsatsiz kirib, bog‘ni ag‘dar-to‘ntar qilganidan boxabar deb o‘ylayotgandi. Biroq bu inkor emas, balki g‘amga botgan, xo‘rlangan odam iqrori-yu shikoyati edi.

Meme qayerda, degan savolga izohi, bolalar o‘ylab topgan cho‘pchakka o‘xshar, biroq u ishonchli ohangda gapirdi. Meme ketdi, tamom vassalom. U do‘konni yopganidan keyin bu uydan butkul ko‘ngli qolibdi. Meme hech kim bilan bordi-keldi qilmasdi, to‘g‘rirog‘i tashqi olamdan u kabi uzilib qolgandi. Bir mahal qarasa, u lash-lushlarini yig‘ishtirib, tugunlayotganini ko‘ribdi-yu, biroq bir og‘iz „yo‘l bo‘lsin“ demabdiyam. Hindu xotin ham indamay, baland poshnali poyabzalda qo‘liga bo‘x-chasini tugib, egniga ohori to‘kilmagan kiyimlarini kiyib, xayr-xo‘shlashmasdan eshik tomon yo‘naldi. „Men o‘rnimdan turdim-u, – dedi u – qutidagi qolgan-qutgan pullarni olib qo‘liga tutqazdim“.

Men undan „Bunga qancha bo‘ldi, doktor?“ deb so‘radim.

„Sochlarimga qarab bilavering. Chunki oxirgi marta u sochlarimni kaltalagandi“.

O‘r mehmondorchilikda deyarli og‘iz ochmadi. U xonaga kirib, o‘n besh yildan buyon tanishmagan odamini ko‘rib, hang-u mang edi. Menga (doktor avvaligidan ham

ko'ra ko'proq mo'ylovini kaltalatgandi) bu ikkalasining ikki tomchi suvday, bir-biriga naqadar o'xshashligi sezildi. Tabiatan ikki dunyo, biroq bir qorindan talashib tushgan ekizak deysiz. Birining yoshi kattaroq ko'rinar, ozg'in, tinka madori qurigan edi. Biroq ikkisining yuz tuzilishi-yu yuzidagi chiziqlarigacha bir xil, hatto qondosh aka-ukalar ham bu ikki yot kimsalar o'xshashligidan yoqa tutib qolishi tayin edi. Men oqshom chog'i ayvonda o'tirib, birga suhbatlashgan kechani esladim.

– Bu o'sha, men sizga so'zlagan O'r, doktor. Bir vaqtlar uning huzuriga borib, tanishishga va'da beruvdingiz.

U ruhoniya tikildi-yu jilmaydi:

– Esimda. Bilmadim nimaga, biroq bu ish va'daligicha qolib ketdi. – U boshdan oyoq unga razm soldi va to O'r unga qarab:

– Xayrli ishning erta-kechi yo'q. Siz bilan jon det do'stlashardim, birodar, – deb aytmagunicha ko'z uzmay turdi.

Bu g'alati odam huzurida O'r bir muddat ishonchini yo'qotganday tuyuldi. U „Bristol almanaxi“ni o'qiganida cherkovning ustunlarigacha gumburlab ketadigan baland ovozining salobatini yo'qotganday, sekin-sekin talmovsira, biroz iymanib so'zladi.

Bu ularning ilk uchrashuvi edi, boz ustiga oxirgisi ham. Doktor yaradorlarga yordam berishdan bo'yin tovlagan kechadan shu bugunga qadar yashab kelayotganining yagona sababchisi ham bu O'r edi, u o'rta tashmaganida olomon o'sha tundayoq, muyulishdagi uyning kulini ko'kka sovurib, uni burda-burda qilib tashlagan bo'lardi.

Biz ketishga chog'landik, haytovur, undan anchadan beri so'ramoqchi bo'lgan bir gap esimga tushdi. Men O'rga doktorning yonida bir muddat qolishimni, u esa vaqt yo'qotmay, bu yerdagi gaplardan hukumatni xabardor qi-

lishini iltimos qildim. Yolg'iz qolganimizda men undan so'radim:

– Aytinchchi, doktor, bolani nima qildingiz?

Uning yuzi biroz o'zgardi va hayratini yashirib ham o'tirmadi.

– Qanaqa bola, polkovnik?

– Meme va sizning bolangiz-da. Axir, u uyimizdan ketganida ikkiqat edi-ku.

U g'oyat xotirjam, ortiqcha hayajonlarga berilmay so'zlardi:

– Ha homilador edi-ya. To'g'ri, siz haqsiz, polkovnik. Men buni allaqachon unitibman...

Otam o'z xayollariga cho'mib o'tirarkan kutilmagan-da: „O'r bo'lganida-ku, hammasini kattasidan tortib kichigigacha xivich bilan savalab, bo'lsayam burnidan sudrab kirardiku-ya“. Harchand xotirjam tutishga urinmasin, ko'zlari tashvishli. Mangulikka cho'zilgan kutish soatlari (hozir adashmasam soat uch) da meni otamdan ko'ra, bolamning o'ychanligi xavotirga solyapti, parishonxotir, xayollari yovvoyi kaptarday qayerlardadir uchib yuribdi, uning hech narsa so'ramay, shunday befarq o'tirishi xuddi otasini eslatadi. Bugun chorshanba, bolaginam xayolimda tag'in to'qqiz yilga kattarib qolganday ko'rinar, u otasi poyezd derazasidan boqib, bir umrga g'oyib bo'lgan kundagiday bir marta qo'l silikib qo'ydi. Agar bolam otasiga tortsa, shuncha yil o'zimni qurbon qilganim ko'kka sovuriladi. Haqiqiy erkak bo'lib voyaga yetishini tilab, duo o'qiyman, nahot tavallolarim bari sahv ketsa? Nasliga tortsa, nima qilaman.

Besh yil burun bu meni sira tashvishga solgan emas, biroq qishloqqa orqasida egizagi bilan olti sag'irini ergashtirib, Xenoveva Garsia qaytganidan beri unda otasini ko'ryapman. Xenoveva ancha semirib, qarib qolgandi.

Ko'zlarining ostidagi xaltachalari osilib turar, ichidagi yuziga urgan turqi sovuqqa o'xshardi. Oppoq boshmoqlari-yu qo'sh etaklarini hilpiratib, qishloqni to'ldirib yurar, soxta baxtini o'zicha ko'z-ko'z qilardi. Xenovevaning qo'g'irchoq teatri direktori bilan qochib ketganidan xabarim bor edi, negadir olti bolasiga qarasam, qalbimda g'alati hislar paydo bo'lar, ularning harakatlarini kuzata turib, ko'nglim hech ilimas, bir-biriga o'xshash bu bolachalar bir xilda onalariday qo'sh etaklar-u oppoq boshmoqlarda yuradilar. Xenovevaning tizginsiz, sarkash baxti, garchi u aksini ko'rsatishga urinsa-da, allaqachon parokanda bo'lgan, aslida mustahkam narsaning o'zi yo'q, bu baxt go'yo poydevori yo'q imorat, ipsiz tizilib turgan marjonga o'xshar, bir marta qattiqroq puflasa muvozanatini yo'qotishi elburutdan ma'lum edi. Qishloqqa shaharga xos soxta havoni olib kirgan ayolning raftoriga qarasam, negadir to'dani buzgan begona buzoq, to'g'ri rog'i, qishloqqa shaharlik bo'lib qaytgan echki ko'z o'ngimda gavdalanardi. Teatr qo'g'irchoqlariga xos soxta harakatlari ko'nglimga chuqur qayg'u olib kirar, yoshlikning bema'ni sho'xligi, deya boy berilgan umrga achinish tuyg'usini uyg'otar, garchi Makondolik bo'lsa-da, hayot tarzi mutlaqo bu yerga yot edi.

Uni ko'rib, o'tmishni esladim. U esa ma'yus tortib, bolamga tikilganча: – To'rt tugmali bashoratchi qayerda? – deb so'radi.

Men qisqagina javob berdim.

– Ketdi.

– Senga esa faqat shuginani qoldirib ketdimi?

Men quruqqina „Ha“deya javob qildim.

Xenoveva odobsizlarcha qah-qah otib kuldi.

– Buni qara-ya, shunchalar ham lapashang bo'ladimi? Besh yilda atigi bitta. Men bo'lsam uni deb esimni yo'qo-

tib yuribman tag'in. Agar xotirlash marosimida u bilan yaqinroq tanishganimda, qasam ichib aytishim mumkin-ki, uni sendan tortib olardim. Biroq u paytlarda sodda qiz edim-da.

U xayrlasharkan, tag'in bolamga bir bora nazar tashladi va dedi: „Qasam ichib aytishim mumkinki, otasining xuddi o'zi, faqat to'rt tugmali kamzul yetishmaydi, xolos“. O'sha kundan beri, bolamga qarasam, otasi ko'zimga ko'rinib ketyapti, Xenoveva xuddi menga kinna solib qo'yganday. U boshini yelkasiga egib, stol ustiga kaftlari bilan shapatilarkan: „Sen bo'lmaganingda ham bir umrga Makondoda qolardim“, derdi. Bolam xuddi shunday qiladi, ba'zan u hozir shu so'zni aytib yuboradiganday tuyuladi. Yonimda o'tirib, otasiday oftobda qizargan qizil burniga tegib qo'ydi. „Og'riyaptimi, o'g'lim?“ – so'rayman tashvishlanib. Shunchaki, burni ko'zoynakni tutib tura oladimi-yo'qmi, deya tekshirib ko'rayotganini aytdi. Bo'ynidagi bo'yinbog'ini yecharkanman: „Bu haqda qayg'urmasang ham bo'ladi. Uyga qaytganimizdan keyin o'zim seni cho'miltirib qo'yaman, bugungi charchog'ing chiqib, ko'rmaganday bo'lib ketasan“, – deyman. „Kataure“ hindularning kattasiga shunday deya murojaat qilayotgan otamga boqdim. O'z ismini eshitgan Kataure boshini ko'tarib, uyqusiragan ko'zlari ila otamga tikildi. U uni chaqirishidan muddaosini aytishga ulgurmay qoldi, qadam tovushlari eshitildi va ichkariga alkald kirib keldi.

11

Bugungi kun dahshatning o'zginasi bo'ldi. Garchi bu kunga hozirlik ko'rayotganimga qaramay, doktoring o'limi bari bir meni dovdiratib qo'ydi. Uni ko'mish shun-

chalar qiyin kechadi va bu oilamni tashvishga qo'yadi, deb sira o'ylamovdim. Dafn marosimida kimdir yonimda bo'lishi kerak edi, men bu, shubhasiz, xotinimligiga ishonchim komil edi. Uch yil burun betob bo'lib, boshim yostiqa tekkanida, u yozuv stolidagi buyumlarimni titkilab, burama raqqosani topib oldi. Bu o'yinchoq haqida butkul unutib yuboruvdik. Kalitini burab, uning raqsga tushishiga mahliyo edik, u ba'zi xotiralarni yodga soldi. Adelaida raqqosaga qarab, chuqur xayolga cho'mdi.

– Kimni xotirlayapsan? – so'radi u

Qayg'uga botiradigan g'amgin musiqaga raqsga tushayotgan raqqosadan ko'z uzmasam-da, kimni nazarda tutayotganini bilib turuvdim.

– Unga nima bo'ldiykin? – so'radi o'ylanib. Shu tobda xotinimning ko'z oldidan xotiralar kino tasmaday betinim aylanib o'tayotgani aniq.

– U muyulishdagi uyda yashaydi, – dedim men. – Faqat suratigina qolgan, yaqin orada o'limxabar keladi, biz uni qabrga qo'yishimiz kerak, bu bizning bo'ynimizdagi qarz, onasi.

Adelaida indamadi, uning vujudini meniki kabi o't-mishning shirin xotiralari qamrab olgandi.

– Qiziq, har doim u uyimizga kirib kelgan kecha sen uni kim bilandir adashtirib yubording, deya o'ylayman, shuni bilgim keladi. Uni o'sha deb o'ylab, shohona dasturxon ham tuzaganing yodimda.

Adelaida jilmayib javob berdi:

– Qo'ying, shu haqda gaplashmaylik. U burchakda raqqosani qo'lida tutib turganida kinga o'xshatganimni aysam kulib yuborishingiz aniq, – ayolim shunday deya yigirma to'rt yil oldin u o'tirgan burchakni ko'rsatdi.

Men o'sha kun yarashib, kelishib oldik, deb o'yladim va u azador libosda shu bugun yonimda turishiga umid qiluv-

dim. Biroq o'sha o'yinchoq qutidan qayta o'rin egallashi bilan, sehrli musiqa ham o'z kuchini yo'qotdi. Adelaida o'z-o'zini tiriklayin ko'mib boryapti. U o'z xonasidagi burchakka biqinib olib, tun-u kun ibodat bilan mashg'ul. „Faqat sizning kallangizga shunday bo'lmag'ur firklar keladi. Endi bir kami shu Xudo urgan „go'rso'xta“ni tuproqqa qo'yishimiz qoluvdi. O'shayam odam bo'ldi-yu. Yaxshidan bog', yomondan dog'. Buningizning turgan-bitgani kulfat. Boshimni qotirmang“.

– Uning oldida qarzdorman, xotin, qarzimni uzishim kerak, – yuragida rahm-shafqat uyg'otishga intildim.

– Qanaqa qarz, aslida u bizdan qarz. Agar u hayotingizni saqlab qolgan bo'lsa, bu sakkiz yil uyimizda yeganichgani bilan baravvar, – deya kursini gullar tomonga qaratib qo'ydi.

Adashmasam, hozir ham u o'sha yerda bo'g'zidagi achchiq alamini unutilmay o'tiribdi. U bilan san-manga borish befoyda, shuning uchun taskin bermay, ortimga qaytdim.

– Mayli bormasang borma, zorim boru zo'rim yo'q. Men Isabelni olib ketaman, – dedim.

U indamadi. Biz chiqayotganimizda Adelaida hamon yashin urgan odamday joyida tek qotib o'tirardi. Uni tinchlantirgani:

– Mayli bor, qaytgunimizcha ibodatingni qila qol, chala qolib ketmasin, – dedim.

– Xayolingayam keltirmayman. Iblisni ko'mgani ostonasiga borayotganingizda, bu uyda men qilgan ibodatlardan bir pul. Qiyomat qoyim bo'lgunga qadar joyimdan qo'zg'olmayman. Ungacha hasharot-u qurt-qumursqalar bu kursini yeb bitirishmasa agar! – uning ovoz ohangida g'azab bor edi.

Tanish qadam tovushini eshitib, otam sergak tortdi. U Kataurega nimadir demoqchi edi-yu, tag'in dami ichiga

tushib ketdi, xuddi aytmoqchi bo'lgan gapini unutganday edi. U o'rnidan turdi, har doimgiday, oqsoq oyog'i aytgani-ni qilavermay, pand beradi, bechoraning hassasi bo'lmasa, ahvoli havas qilgulik emas, uch yil burun yorilgan ko'za-dan sizib oqqan sharbatga oyog'i toyib yuztuban yiqilib, shunday ahvolga tushdi. Otam shunchalar o'ng'aysiz yiqilganki, voqeani kuzatib turgan yagona odam, ya'ni beshikdagi bola qo'rqqanidan chinqirib yig'lab yuborgan.

O'shandan beri uni oqsoq oyog'i qiynaydi, oyog'ini bukolmay, do'zax azoblariga arang chidayotganini sezib turaman. Yodimda o'sha paytlarda biz u o'zini o'nglol-masa kerak, degan xayolga boruvdik. Bugun u alkaldning qo'lidan tutib o'rnidan turishga intilib, oqsoq oyog'ini qi-mirlatayotganiga qarab turib, uni qabrga qo'yishga intilib, oqimga qarshi suzib, g'arq bo'lishdan qo'rqmayotgani sa-babini endi tushunib turibman.

Otam qarzini uzmoqchi bo'layotir. O'zining so'zlari-ga ko'ra, ayvonda yiqilib tushganida, xuddi Makondo tog'laridan qulaganday bo'lgan ekan, o'shanda doktorlar: „Tayyorgarlikni ko'raveringlar, yashab qolishidan umid yo'q“ deyishuvdi. Otam hushsiz yotganining beshinchi kunida Makondo ahli bir yil burun O'ni so'nggi man-zilga ko'zyosh to'kkanicha, gullar ila cheksiz hurmat-u ehtiromini namoyon qilgani kabi kuzatib, uni ham qabrga qo'yishga hozirlik ko'rayogandi. Otamning qonsiz yuzi-ga boqib, taqdirga tan bergan ko'yi yonida o'tirardim, u alahlab chiqar va uyni boshiga ko'tarib, kechalari 85-yil-lardagi urush voqealarini xotirlardi. Tushlarida uni egni-dan yo'lbars terisidan tikilgan va yirtqich tish-tirnoqlari ila bezatilgan mo'yna tushmaydigan, oyog'idagi qo'nji uzun etigi yaltillab turadigan polkovnik Aureliano Buendiani betinim chaqirardi. „Kimsiz?“ degan so'rovni u javobsiz qoldirdi, „Qayerdasiz?“ u hamon jim edi, „Kim tomonda

kurashyapsiz?“ bu safar ham undan tayinli gap eshitmadilar. Shunda soqchi mash’alani notanishning yuziga tutdi va: „Jin ursin! Axir bu gersog Malboro-ku“, – deb baqirib yubordi.“

Mana shu alahsirashni eshitgan doktorlar, bechora otaginamning boshidan sovuq suv quyishni buyurishdi. Chiqmagan jondan umid, ularning og’zidan chiqqani biz uchun amri vojib. Ertasiga otamning ahvoli battar yomonlashdi. Doktorlar: „Endi umid yo’q, qo’limizdan kelganini qildik, dafn marosimiga hozirlik ko’raveringlar“, – deya ostonadan oyoqlarini uzishdi.

Yotoqxonada ajal ko’lankasi kezib yurar, xonani o’lik sukunat qamrab olgandi. Bu sirli o’lim sukunati, menimcha, har bir jon talvasasidagi odam yonida izg’isa kerak. Anxel ota bemor badanini zaytun moyi bilan moylaganidan keyin u butunlay qimirlamay qo’ydi. So’nggi nafasi tark etayotgan chalajon bemordan ko’z uzmay turardik. Onam unga dori bergani qo’zg’aldi. Biz boshini ko’tarib turdik, u otamning og’zini arang ochib, qoshiqdagi dorini ichirdi. Shu payt ayvondan og’ir qadam tovushlari eshitildi. Onam go’yo azroil yaqinlashayotganday, qo’rqqanidan shivirlab duo o’qirdi: „Yo rab, nahot, oxirgi daqiqalar, nahot erimning paymonasi to’lgan bo’lsa-ya, rahming kelsin!“ Biroq ortimizga o’girilganimizda azroil emas, balki doktor turardi. U ostonada o’tirib, bizdan ko’z uzmasdi.

Qizimga: „Agar rahmatli O’r tirik bo’lganida-ku, barini xipchin bilan savalab bo’lsa-da, shu yerga burnidan tortib, sudrab olib kelardiku-ya“, deb aytaman. Qishloqda odamlarning boshini qovushtiradigan bir odam topilmasa qiyin, ko’nglimdan shularni o’tkazarkanman, tobutga yaqinlashaman. „Doktor uyimizni tark etganidan beri, o’z qobig’imizga o’zimiz o’ralib qolib, behuda yashayotgan-

daymiz, yaxshimi-yomonmi, har bir odamning o'z o'rnini bor ekan. Uyimizda o'z hukmronligini o'rnatgan Adelaidaning bid'atlari hududidan tashqariga chiqib ketolmay qolganimizni mana endi anglayapman.

To'shakda o'tirgan odamlarning hissiz chehrasiga boqdim. Tobutdagi zulmat-u xonadagi yorug'lik orasidagi masofani chamalayman, tavba, bir nafas – hayot-u o'lim orasidagi oraliq atigi bir qadam. Bu jonsabil odamning murdasi ko'milsa, xayrli sanalgan ish Makondoning g'alabaga bo'lgan ishonchni mahv etib, qanchalar qayg'uga botishini ko'z oldingga keltiryapman. Endi alkald lafzida turib, ko'mishga ruxsatnomani paysalga solmasa go'rga edi. Tashqarida ham bu ishning qay tariqa adog'ig' yetishini kuzatayotganlar anchaligini bilaman. Qozon shirguruch qaynatayotgani yodidan ko'tarilgan ayolle ko'zlarini derazadan uzmay, sarson bo'lgan bu mayyitni qachon ko'misharkin, deya ko'z tikib turgani tayin. Ishonchim komil, tobut ko'chaga chiqishi bilan ko'ziga qon quyilgan olomon uning yo'lga chiqib, qabrga qo'yishga qarshilik qilish kabi pastkashlikkacha boradi, hech kim uni ayamaydi. Odamlarning urushga tashnaligi hamon so'nmagani va bu saylov o'tkazilgan dam olish kunidan buyon olovlantirilgan. O'z hayotiga o'zi hukmron xalq hokimiyat jilovi qo'limda, deb o'ylab chuchvarani xom bo'lganining fahmiga yetganidan, umidlari chilparchin bo'lganidan beri alamzada. Biroq bularning bari oldindan bichib-to'qib qo'yilgandi, voqealar rivoji xuddi shunday yo'lga qo'yilgan. Ular shunday yo'lga qo'yilganki, bir ota-onadan tarqalgan odamlar oxir-oqibat bir-birini o'ldirib, o'zini o'zi yo'q qilib yuboradi.

O'n yil burun qo'qqisdan inqiroz yuz berganida, hammamiz bir yoqadan bosh chiqarib, Makondoni saqlab qolishimiz mumkin edi. Xonavayron bo'lgan banan

kompaniyasining qoldiqlari yig'ilganida-ku, u barini qaytadan boshlashga-yu tiklashga yetib ortardiku-ya. Biroq odamlarni sabrsizlikka o'rgatib, ularni o'tmish-u kelajakka bo'lgan umidlaridan ayirdilar. U bugunini o'ylaydigan, qorin g'amidan bo'lak qayg'usi yo'q manqurtga aylandi. Ko'z oldimda odam emas, balki kul turganiga amin edim, u to'rt tomonga sochilib bo'ldi, uni yig'ish va qayta odam shakl-shamoyiliga keltirish aslo mumkin emas. Bu kul Makondoga hammasini olib keldi-yu tag'in barini supurib ketdi. Undan so'ng gullayotgan qoldiqlar orasida faqat bozor kuni, Makondodagi so'nggi saylov boshboshdoqligi, to's-to'polonlar, shisha idishda jim turgan lainning odam ichiga kirganidan keyin ko'rsatgan qonli tomoshalari va nozir-u harbiylar tomonidan isyon bostirilgan o'sha lahshatli kecha qoldi.

Basharti O'r bugun hayot bo'lganida o'sha tun olomon isyonini bostirishga erishganidek, bugun mana shu odamni ko'mishga Makondo ahlini kerak bo'lsa qamchisi bilan o'z uyidan quvib chiqarar, kattasidan tortib, kichigigacha dafn marosimiga yig'ib kelardi. Ruhoniy odamlarni o'z ta'sirida tutib tura olardi. U bundan to'rt yil muqaddam, boshim yostiqqa tegib, o'sal bo'lganidan bir yil oldin o'lganiga qaramay, qishloq ahli uni hamon qadrlaydi. Esimda, ruhini shod-u xurram etish maqsadida O'rni so'nggi manzilga gullar bilan kuzatgan xalq burchini oxiriga qadar ado etgandi.

Doktor uning dafn marosimida qatnashmagan qishloqdagi yagona odam edi. Iymon-insofli ruhoniy izmidan chiqmagan makondoliklar O'rning hayhaylashidan o'sha oqshom yovuz niyatidan qaytgan. Doktor esa ruhoniy oldida hayotiga qarzdor qishloqdagi birdan bir inson ekani ni ham yuzxotir qilmadi. O'sha qo'rqinchli tunda maydonda qurollangan bir necha mast-alast vahshiylarning

qonli to'qnashuvlarida shahid ketgan murdalarni qo'rquv ichra bitta qabrga birvarakayiga kafansiz ko'mayotganlarida, haytovur muyulishda doktor yashayotgani kimningdir esiga tushib qoldi. Shunda chalajon yaradorlarni uning ostonasiga keltirib, quloqni qomatga keltiradigan ohangda baqirib-chaqirib:

– Doktor, yordam bering, iltimos, birodarlarimiz hayotini saqlab qoling Bola-chaqasiga rahm aylang, boshqa doktorlarning qo'li bo'sh emas, – deya betinim yolvorib-o'tinib so'rashgan (chunki u eshikni ochmay, ichkaridan so'zlagan).

U esa pinaginiyam buzmagani.

– Boshqasiga olib boring, bunda ilojisizman, sizga hech qanday yordamim tegmaydi.

– Hozir qishloqda yagona doktorsiz, shunga bir odamgarchilik qiling. Agar kerak bo'lmaganingizda, eshigingizga bosh urib kelmasdik.

U (bu gaplar uning yuragini yumshatib yuborgan emas) jinchiroqni baland ko'targanida, sarg'ish itko'zlari tashqaridagilarga yaqqol ko'rinib turgan.

– Bu ishni qilmaganimga ming yillar bo'ldi, oradan qancha suvlar oqib o'tdi, hammasini unutganman, qo'lim bari bir kelishmaydi, ularni boshqa joyga olib boravering.

– Sichqonning ajali yetsa, mushuk bilan o'ynasharkan, u ham qo'zg'algan xalq g'azabidan hayiqmay, eshik lo'kidonini surmadi. Ostonasida Makondoning yarador bir necha ayoli-yu erkagi qora qonga bo'yalib, jon taslim qildi (o'sha tundan buyon bu uyning eshiklari bugunga qadar mutlaqo ochilgan emas). O'sha kecha darg'azab olomon ko'ziga hech nima ko'rinmasdi. Bu uyning kulini ko'kka sovurib, egasini burda-burda qilishga shay edilar. Lekin o'sha lahzada Xudo qayerdandir O'rni yetkazdi. Aytishlaricha, ostonaga yotib, uyni ostin-ustun qilib, yana bir odam-

ning boshiga yetishmasin, deya uy egasini jon-jahdi bilan himoya qilgan ekan. „Shu uyga tegmoqchi ekansizlar, avval mening o‘ligimni bosib o‘tishlaringga to‘g‘ri keladi. Shunchalik vahshiymisizlar, bo‘laqollaring bo‘lmasa!“ – debdi u. O‘r Anxel otaga o‘xshab, uzundan uzoq maza-matrasiz ma‘ruza o‘qimasdi. U shundan boshqa gap aytmay, faqat qulochini keng yoyib, xochga o‘xshab turib olgan. Olomon esa ruhoniylar qoniga qo‘lini botirishni istamay, ortiga qaytgan ekan. Xalq sal bo‘lsa-da, hovuridan tushgan, biroq baribir unga hukm o‘qib qo‘yilgandi, u o‘z ma‘vosida irib-chirib ketmagunicha zinhor-bazinhor Makondo tuprog‘iga qo‘yilmagay.

Men to‘shak oldiga yaqinlasharkanman, o‘lik yotgan xonaning eshigini katta ochib qo‘yish kerak, deya ko‘nglimdan o‘tkazaman: „Alkald hali zamon qaytadi“. Mabodo u besh daqiqa ichida qaytmasa, mayyitni ko‘chaga chiqaraman-da, hammaning ko‘z o‘ngida shundoq ostona tagiga ko‘mib yuboraman.

– Kataure, – hindularning kattasini chaqirishga ulgurmasimdan, qo‘shni xonadan alkald ovozi eshitildi.

Bilaman, u hozir to‘g‘ri yonimga keladi. Hassaga tayanib turishga intilaman, biroq oqsoq oyoq qurg‘ur pand beradi, muvozanatimni saqlolmay, yuztuban yiqilishimga oz qoldi. Basharti shunday bo‘lganida tobutga boshim urilgan va bu uydin xalq qarshilik ko‘rsatmasa, qo‘sh tobut chiqqan bo‘lardi, biroq yaxshi odam o‘z uyida o‘ladi, hartugul peshonamga Xudo bir nima yozgan ekan, alkald meni tutib qoldi: „Xotirjam bo‘ling, polkovnik, garov boylashim mumkinki, bugun hech narsa sodir bo‘lmaydi“. Garchi u bu so‘zlarni o‘ziga taskin uchun aytsa-da unga ishonaman. „Har narsa sodir bo‘lishi mumkin“, deya ko‘nglimdan o‘tkazaman, u esa ko‘mish marosimi haqida uzundan uzoq ma‘ruza o‘qib, qo‘limga uni tuproqqa

qo'yish uchun ruxsatnomani tutqazdi. Hujjatga ko'z ham yugurtirmay, to'rt buklab shundoq qo'ynimga urdim-u: „Xudoga shukr, alaloqibat, bo'lishi kerak bo'lgani baribir yuz beradi. Qismatdan qochib bo'lmaydi. Kelajak „Almanax“larda yozilgan“, – dedim.

Aikald hindularga yaqinlashib, eshikni ochib, tobutni olib chiqishni buyurdi. Hindular qo'liga bolg'a-yu mix tutib, hafsala bilan kelib chiqishining tayini yo'g', nomnishoni noma'lum musofirni tobut ichiga abadiy mixlab tashlashlarini kuzatib turaman. So'nggi bora men uni bundan uch yil burun o'z to'shagimda sog'ayib oyoqqa turganimda ko'rgandim. U qarib-qartaygan, tinka madori qurib, eti ustuxoniga yopishgan, ko'zlari ichkarisiga botib-botib ketgandi. Yaxshimi-yomonmi, u baribir mening jonimni saqlab qolgan. O'zi darmonsiz bo'lishiga qaramay, meni oyoqqa qo'yguniga dovur, daf'atan boshi yostiqa tegishini istamas, tik oyoqda yurishi uchun kuchli bo'lishga intilardi. U doim: „Oyoqni davolash kerak, has-saga tayanib qolasizmi, deya qo'rqaman“, – deb suvni oldindan bog'lab, meni bu taqdirga ko'ndirish-u ko'niktirishga erishdi.

Ikki kun o'tgach, qarzimni qanday uzishim mumkinligini so'radim, u esa: „Polkovnik, buni qarz deb hisoblamayman. Ko'nglingizga kelmasa bir iltimosim bor xolos, paymonam to'lgan kun ko'zinga tuproq sepsangiz. Quzg'unlarga yem bo'lmay, odamga o'xshab ko'milsam deyman“.

Og'irlashib qolgan qadam tovushlari, mungli ko'zlari, madori qurigan ozg'in tanasi, o'sha kungi iltimosi bilan qo'limni boylab qo'ygandagi ovoz ohanggiga ko'ra, oldinda bab-baravar uch yil bo'lishiga qaramay, bu odam allaqachon o'lib bo'lgan, ruhi allaqachon tanasidan chiqqan-u yakkash et-u suyak qolgandi, xolos. Bugun o'sha

tana dunyo azoblaridan qutuldi. Uning sarg'ish itko'zlaridagi mil-mil yonib turgan hayot olovini o'chirmoqlikka arqonning hojati yo'q edi, shunchaki bir bora puflasa, yetib ortardi. Men buni allaqachon, u Meme bilan muyulishdagi uyga ko'chib o'tmasidan burun, o'sha kecha xonasida suhbatlashganimdayoq bilganman. Iltimosi meni hayratga solgan emas: „Buni so'ramasangiz ham bo'ladi, doktor. Tanamda jonim bor ekan, sizni qabrga qo'yib, birodarimni ko'mganday ko'mardim, hatto hayotim evaziga bo'lsa ham. Buyog'idan ko'nglingiz to'q bo'lsin“.

Uning sarg'ish itko'zlari ilk marotaba yumshadi va jilmaydi: „Hech qachon lafzingizdan qaytmasligingiz ma'lum, polkovnik, biroq bilib qo'ying, o'lgan odam meni ko'molmaydi. Mendan burun omonatni topshirishni o'ylamang“.

* * *

Mana endi bu sharmandalikni hech narsa to'xtatib qololmaydi. Alkald otamga ko'mishga ruxsatnomani topshirganida u: „Xudoga shukr, alaloqibat, bo'lishi kerak bo'lgani bari bir yuz beradi. Qismatdan qochib bo'lmaydi. Kelajak „Almanaxlar“da bitilgan“, – dedi. U bu gapni shunchalar befarq holda, men tug'ilmasimdan burun Makondoga qur'a tashlanib, o'rnatilgan eski qonun-qoidalar-u urf-odatlariga va iymon-e'tiqodiga sobit odamday aytdi. O'shandan buyon hech bir ish o'z yo'lidan ketganmagan. Odamlar e'tiqodidan og'ishdi. Hatto onamning metin irodasi bukilib, quvvati sob bo'ldi. U bugun ayvondagi kursida o'tirib, qahr-u g'azabini yashirmay: „Qiyomat qoyim bo'lmaguniga qadar, o'mimdan turmayman!“, – deganidayoq buni bildim.

Otam hamisha o'z aytganidan qolmay, istagiga erish-

gan. Mana, hoziram u bu ishning fojiali oqibatlarini nazar-pisand qilmay, burch deya bilib, adog'iga yetkazishga bel bog'lagan. Hindulardan biri darvoza, biri tobut tomonga yo'naldi. Ular yaqinlashayotganda menam o'rimdan turib, kursini panaroqqa tortdim-u bolaginamning qo'li-dan mahkam tutdim. Eshik ochilganida hammaning ko'z o'ngida bo'lishni istamayman.

Bola o'ychan. O'rimdan qo'zg'alanimda u garang-sib, aftimga tikilib turdi, tag'in o'z o'ylariga g'arq, hindular hatti-harakatidan ko'z uzmaydi. Ulkan darvoza yurakka vahima solguvchi ovoz chiqarib, tashqariga ochildi, tashqarida o'tob nurida changning yaltillashi-yu ichkaridagi omonat jihozlarning g'aribliigi ko'zga tashlandi. Xuddi tangri bu olamga foyda keltirishdan to'xtagan shahar-u qishloqlarning burchagidagi Makondo endi kerak emas, deyayotganday edi.

Kutilmaganda ichkariga yorug'likning yopirilib kirishi bola ko'zlarini shamg'alat qildi (eshik ochilganida, uning qo'li qaltiradi), boshini ko'tarib, diqqat bilan tingladi. „Sizning ham qulog'ingizga chalinyaptimi?“ – so'raydi u mendan. Shu on qo'shni bog'dan yapaloqqushning ovozi keldi. „Vaqti-soati yetdi, kutilgan daqiqalar kelgani uchun sayrayotgandir“, deyman. Mix qoqayotgan bolg'aning tovushi eshik-derazalarni larzaga keltirdi.

Bolg'a tobutga emas, go'yo yuragimga mix qoqayotganday, butun vujudimni junjiktirayotgan ovozni eshitmaslikka intilyapman. Qalbidagilarni yonimdagi go'dakka bildirmay, derazadan tashqariga ko'z tikdim. Tashqarida qurib-qovjirab chang bosib yotgan bodom daraxtlari g'amga cho'mgan ma'yus kelinchak kabi egilib turibdi. Ko'rinmas kuchli shamol sekin-asta barining oyog'ini osmondan qilib, bildirmasdan ado qilib bora-yotir, so'lim go'sha – bugun qup-quruq sahroga aylandi.

Banan kompaniyasi siqib suvini chiqarganidan Makondo mana shunday xarob ahvolda. Uylarining shiftlarini pechak bosgan, devor tirqishlariga o'rgimchaklar uya qo'ygani-qo'ygan. Kuppa-kunduzi yotoqxonaga kaltakesaklar o'rmalab kirib kelaveradi. Bari biz daraxt o'tqazishni kanda qilganimiz va noma'lum sirli ruh javondagi rojdestvo chinnisini sindirgani vajidan, alaloqibat u javonda emas, xachirlar oxuriga aylanib, og'ilxonaga qo'yilganidan buyon bu qishloqdan xayri-barakaning qadami aridi. Eshik qayishib yopilmay qolgudek bo'lsa, hafsala qilib uni to'g'rilyadigan qo'l topilmaydi. Otamni qarilik yengib borayotir, oqsoqlanib yurayotgan kundan boshlab, kuchdan ham qoldi. Yoshlik quvvati go'yo shu oyoqqa jam bo'lgan-u undan mador ketgandan beri tanasini quvvat ham tark etgan. Mohir qo'llari endi bunday ishlarga yaramaydi. Senora Rebeka tul qolgani yetmaganiday, ustiga-ustak bepushtligidan nolib, ventilyator yonidan jilmaydi, qo'li biror ishga bormasdan o'tirgani-o'tirgan. Ageda falajligi-yu notavonligidan o'kinganicha, Anxel otaning bid'atlari ila allaqachon o'zini tiriklay ko'mgan. Qorin g'amidan boshqasi qiziqtirmaydigan Anxel ota esa tushlik chog'i to'yib qiyma sho'rvani qoriga urishi bilan choshgohgacha orqasini o'girib, yotishdan huzurlanadi. Qadimdan yakkash San-Xeronimolik egizaklarning „Sirli gadoy qiz“ qo'shig'igina o'zgarmay qolgan, mana yigirma yildirki, u eskirmaydi. Bir-biriga o'xshaydigan kunlar sukunatini bu qishloqdan hech kim hech yerga ketmasa-da, kun bo'yi poyezdning chorlaguvchi to'rt hushtagi, tun oromini esa banan kompaniyasi Makondoga meros qoldirgan elektrostansiyaning shovqini buzadi, xolos.

Men derazadan tashqariga boqib, o'z uyimizga tikilaman. Onam uyga qaytishimizdan avval kuchli bo'ron ko'tarilib, Makondoni yer yuzidan supurib ketsa kerak,

deya xiyol qilayotgandir. O'shanda bu yerdan hamma narsa g'oyib bo'ladi, faqat bizdan bo'lak, chunki biz shu muhitda ulg'ayganmiz, ota-onam urush fojialaridan qochib, Makondoga kelganida bu qishloq chin jannat edi. Uning toza havosi ila o'pkamizni to'ldirib, to'yib-to'yib nafas olganmiz, taraqqiyotning soxta nafasi hali qalbimizda saqlanayotgan chin samimiy tuyg'ularni o'ldirishga muvaffaq bo'lmagan. Bu tuproq va unda olamdan o'tib ketganlar xotirasi uzilmas rishtalar ila chamberchas bog'liq. Jamadonlar urush oxirlaganidan buyon hamon mana shunday yig'ib qo'yilgan ahvolda turadi, kim biladi, tag'in urush boshlansa g'afflatda qolmaylik. Dafn marosimidan qaytganimizda Makondo yer yuzidan g'oyib bo'lsa-da, uning kaltakesaklarga to'la yotog'i baribir hozirgidek bus-butun qolishiga aminman, faqat xotiralargina o'chib ketadi. Yomon xotiralar izsiz g'oyib bo'lgani yaxshi.

Bobom o'rnidan turdi, hassasiga tayanib, bo'ynini qushga o'xshab cho'zganida ham ko'zoynagi go'yo yuzining bir bo'lagiday joyidan siljmaydi. Menimcha, ko'zoynak taqib yurolmasdim. Har bir harakatimdan bu matoh qulog'imdan tushib ketaversa kerak. Shu haqda o'ylarkanman, buningga tegib qo'ydim. Onam tashvishlanib: „Og'riyaptimi?“, – deb so'raydi. „Yo'q, shunchaki, men ko'zoynak taqib yurolmasam kerak“, – deb o'ylayapman. U jilmayib, chuqur tin oldi. „Bolajonim-ey, terlab jiqqa ho'l bo'lib ketgandirsan?“ – deydi mehr bilan astoydil rahmi kelib. Chindanam bu qalin duxoba joma butun tanamni achishtirib tashladi. Terning yoqimsiz hididan ko'nglim behuzur bo'la boshlaganidan: „Ha“, – dedim. Oyim menga egilib: „Uyga qaytganimizda, o'zim seni yuvintirib qo'yaman, shunda yengil tortib qolasan“. „Kataure“ – deya hindularning katasini chorladi Bobom...

Xuddi shu mahal orqa eshikdan tag'in o'sha qurollangan odam kirib keldi. U shlapasini yechib, oyoq uchida qadam tashlab, go'yo polkovnikni uyg'otib yuborishdan cho'chiganday sekin turtdi, aslida esa bu bilan Bobomni qo'rqitmoqchi edi. Kutilmagan tashqi ta'sirdan Bobom muvozanatini yo'qotib, qo'lini cho'zib tutib qolmagani-da yiqilib tushishi tayin edi. Boshqalar chekishni tashlab, hamon to'shakda tobutdan ko'z uzmay turishibdi. Qurol ko'targan odamni ko'rishgan zahoti bir-birining qulog'iga nimadir deya shivirlashdi. Ulardan biri qo'zg'alib, qutidan bolg'a-yu mix oldi.

Bobom hamon qurolli odam bilan gurunglashardi. „Xavotirlanmang, polkovnik, bari tinch-osuda o'tishiga kafilman“, – deydi haligi kishi. Bobom: „Kim biladi, yana nimalar sodir bo'lishi mumkin“, – xotirjamligini yo'qotmay so'zlaydi. – Balki, uni qabristonning tashqi tomonidan baland cho'qqilarning chap tomoniga ko'msakmikan, nima deysiz?“. U Bobomga qandaydir qog'ozni uzatarkan: „Hali ko'rasiz, hammasi kutganingizdan a'lo darajada nihoyasiga yetadi“, – deydi u. Bobom bir qo'li bilan hassaga tayanib, ikkinchisi bilan qog'ozni oldi va uni qo'yniga, tilla zanjirli soati osig'liq turadigan kissasiga soldi. „Xudoga shukr, alaloqibat, bo'lishi kerak bo'lgani bari bir yuz beradi. Qismatdan qochib bo'lmaydi. Kelajak „Almanaxlar“da bitilgan“. Bu so'zlarni Bobom g'urur ila aytdi. „Derazaga qadalgan ko'zlardan qo'rqmang, qo'li-dan hech ish kelmaydi. Shunchaki qiziqishi ustun kelgan bekorchi gapsotar to'rt-besh ayol, ularning esa bu qishloqda burnini suqmagan biror ish yo'q“. Bobom bu gaplarni go'yo eshitmaganday derazadan ko'z uzmay, tashqariga qaraydi. Haligi odam hindularga yaqinlashib: „Tobutni mixlashingiz mumkin, darvozani katta ochinglar, ichkari-ga toza havo kirsin“, – deydi.

Odamlar harakatga keldilar. Biri tobut mixlagani, ikkinchisi darvozani ochishga qo'zg'aldi. Oyim ham o'rmi-dan turdi. U terlab, rang-ro'yi murdaday oqarib ketgan. Oyim darvozani ochishga borayotganlarga yo'l berarkan, kursini ichkariroqqa tortib, qo'limdan tutdi.

Avvaliga lo'kidonni surishga urindilar, u zanglab ketganidan joyidan surilay demasdi. Ulardan biri bor kuchi bilan darvozani tashqariga itardi, xona qisirlayotgan eski yog'och va temirning tovushidan larzaga keldi va nihoyat darvoza tashqariga ochildi. Hali biz atrofda nima bo'layotganiga aqlimiz yetmasdan burun xonaga ikki yuz yil tutqunlikda saqlanib, so'ng erkinlikka erishgan qoramol to'dasiday yorug'lik shiddat bilan yopirilib kirdi va necha yillardan buyon oftob nurini ko'rmagan buyumlar ko'lankasi shoshib qolganidan tartibsiz harakatlanmoqda, ular xuddi quvonchdan sakrayotgan bolakayga o'xshaydi. Osmonda chaqmoq chaqqanday, odamlar bir seskanib tushishdi, agar bir-birlarining qo'llaridan tutib turishmaganida, balki, yiqilib tushgan bo'lardilar.

Eshik ochilganida qayerdandir yapaloqqushning ovozi keldi. Mana endi tashqari ko'rinyapti. Ko'chada oppoq, is-siq chang ko'tarilgan. Bir necha erkaklar qo'llarini orqaga qilib, biz tomonga o'qrayib qarab turishibdi. Tag'in yapaloqqushning tovushi eshitildi. Oyimdan: „Siz ham eshit-yapsizmi?“, – deb so'raganimda, u vaqti-soati yetgani uchun qayta-qayta sayrayotgandir, – deb qo'ya qoldi. Ada esa menga yapaloqqush o'lgan odam hididan sayrashga tushadi, degandi. Endi shu haqda oyimga og'iz ochmoqchi edim, tobut qopqog'iga urilayotgan birinchi mix ovozi yangradi. Bolg'a mixni oxirigacha yog'ochga qadab, bir muddat tin oladi-da, tag'in boshqasini uradi. U yog'ochni ayamay, shunday olti joyidan yaralaydi, oyim bunga qarab turolmay, yuzini tashqariga burdi.

Bolg'aning ovozi tinishi bilan jo'r bo'lib sayrayotgan yapaloqqushlarning sasi ko'paygandan ko'payib, kuchayib boraveradi. Bobom odamlarga imo qildi. Ular egilib, tobutni bir tomonga qiyshaytirib ko'tarishdi. Shlapadagi odam burchakda turib, Bobomga betinim:

– Xotirjam bo'ling, polkovnik, barining jilovi qo'limda, – derdi, biroq bu bilan u ko'proq o'zini tinchlantirmoqchiday edi.

Bobom darg'azab bo'lib, alkald tomonga qayrildi, jangari xo'rozday qizarib ketganiga qaramay, hamsuhbatiga indamadi. Burchakdagi odam esa unga va o'ziga tag'in taskin berdi:

– O'ylaymanki, Makondoda ertaga bu haqda hech kim eslamaydi.

Xuddi shu payt qornimda titroq turdi. Mana endi chindanam tashqariga chiqmasam bo'lmaydi, lekin, afsuski, kech edi. Odamlar oxirgi harakat bilan tobutni yerdan ko'tardilar va u xuddi o'lik kema ruhiday havoda muallaq suzib borardi.

„Boyqushlarning burni hid oldi-yov. Hozir hammasi jo'r bo'lib sayrashga tushadi“, deya ko'nglimdan o'tkazaman.

OQ YO'L, JANOB PREZIDENT!

U kimsasiz bog'da, sarg'aygan yaproqlar ostidagi taxta o'rindiqda hassasining kumush tutqichiga tayangan holda, chang bosgan oqqushlarga tikilganicha, o'lim haqida o'ylab o'tirardi. Jenevaga ilk bor kelgan vaqtida ko'l osuda va shaffof edi, qo'lga o'rnatilgan chaykalar uchib kelar va kaftidagi yegulikni cho'qib yerdi, burma ko'ylak va ipak shlapa kiyib olgan ayollar esa, oqshom soat oltida arvoqqa o'xshab ko'rinar edi. Ularni pulga yollash mumkin edi. Endi bo'lsa, bo'm-bo'sh sohilda gul sotuvchi ayoldan boshqa kimsa yo'q. Vaqt faqat uning hayotinigina emas, tevarak-atrofini ham ana shunday ostin-ustin qilishiga qodir ekaniga zo'rg'a ishonish mumkin.

Noma'lum kimsalarga to'lib-toshgan bu shaharda u ham bir noma'lum kishi edi. Oq chizikli to'q ko'k kastum, zarbof nimcha va iste'fodagi sudyalari kiyadigan dag'al shlapada, mo'ylovi kalondimog' mushketyorlamnikiga o'xshab ko'kish tovlanadi, qalin, jingalak sochlari parison, qo'llari baayni arfa cholg'uvchi ayollarnikidek, chap qo'lining nomsiz barmog'ida bevaligini ko'rsatadigan uzuk, ko'zlari masrur. Faqat biroz tirishgan terisigina sog'lig'ini yo'qotganini ayon etib turardi. Shunday bo'lsa-da, u yetmish yoshida ham o'ta po'rim. Ammo o'sha tongda unda manmanlikdan asar ham yo'q edi. Shuhrat va hukmronlik davri qaytmaydigan darajada ortda qolib ketgan, endi faqat o'lim zamoni kelgandi.

Martinikadagi shifokorlar aniqlay olmagan kasalligining sababini bilib olish uchun ikkita jahon urushidan keyin, nihoyat Jenevaga qaytib kelgandi. U, bu yerda ikki haftadan ko'p qolmoqchi emasdi, lekin, mana, qariyb olti hafta bo'ldiki, tinkani quritadigan tekshiruvlarga giriftor qilishdi. Bu tekshiruvlarning oxiri yo'qday tuyular, ular aniq natija bermayotgan edi. Jigari, buyragi, oshqozon osti bezi va prostata bezini tekshirib ko'rishdi, holbuki, bu yerlarda ishkali yo'q edi. Nihoyat, uni tekshirgan bir to'da doktordan eng mashhuri mash'um payshanba kunlarining birida asab xastaliklari bo'limiga ertalab soat to'qqizga kelishni tayinladi.

Kabinet rohiblarining hujrasiga o'xshardi. Pakana va g'amgin doktorning o'ng qo'lini bosh barmog'i singani uchun gipslangan edi. Chiroq o'chgach, ekranda umurtqaning surati paydo bo'ldi. Doktor tayoqcha bilan beldan pastroqdagi ikki bo'g'in birlashgan joyni ko'rsatmaguncha, u bu umurtqa o'ziniki ekanini tan olmadi.

– Og'riq mana shu joyda, – dedi doktor.

U bu darajada oddiy bo'lmasa kerak, deb hisoblardi. Chunki og'riqni tushunib bo'lmas, u kezib yurar, goh o'ng biqinida, goh qornining ostida paydo bo'lar, to'satdan chovi sanchib qolardi. Doktor uning so'zlarini tayoqchani ekrandan olmasdan jimgina eshitdi.

– Shuning uchun ham uni shuncha vaqt topolmadik-da, – dedi u. – Lekin endi bilib oldik, u xuddi mana shu joyda.

Shundan keyin u ko'rsatkich barmog'ini chakkasiga tiradi-da, aniqlik kiritdi:

– Qat'iy aytamanki, janob prezident, butun og'riq xuddi mana shu joyda.

Tekshiruvlarda shu darajada azob tortgandiki, oxirgi hukm muruvvatli bo'lib tuyuldi: prezident muqarrar suratda va tavakkaliga operatsiya qilinishi lozim edi. Prezident

tavakkal darajasi nechog'liq ekanini so'radi, keksa doktor mutlaqo noma'lum bo'lgan bu masalaga mujmal javob berdi.

– Har holda, buni aytish qiyin, – dedi u.

Shunday bo'lsa-da, yaqin-yaqinlargacha bunaqa operatsiyalarda natijaning mash'um oqibat bilan tugash ehtimoli juda katta bo'lganini, lekin ish ko'pincha turli darajadagi falaj bilan yakunlanganini ilova qildi. Biroq keyingi ikki jahon urushida meditsina erishgan yutuqlar tufayli bunday tahlikalar ortda qolib ketgan.

– Xotirjam ketavering, – dedi u so'zini yakunlar ekan. – Yaxshilab tayyorlaning va bizga xabar bering. Shuni unutmangki, qancha erta bo'lsa, shuncha yaxshi.

Bundan yomon yangilikni hazm qilish uchun bu erta juda bexayr edi. Buning ustiga havo ham aynib turgan bo'lsa. U mehmonxonadan juda barvaqt, palto kiymay chiqqan, chunki derazadan quyosh charqlab turganini ko'rgan edi. Ohista yurib, shifoxona joylashgan Shmend-Bo-Soley ko'chasidan Ingliz bog'idagi Yashirin sevishtanlar boshpanasiga qadar bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. U bog'da bir soatdan ko'proq to'xtovsiz o'lim haqida o'ylab o'tirdi. Shu pallada birdaniga kuz izg'irini esdi. Ko'l bo'ronda qolgan okeanga o'xshab to'lqinlandi, qattiq esgan shamol chaykalarini to'zitib yubordi, daraxtlardagi so'nggi yaproqlarni uchirib ketdi. Prezident oyoqqa qalqdi va gulchi ayoldan gul sotib olish o'miga, bog'dagi tuvaklarda o'sayotgan dastorguldan bittasini uzib, ko'kragiga taqib oldi. Gulchi hayron bo'ldi.

– Bu gullar Tangrining moli emas, – dedi u norozi bo'lib. – Bu gullar poshsholikniki.

U pinagini ham buzmadi. Hassasining o'rtasidan tutib, oliftalardek o'ynatganicha katta va shaxdam qadam tashlab uzoqlashdi. Mon-Blansh ko'prigi ustiga osilgan Kon-

federatsiya bayroqlarini shamol yirtib yubormasin, deya shosha-pisha yig'ishtirib olishgan, ko'pirib yotgan baland favvorani oldindanoq berkitishgan edi. Prezident sohilda joylashgan o'ziga yaxshi tanish qahvaxonani tanimay qoldi – yashil matodan qilingan bostirmanini avvalboshdanoq yig'ishtirib olishgan, endi bo'lsa, gultuvaklar joylashtirilgan ayvonnini berkitayotgan edilar. Kuppa-kunduz bo'lishiga qaramay, zalda chiroqlar yonib turardi, cholg'uchilar allaqachon Motsart kuylarini ijro etishga kirishgandilar. Prezident peshtaxtada mijozlarga atab qo'yilgan gazetalardan bittasini oldi, hassasi va shlapasini ilgichda qoldirdi, stulga o'tirib o'qishga chog'lanarkan, tilla gardishli o'zoynagini taqdi va shundagina kuz kirganini tushuni. U xalqaro sahifadan boshlab o'qiy boshladi. Bu yerda Lotin Amerikasi mamlakatlari haqidagi xabarlar juda kam edi. U ofitsiant qiz, odatdagidek, unga bir shisha „Evian“ mineral suvi keltirguncha, shu tariqa oxirgi sahifadan to birinchi sahifagacha o'qiyverdi. Mana, o'ttiz yil bo'libdiki, u vrachlar tayinlagani uchun qahva ichish odatidan voz kechgan. Lekin o'ziga o'zi: „Qachon o'lishimni aniq bilganimdan keyinoq yana qahva ichishni boshlayman“, derdi. Ehtimol, o'sha vaqt kelgan ham bo'lsa kerak.

– Menga qahva ham keltirsangiz, – deb buyurdi u fransuzchani qoyillatib. Tortinmay qochirim ham qilib qo'ydi, – o'liklarni ham tiriltiradigan italyancha xilidan bo'lsin.

U qahvani shakar aralashtirmasdan, qultumlab uzoq ichdi, so'ngra finjonni taqsimchaga to'nkardi. Necha yillardan beri qilmagan ishini qilib, qahva quyqasiga qarab, taqdirida nimalar borligini bilmoqchi bo'ldi. Qahvaning tanish mazasini yana his qildi, bir lahzaga og'ir xayollardan chalg'idi. Ko'p o'tmay, xuddi o'sha afsungarlik davom etayotganday, kimdir unga tikilib turganini his qildi.

U go'yo bexosdan qilganday sahifani ag'dararkan, ko'z-oyinak ustidan qaradi va sportchilar qalpog'i, ag'darma teri kurtka kiyib olgan, soqoli olinmagan rangpar yigitni ko'rdi. Yigit ko'zlari to'qnash kelmasligi uchun shu zahotiyoq boshqa tomonga qaradi.

Uning yuzi tanish edi. Ular kasalxona ayvonida bir necha bor to'qnash kelishgandi. Bundan tashqari, oqqushlarni tomosha qilib o'tirganida, bu yigitning Promenad-dyu-Lak ko'chasidan yengil mototsikl haydab o'tganini ko'rgandi. Lekin biron marta bu yigit uni tanishini his qilmagan edi. Biroq u shunchaki xomxayolga, quvg'in tufayli paydo bo'lgan ta'qib vasvasasiga berilgan bo'lishi ham ehtimoldan yiroq emasdi.

U Bramsning nafis kuylaridan huzurlanib, og'riq musiqaning ta'sir kuchidan ustun chiqqunga qadar shoshilmay gazeta o'qidi. Shundagina u nimchasining cho'ntagida olib yuradigan zanjirli oltin soatini olib qaradi va tush payti ichishi lozim bo'lgan ikkita hapdorini „Evian“ning qolgan-qutgan qultumi bilan yutdi. Ko'zoynagini olishdan oldin u qahva quyqasiga qarab, fol ochmoqchi bo'ldi va seskanib ketdi: tamoman mavhum!

Nihoyat, hisob-kitob qildi, gadoga berayotganday ozgina choychaqa tashladi, ilgichdan hassasi va shlapasini olib, ko'chaga chiqdi. Orqasidan kuzatayotgan odamga qayrilib ham qaramadi. U shaxdam qadamlar bilan nari ketdi, shamolda singan gultuvaklarni aylanib o'tdi va shayton vasvasasidan qutilishga muvaffaq bo'ldim, deb o'yladi. Biroq orqasidan kimdir kelayotganini qo'qqisidan sezdi: muyulishga qayrildi, to'xtadi va xiyol o'girildi. Ta'qib qilib kelayotgan kishi unga urilib ketmaslik uchun birdan to'xtadi va shundoqqina ro'parasida turgan prezidentga baqraygancha qarab, qo'rquvdan qotib qoldi.

– Sinor prezident, – g'uldiradi u.

– Sizni yollaganlarga borib ayting, xomxayolga berilib yurmasinlar, – dedi prezident jilmaygancha maftunkor ovozda. – Sog‘lig‘im a‘lo.

– Buni mendan yaxshiroq biladigan odamning o‘zi yo‘q, – dedi notanish kishi prezidentning salobati ostida eziilib. – Men kasalxonada ishlayman.

Uning lahjasi ham, so‘zlash ohangi ham, hatto, jur‘at-sizligi ham sof karibcha edi.

– Nahotki vrach bo‘lsangiz? – so‘radi prezident.

– Hali bunga yetti qovun pishig‘i bor, – dedi yigit. – Men „Tez yordam“ shofyoriman.

– Hamdardlik bildiraman, – dedi prezident yanglishganiga ishonch hosil qilib. – Ko‘p og‘ir ish.

– Siznikichalik og‘ir emas, senor.

Prezident uning ko‘zlariga tik qaradi, ikkala qo‘li bilan hassasiga suyandi va samimiy qiziqish bilan:

– Siz qayerdansiz?

– Karibdanman.

– Buni allaqachon sezdim, – dedi prezident. – Qaysi mamlakatdan?

– Sizning mamlakatingizdan, senor, – dedi yigit va qo‘lini uzatdi. – Mening ismim Omero Rey.

Hayratga tushgan prezident uning qo‘lini qo‘yib yubormay, so‘zini bo‘ldi:

– Jin ursin! Bu qanday sharafli ism!

Omero tin oldi.

– Bu hali hammasi emas, – dedi u. – Omero Rey-de-le-kasa¹. Ko‘cha o‘rtasida ochiqda qolgan suhbatdoshlarimizni izg‘irin zabtiga oldi. Prezident suyak-suyagigacha qaqshab ketdi va paltosi bo‘lmagani uchun ikki kvartal naridagi arzon oshxonaga piyoda yetib borishga kuchi

¹Homer xonadon Qirol (ispan.).

yetmasligini tushundi. U, odatda, o'sha yerda ovqatlanardi.

– Tushlik qildingizmi? – deb so'radi Omerodan.

– Men hech qachon tushlik qilmayman, ~ javob berdi Omero. – Faqat bir marta, kechqurun uyda ovqatlanaman.

– Bugun istisno qila qoling, – dedi prezident, imkon qadar samimiylilik bilan. – Sizni birga ovqatlanishga taklif qilaman.

Shunday dedi-yu, uni qo'ltiqlagan cha ko'chaning narigi tomonidagi restoranga boshladi. Restoranning kanop pesh-toqiga „Le Boeuf Souronne“¹ degan nom zarhal harflar bilan yozilgan edi. Ichkari tirband va issiq, aftidan, bironta ham bo'sh joy qolmagandi. Prezidentni hech kim tanimayotganiga hayron qolgan Omero ko'mak istab, zal to'riga yo'naldi.

– Amaldagi prezidentmi? – deb so'radi restoran xo'jayini.

– Yo'q, – deb jovob berdi Omero. – Ag'darilgani.

Xo'jayin ma'qullash ohangida kulimsiradi.

– Bundaylar uchun, – dedi u, – men doim joy olib qo'yaman.

Xo'jayin ularni zalning uzoq burchagiga o'tqazdi. Bu yerda ular xohlagan cha suhbatlashib olishlari mumkin edi. Prezident xo'jayinga minnatdorchilik bildirdi.

– Quvg'indagilarni sizga o'xshab hurmat qilish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi, – dedi u.

Ko'mir cho'g'ida pishirilgan buqa qovurg'asi restoranining xos taomi edi. Prezident va mehmoni atrofqa qarab stollarning ustida nafis yog'ga belangan katta go'sht bo'laklarini ko'rishdi. „Zo'r go'sht, – g'udrandi prezident. – Lekin uni yeyish menga taqiqlangan-da“. So'ng, Omeroga diqqat bilan tikilib, endi boshqacha ohangda dedi:

¹ „Tojdor buqa“ (fran.).

– To‘g‘risini aytganda, menga hamma narsa taqirlangan.

– Sizga qahva ham man qilingan, – dedi Omero, – lekin, shunday bo‘lsa-da, qahva ichyapsiz-ku.

– Ko‘rib qoldingizmi – dedi prezident. – Lekin bu istisnoli bir kun deb qilingan istisno edi.

Bu kun faqat qahva uchun istisno qilingani yo‘q. U buqa qovurg‘asi, faqat zaytun moyi solingan yangi sabzavot salati buyurdi. Uning mehmoni ham shularni va yana yarim ko‘za qizil sharob keltirishlarini iltimos qildi.

Go‘sh t kelguncha Omero cho‘ntagidan ichi pul emas, turli qog‘ozlarga to‘lib ketgan hamyonini chiqardi va prezidentga sarg‘ayib ketgan bir fotosuratni ko‘rsatdi. Prezident o‘zini tanidi: u yengil kalta ko‘ylakda, hozirgidan bir necha funt ozg‘inroq, sochi va mo‘ylovi hozirgidan ancha qora, nima qilib bo‘lsa ham suratga tushishga uringan yosh yigitlar qurshovida turardi. U bu joyni darhol tanidi, o‘sha la‘nati saylovoldi kompaniyasining ramzini va o‘sha baxtsiz kunni ham esladi. „Jin ursin, – deb g‘uldiradi u. – Men hamisha odam hayotdagiga qaraganda suratda tezroq qariydi deb aytardim“. So‘ngra fotosuratni, hamma narsaga chek qo‘ygan odamdek, keskin harakat bilan egasiga qaytardi.

– Juda yaxshi eslayman, – dedi u. – Bu ming yillar oldin San-Kristobal-de las-Kasas degan ovulda bo‘lgandi.

– Bu mening ovulim, – dedi Omero va suratdan o‘zini ko‘rsatdi. – Mana bu menman.

Prezident uni tanidi.

– Hali bolakay ekansiz!

– Shunday desa bo‘ladi, – dedi Omero. – Men janub safarida doim sizning yoningizda yurgandim, universitet brigadalariga rahbarlik qilgandim.

Prezident ta‘naning oldini oldi:

– Men bo‘lsam, albatta, sizga e‘tibor qilmaganman, – dedi u.

– Aksincha, siz bizga juda yaxshi munosabatda bo‘lgansiz. Endi, biz ko‘pchilik edik, hamma esda qolmaydi.

– Undan keyin-chi?

– Buni mendan yaxshiroq biladigan bormi? – dedi Omero. – Harbiy to‘ntarishdan keyin siz bilan bu yerda buqaning yarmini yemoqchi bo‘lib turganimizning o‘zi bir mo‘jiza. Bunaqa omad hammaga ham kulib boqqani yo‘q.

Ularga likopcha keltirishdi. Prezident, xuddi bolalar-day, bo‘yniga sochiq osdi va mehmonlarning sal-pal hayron qolganini sezdi. „Shunday qilmasam, har gal ovqatdan keyin bir galstukdan kechishga to‘g‘ri keladi“ – g‘ulduradi. Taomga qo‘l urushdan oldin go‘sht pishgan-pishmaganini tekshirib ko‘rdi, so‘ng ma‘qullab, bosh irg‘adi va mavzuga qaytdi.

– Lekin bir narsani tushunolmayotirman, – dedi u. – Mening ortimda ayg‘oqchiday izg‘ib yurmay, nega oldinroq ro‘para bo‘lmadingiz?

Shunda Omero prezident kasalxonaning alohida hollarida ochiladigan eshigidan kirgan zahotiyoq uni taniganini aytdi. Yoz avjida edi. Prezidentning egnida oppoq kanop kastum, oyog‘ida oq-qora tufli, kamzulining qaytarma yoqasida dastorgul, chiroyli sochlarini shamol to‘zg‘itib yuborgandi. Omero prezident Jenevada yolg‘iz ekanini, unga hech kim yordam bermayotganini, Jenevani yuristlikka o‘qigan vaqtlaridan buyon besh qo‘lday bilishini bilib oldi. Kasalxona direksiyasi, prezidentning iltimosiga ko‘ra, unga maxfiylikni ta‘minlash uchun tegishli farmoyish bergandi. O‘sha oqshomda xotini bilan maslahatlashib olgan Omero prezident bilan uchrashishga qaror qildi. Shunday bo‘lsa-da, qulay fursatni kutib, orqasidan rosa besh hafta poylab yurdi, ehtimol, agar prezidentning o‘zi

u bilan yuzma-yuz bo'lganda, salomlashishga ham yuragi betlamay yuravergan bo'lardi.

– Shunday qilganimdan xursandman, – dedi unga prezident. – Lekin, to'g'risini aytganda, yolg'izlik meni ezolmaydi.

– Bu adolatdan emas.

– Nega? – chinakamiga hayron bo'ldi prezident. – Meni unutishlariga erishganim – hayotimdagi eng katta g'alabamdir.

– Biz sizni siz o'ylagandan ko'proq eslaymiz, – dedi Omero hayajonini yashirmay. – Sizni mana shunday sog'lom va yosh ko'rib turganimizning o'zi katta gap.

– Holbuki, – dedi prezident bamaylixotir, – hamina narsa yaqinda o'lishimdan dalolat bermoqda.

– Axir, siz har qanday vaziyatdan chiqa olasiz-ku, – dedi Omero

Prezident hayratdan sapchib tushdi, bu harakatni u juda nafislik bilan qildi.

– Jin ursin! – xitob qildi prezident. – Nima, go'zal Shveysariyada vrachlarning sir saqlash qoidasi bekor qilinganmi?

– Dunyoning bironta kasalxonasida tez yordam shofyorining bilmaydigan siri yo'q, – dedi Omero.

– Buni atigi ikki soat oldin bu gapni bilishi lozim bo'lgan yagona odamdan eshitdim.

– Nima bo'lgandayam, siz bekorga o'lib ketmaysiz, – dedi Omero. – Sizni yuksak shon-sharaf namunasi sifatida munosib o'ringa qo'yadiganlar topiladi.

Prezident o'zini hayratlanganga soldi.

– Tasalli uchun rahmat, – dedi u.

U ovqatni, hamma ishlarini qanday qilsa shunday, shoshilmay yeyayotgandi va tanovul qilarkan, Omeroning ko'zlariga tik boqardi. Bundan Omeroga prezident uning fikrla-

rini ko'rib bilib turganday tuyulardi. Qo'msashdan iborat xotiralarga to'la uzoq suhbat so'ngida prezidentning yuzida masxaraomuz tabassum zohir bo'ldi.

– Men jasadimning qismati haqida, tashvish tortmaslik haqida bir qarorga kelganday bo'luvdim, – dedi u. – Lekin endi ko'ryapmanki, murdamni hech kim topolmasligi uchun detektiv romanlarda yozilganiga o'xshatib, ba'zi ehtiyot choralarini ko'rishingga to'g'ri keladi, shekilli.

– Befoyda, – deb g'uldiradi Omero. – Kasalxonalarda bir soat o'tmay, oshkora bo'lmaydigan birorta sir yo'q.

Qahvani ichib bo'lishgandan keyin prezident finjon tubida qolgan quyqaga nazar soldi va yana seskandi: quyqadan yana o'sha majhul ma'no chiqqan edi. Shunday bo'lsa-da, pinagini buzmadi. U naqd to'ladi, lekin oldiniga hisobni bir necha bor tekshirib ko'rdi va pulni diqqat bilan qayta-qayta sanadi. Shunchalik arzimagan choy-chaqa be diki, ofitsiant qovog'ini solib, to'ng'illab qo'ydi.

– Men haqiqatan ham juda maza qildim, – dedi u yakunida Omero bilan xayrlasharkan. – Operatsiya qachon bo'lishini hozircha bilmayman, operatsiya qildirishga jur'atim yetadimi, yo'qmi, buni ham hozircha bilmayman. Lekin hammasi yaxshi o'tsa, biz yana ko'rishamiz.

– Nega undan oldinroq emas? – so'radi Omero. – Xotining Lasara boylarnikida oshpazlik qiladi. Qisqichbaqali guruch taomini hech kim unchalik zo'r pishira olmaydi. Bir kuni kechki payt mehmonimiz bo'lishingizni biz juda xohlaymiz.

– Dengiz ne'matlari menga man etilgan, lekin shunday bo'lsa-da, zo'r mamnuniyat bilan yegan bo'lardim, – dedi u. – Qachon borishim kerak?

– Payshanba kuni bo'shman, – dedi Omero.

– Juda zo'r, – dedi prezident. – Payshanba kuni kechki soat yettida siznikiga kelaman. Mamnuniyat bilan.

– Sizni opketgani kelaman, – dedi Omero. – Manzilingiz Otelari Damedagi Industri ko‘chasi, o‘n to‘rtinchi uyda. Vokzal ortida. To‘g‘rimi?

– To‘g‘ri, – dedi prezident va tavoze bilan o‘rnidan turdi. – Ko‘ryapmanki, hatto, tufilinning razmerini ham bilasiz.

– Albatta, senor, – dedi Omero mamnun bo‘lib, – qirq birinchi.

Lekin Omero Rey prezidentga bir gapni aytmadi. Keyinchalik u uzoq yillar mobaynida eshitgisi kelgan har bir kishiga bu gapni takrorlab yurdi: dastlab uning niyati unchalik yaxshi bo‘lmagandi. Kasalxonaning barcha haydovchilari singari, u dafn idoralari va sug‘urta kompaniyalari bilan bemorlar, ayniqsa, kambag‘al ajnabiylar haqida kelishib qo‘ygan edi. Bundan keladigan daromad aytishga arzigulik emasdi, buning ustiga bu pulni og‘ir bemorlar to‘g‘risidagi maxfiy ma‘lumotlarni og‘izdan og‘izga yetkazadigan boshqa xizmatchilar bilan baham ko‘rishga to‘g‘ri kelardi. Lekin, shunga qaramay, hech qanday istiqboli yo‘q, xotini hamda ikki bolasi bilan arzimagan maoshga amal-taqal qilib kun kechiradigan qochoq uchun bu biroz madad edi.

Uning xotini Lesara Devis ancha tadbirli edi. U San-Xuandan chiqqan tipik Puerto-Rikolik duragay ayol bo‘lib, to‘ladan kelgan, past bo‘yli, terisi jigarrang, quturgan kuchuknikiga o‘xshagan ko‘zlari fe‘l-atvoriga juda mos edi. Ular bemorlar shafqat yuzasidan tekin davolanadigan bo‘limda tanishgandilar. Qizni vatandoshi bo‘lgan bir sudxo‘r Jenevaga enagalik qilishga olib kelgan, keyin tashlab ketgandi. Shundan keyin u navbatchi sanitar bo‘lib ishga kirgan edi. Garchi qiz Yoruba qabilasiga mansub malika bo‘lsa-da, ular katolik marosimiga ko‘ra turmush qurishgandi. Ular afrikalik muhojirlar yashaydigan liftsiz to‘qqiz

qavatli uyning sakkizinchi qavatida joylashgan ikki xona va bir mehmonxonadan iborat xonadonda istiqomat qilishardi. Ularning to'qqiz yoshli Varvara ismli qizi, yetti yashar Lasaro ismli o'g'li bo'lib, o'g'lida aqliy zayiflik alomatlari bor edi.

Lasara Devis aqlli, badfe'l, lekin botinan mushfiq ayol edi. U o'zini aniq-tiniq Buqa burjiga mansub deb hisoblar va yulduzlar bashoratiga ko'r-ko'rona ishonardi. Biroq uning millionerlarga fol ochib pul ishlash orzusi amalga oshmagandi. Aksincha, u boyvuchcha xonimlarga taom pishirib, tasodifan ishlab topgan pullari hisobiga ro'zg'or tebratardi. Ba'zan bu daromadlar tuzukkina bo'lardi. Bu boyvuchchalar mehmonlarni ishtaha qitiqlovchi antiqa ovqatlar bilan siylashar, ularni o'zim pishirganman deb maqtanar edilar. Omero risoladagidan chetga chiqmaydigan tortinchoq odam bo'lib, qilayotgan ishidan boshqa narsa qo'lidan kelmasdi. Shunday bo'lsa-da, Lasara hayotini usiz tasavvur qilolmas, pokiza qalbli erini qadrlar edi. Yil o'tgan sayin hayot og'irlashib borayotgan, bolalar voyaga yetayotgan bo'lsa-da, qiyinchiliklarga qaramay, ular totuvlikda yashardi. Prezident paydo bo'lgan vaqtga kelib, ular besh yil davomida yiqqan pullarini oz-ozdan sarflashga kirishgan edilar. Shuning uchun ham Omero Rey prezidentni kasalxonada maxfiy kasallar orasida ko'rdi deguncha, ishtahalari karnay bo'lib ketgandi.

Ular prezidentdan bu ishni qanday va qaysi huquqqa, asosan, iltimos qilishlarini aniq bilmasdi. Avvaliga jasadni mo'miyolash va Vatanga jo'natishni ham hisobga olgan holda butun dafn ishlarini taklif qilmoqchi bo'lishdi. Asta-sekin prezident dastavval tuyulganidek, tez orada o'lmasligini tushunishdi. Mehmonga chaqirishgan kuni ular gumonlar girdobida qolgandi.

To'g'risini aytganda, Omero universitet brigadalari-

ning boshlig'i bo'lmagandi, bunaqa gap asti bo'lmagan ham, saylov kompaniyasida ham bir marta, mana shu fotosurat olingan kuni ishtirok etgan edi. Fotosuratni javonda qalashib yotgan eski qog'ozlar orasidan zo'rg'a qidirib topishgandi. Lekin uning hissiyotlari qizg'in va samimiy edi. U haqiqatan ham harbiy to'ntarishga qarshi ko'chalaridagi namoyishlarda qatnashgani uchun mamlakatdan qochishga to'g'ri kelgan, lekin Jenevada bunchalik uzoq yashashning sababi bor-yo'g'i quyonyurakligi edi, xolos. Yol'gon kattaroq bo'ladimi, kichikroq bo'ladimi, nima arqi bor, prezidentning mehrini qozonsa bo'ldi-da.

Har ikkalasi uchun ham birinchi kutilmagan yangilik: mashhur qochoq, ko'rimsiz Grott dahasidagi to'rtinchi toifa mehmonxonada osiyolik muhojirlar va fohishalar orasida yashar hamda arzon oshxonalarda ovqatlanardi. Vaholanki, quvg'inga uchragan siyosatchilar uchun Jenevada munosib rezidensiyalar tiqilib yotibdi. Omero prezident ular tanishgan kunda nima qilgan bo'lsa, har kuni shunday qilganini o'z ko'zi bilan ko'rdi. Prezident eski shaharning vahimali, sariq qo'ng'iroqgullar chirmashgan devorlari orasida qiladigan sayrlarida Omero uni kuzatib borar, ba'zan ehtiyotsizlik qilib, masofani qisqartirib qo'yardi. U prezidentning Kalvin haykali poyida soatlab o'yga cho'mib turishlarini ko'rdi. Uning orqasidan yasminlarning issiq bo'yidan nafasi tiqilay-tiqilay deb, tosh zinapoyalardan Bur-de-Fur tepaligiga qadam-baqadam ko'tarilar, yozgi quyoshning asta-asta botishini tomosha qilardi. Bir kuni kechki payt uni paltosiz va shamsiyasiz, yomg'ir ostida Rubinshteyn konsertiga билет olmoqchi bo'lib turgan talabalar orasida ko'rdi. „Shamollab qolmaganiga hayronman“, dedi Omero xotiniga. Yaqinda havo ayniy boshlagan shanba kuni prezident quvg'indagi amirlar savdo qiladigan Ryu-de-Ron ko'chasidagi hashamatli magazindan emas, balki eski-tuski bozoridan sun'iy

mo'yna yoqali eski palto sotib olganini ko'rdi.

– Demak, bosh qotirib o'tirishning keragi ham yo'q! – Xitob qildi Lasara Omero bu haqda so'zlab berarkan. – O'taketgan qurumsoq ekan. U o'zini davlat hisobiga umumiy mozorda dafn qildirsa kerak. Biz hech qachon undan bir chaqa ham undira olmaymiz.

– Balki, u haqiqatan ham qashshoqdir! – dedi Omero. – Necha yillardan beri ishsiz!

– Men senga shuni aytayki, baliq burji ostida tug'ilgan kishilarning hammasi ham unga o'xshab suvdan quruq chiqishni eplay olmaydi, – dedi Lasara. – Davlatning oltinlarini o'marib ketganini va Martinikadan chiqqan eng boy odam ekanini hamma biladi.

Xotinidan o'n yosh katta bo'lgan Omero prezident Jenevada o'qigan vaqtlari qurilishda oddiy ishchi bo'lib ishlaganini bilar va shu taassurot ostida o'sib-ulg'aygandi. Lasara esa, aksincha, prezidentga dushman bo'lgan matbuotning shov-shuvli fosh etishlari muhitida o'sib katta bo'lgandi. Bu shov-shuvlar u yoshligidan enaga bo'lib ishlagan prezident dushmanining xonadonida yanada bo'rttirilardi. Shuning uchun ham Omero prezident bilan ovqatlanganidan boshi ko'kka yetib qaytgan kuni prezidentning Omeroni qimmat restoranga taklif qilgani Lasara uchun asosiy narsa bo'ldi. Omeroning o'zlari orzu qilgan narsalarning birortasi – na bolalar uchun nafaqa, na o'zi uchun kasalxonada tuzukroq ish so'ramagani unga ma'qul bo'lmadi. Lasaraning gumonlari to'g'ri bo'lib chiqdi: prezident mullajiringlarini jasadini munosib tarzda dafn qilish uchun shon-sharaf bilan vataniga qaytarishga sarflashdan ko'ra, murdasini quzg'unlarga tashlashlarini afzal ko'radi, shekilli. Omero gapning so'ngiga asrab qo'ygan xabar – prezidentni payshanba kuni qisqichbaqali guruch tanavul qilishga taklif etgani Lasaraning sabr

kosasini toshirib yubordi.

– Bizga shu yetmay turuvdi, – bo‘kirdi Lasara, – qisqichbaqa konservasidan zaharlanib shu yerda o‘lib qol-sa va bolalarga asrab qo‘ygan arzimagan pulimizni uni ko‘mishga sarflamasak go‘rga edi.

Shunday bo‘lsa-da, bekalik burchiga sodiq qoldi. Qo‘shni ayoldan uchta melxior qoshiq-pichoq, shisha salatdon, boshqasidan elektr qahva qaynatgich, uchinchisidan kashtali dasturxon va xitoycha qahva finjonlari olib turishga to‘g‘ri keldi. U eski pardalarni yangisiga almashtirdi, holbuki, ularni faqat bayram kunlari osarli. Mebellarning g‘ilofini tashladi. Kun bo‘yi pollarni yuvib tozaladi, changlarni artdi, narsalarni u yoqdan bu yoqqa surdi. Xullas, oxir-oqibat natija niyatining tamomila teskarisi bo‘lib chiqdi, vaholanki, u halolligi uchun kambag‘al yashashlarini ko‘z-ko‘z qilib, prezidentning ko‘nglini yumshatmoqchi edi.

Payshanba oqshomi eski palto va urfdan qolgan shlapa kiyib olgan, qo‘lida Lasaraga atalgan atirgul ushlagan prezident sakkizinchi qavatga ko‘tarilib, nafasini rostlab olgach, ostonada hozir bo‘ldi. Lasara uning mardonavor qiyofasi va o‘zini zodagonlarga xos tutishidan hayratda qoldi, lekin baribir uni qanday xohlagan bo‘lsa, shunday ikkiyuzlamachi va yirtqich deb topdi. Prezident unga qo‘pol, beandisha bo‘lib ko‘rindi, chunki ovqat pishirarkan, uyni qisqichbaqa hidi tutib ketmasin deb, oynalarni lang ochib qo‘ygandi, u bo‘lsa, ostonadan hatlar-hatlamas, go‘yo to‘satdan hayratga tushganday ko‘zlarini yumdi va qo‘llarini yozib: „Oh, dengizimizning bo‘ylari!“ deya xitob qildi. U Lasaraga xasislarning xasisi bo‘lib tuyuldi, chunki atigi bir dona atirgul keltirgan edi. Uniyam, albatta, jamoat bog‘idan o‘g‘irlagan. U takabbur bo‘lib tuyuldi, chunki uning sobiq shon-shuhrati haqidagi gazeta

qiyqimlarini, saylovoldi kompaniyasi vimpellari va bayroqchalarini nafrat bilan ko'zdan kechirdi. Ularni Omero soddalik bilan mehmonxona devorlariga osib chiqqandi. U Lasaraga bag'ritosh bo'lib tuyuldi, chunki o'z qo'llari bilan prezidentga sovg'a tayyorlagan Barbara va Lasaro bilan hatto salomlashgani ham yo'q, buning ustiga ovqat payti gap orasida ikki narsa – itlar va bolalarga toqati yo'qligini qistirib o'tdi. Lasara uni yomon ko'rib qoldi. Biroq, karibcha tug'ma mehmondo'stlik taassuf ustidan ustun chiqdi. Lasara bayramlarda kiyiladigan afrikacha keng va uzun choponini egniga ildi, o'zining bor muqaddas taqinchoqlari, bilakuzuklarini taqdi, dasturxon ustida bironta ortiqcha qiliq qilmadi, ortiqcha gap aytmadi. U faqat bekam-u ko'stlik emas, balki baayni mukammalik timsoli edi.

To'g'risini aytganda, qisqichbaqali guruch uning oshpazlik san'atining shoh asari emasdi, lekin u bor hunarini ishga soldi va, natijada, taom juda zo'r bo'lib chiqdi. Prezident, garchi uy egalarining qo'msash to'la xotiralariga qo'shilmasa-da, maqtay-maqtay likopchasini ikki marta guruchga to'ldirdi, yetilgan bananlar, qovurilgan bo'laklar va ovakado salatidan boshi osmonga yetdi. Lasara shirinlikka gal kelguncha va Omero Parvardigor barhaqligi masalasining mohiyatiga yetib bormasidanoq butunlay chalkashib qolgunga qadar sabr bilan tingladi.

– Men Xudoning borligiga ishonaman, – dedi prezident, – lekin u odamlarning ishiga aralashmaydi. Uning o'z ishlari bor.

– Men bo'lsam, faqat yulduzlarga ishonaman, – dedi Lasara prezidentning yuzida zohir bo'lgan qiziqishdan boshi osmonga yetib. – Tug'ilgan kuningiz qachonligini ayting.

– O‘n birinchi mart.

– O‘zim ham shunday deb o‘ylagandim, – dedi Lasara shodon ovozd va tavoze bilan so‘radi: – Bir dasturxon ustida ikkita baliq ko‘plik qilmasmikan?

Erkaklar Xudo to‘g‘risidagi suhbatni davom ettirdilar, Lasara qahva qaynatish uchun oshxonaga ketdi. Dasturxondagi ovqat qoldiqlarini u allaqachon yig‘ishtirib olgan va mehmondorchilik yaxshilik bilan tugashini juda xohlayotgandi. U qahvani ko‘tarib mehmonxonaga kirar ekan, suhbat davomida prezident aytgan gapdan qotib qoldi.

– Hech shubhalanmang, aziz do‘stim, agar men yana prezident bo‘lsam, badbaxt mamlakatimiz uchun eng katta falokat bo‘lardi.

Omero xitoy finjonlari va qarzga olingan qahva qaynatkichni ko‘targancha ostonada qotib qolgan Lasarani ko‘rdi va u hozir hushidan ketib yiqilsa kerak deb o‘yladi. Prezident ham ayolga qarab qo‘ydi.

– Menga bunaqa qaramang, senora, – dedi u yumshoq-qina qilib. – Men samimiy gapiryapman. So‘ng Omeroga o‘girilib, so‘zini yakunladi: – Tentakligim bois mana shunday kunlar boshimga tushgani ko‘p yaxshi bo‘ldi.

Lasara qahvani tarqatdi, yorug‘lik suhbatga xalaqit bermasligi uchun, stol ustidagi chiroqni o‘chirdi. Mehmonxonaga farahbaxsh g‘ira-shira qorong‘ilik cho‘kdi. Nihoyat mehmon Lasarada qiziqish uyg‘otdi. Gapga chechanligi uning qayg‘u-hasratini pardalay olmayotgandi. Prezident qahvani ichib bo‘lgach, finjonni likopchaga to‘nkarib qo‘yganida Lasaraning qiziqishi yanada ortdi.

Shirinlikni tanovul qilishgach, prezident ularga quvg‘inda yashash uchun nega Martinikani tanlaganini aytib berdi: chunki u shoir Emey Sezer bilan do‘st edi – u o‘sha

kunlari „Cahir d'un retour au pays natal“¹ kitobini chop ettirgan va yangi hayot boshlashi uchun prezidentga yordam qilishi mumkin edi. Xotiniga qolgan meros pullariga ular For-dey-Frans tepaligidagi qimmatbaho yog'och uyni sotib olishdi. Uyning derezalariga simto'r tutilgan, dengizdan yoqimli shabada esgan, stol ustida shakarqamish romiga to'la stakan turgan, chirildoqlar sayrayotgan vaqtlarda dengizga qaragan va jo'n gullarga to'la ayvonda mudrash juda orombaxsh edi. U bu yerda o'zidan o'n to'rt yosh katta bo'lgan, bor-yo'g'i bir marta tuqqan va o'shandan buyon kasal xotini bilan azaliy nuqsoni – lotin klassiklarini originalda o'qish bilan taqdirdan qochib, o'z umrini oxirgi, yakuniy bosqichini boshidan kechirayotganiga ishonib yashardi. Ko'p yillar davomida sanoqsiz vasvasalarga qarshi bardosh berishga to'g'ri keldi. Tor mor qilingan tarafdorlari unga qanday qaltis avantyuralarini taklif qilishmadi.

– Men bironta maktubni ochib ko'rganim ham yo'q, – dedi u. – Eng shoshilinch narsalar bir haftadan keyin unchalik shoshilinch bo'lmay qolishi, ikki oydan so'ngra esa, xatto, bu xabarni yozgan kishilar ham uni unutishlarini tushunib yetganimdan so'ng bu maktublarni biron marta ochganim yo'q.

U olov shu'lasida Lasaraga qaradi. Ayol chekayotgan edi va u ochko'zlarcha sigaretni tortib oldi. Qattiq tortdi va tutunni tomog'ida ushlab turdi. Hayron bo'lgan Lasara sigaret qutisi va gugurtni olib, yangisini tutatmoqchi bo'ldi, lekin u sigaretni qaytarib berdi.

– Siz shunday huzurlanib chekyapsizki, nafs qutqusiga bas kelolmadim, – dedi u. Shunday derkan, tutunni chiqarishga to'g'ri keldi va yo'tal tutdi. – Bu qusurdan ko'p yillar oldin voz kechgandim, lekin u mendan kechgani

¹ „Vatanga qaytish kundaliklari“ (fran.).

yo'q, – deb qo'ydi u. – Ko'pincha u g'olib keladi. Xuddi hozirgiday.

Yo'taldan uni bir necha bor qaltiroq tutdi. Og'riq paydo bo'ldi. Prezident chog'roqqina cho'ntak soatiga qaradi va oqshomgi ikkita xabdorisini ichdi. So'ngra qahva finjoni tubini diqqat bilan tekshirdi: yana hech narsa o'zgar-magan, biroq u endi seskanmadi.

– Sobiq tarafdorlarimning ba'zilari mendan keyin prezident bo'lishdi, – dedi u.

– Sayago, – dedi Omero.

– Sayago va boshqalari, – dedi u. – Hammasi menga o'xshab munosib bo'lmagan sharafni, eplay olmaydigan lavozimga qo'shib tortib olishdi. Ayrimlari faqat hokimi-yatga, ko'pchilik bo'lsa bundan ham kamrog'iga, mansab-ga intilishdi.

Lasaraning jahli chiqdi.

– Siz haqingizda nimalar deyishlaridan xabaringiz bor-mi? – deb so'radi undan.

Cho'chib ketgan Omero gapga aralashdi.

– Bu gaplarning hammasi yolg'on.

– Ham yolg'on, ham rost, – dedi prezident bamaylixo-tir. – Prezident haqida gap borganida eng dahshatli ig'vo ayni vaqtda unisi ham bunisi ham: rost ham, yolg'on ham bo'lishi mumkin.

Quvg'inlik yillarida u rasmiy gazetalaridagi kamchil ma'lumotlarni hisobga olmaganda, tashqi dunyo bilan hech qanday aloqa qilmasdan, Martinikada yashadi. Kun ko'rish uchun davlatga qarashli litseyda ispan tilidan dars berdi, goh-goh Emey Sezer berib turgan narsalarni tar-jima qildi. Avgust oyining issig'iga chidab bo'lmasdi, u yotoqxonasidan chiqmay, osma to'r belanchakda peshin-gacha shamolparrakning bir maromdagi shovqini ostida o'qib yotardi. Quyoshdan saqlanish uchun sun'iy meva-

lar va gullar bilan bezatilgan, ayvoni keng somon shlapa kiyib olgan xotini, xatto, kunning eng jazirama pallasida ham erkin qushlarni boqish bilan shug'ullanardi. Jazirama susaygan vaqtlari salqin ayvonda o'tirish rohat bo'lardi. U qosh qoraygan pallada qimirlamay dengizni, yirtiq shlapa kiygan, barcha barmoqlariga yirik toshli uzuklar taqib olgan xotini esa, tebranma to'r kursiga yastangan cha yonlaridan suzib o'tayotgan jahon kameralarini tomosha qilardi. „Bu Poerto-Rikodan kelyapti, – deb qo'yardi u. – To'ldirib banan ortgani uchun zo'rg'a immillab kelayotgan bunisi bo'lsa, Poerto-Santodan“. Qadrdon o'lkasidan boshqa mamlakatlarning kemalari ham bu yerdan o'tishi mumkinligi uning xayoliga ham kelmasdi. Prezident hamma narsaga loqayd edi, lekin unutish borasida, har qalay, xotini undan ham o'tib tushdi, u xotirasini yo'qotdi. Quyosh botib, qosh qoraygunga qadar ular shunday o'tirishar, shundan keyin hasharotlar hujumidan qochib, uyga kirishardi. Ana shunday avgust kunlaridan birida gazeta o'qiyotgan prezident hayratdan sakrab turdi:

– Jin ursin, bu qanaqasi?! Men Estorileda o'lgan emishman!

Yaxshigina mudrayogan xotini qo'rqib ketdi. Shundoqqina biqinlarida, muyulishda bosiladigan gazetaning beshinchi sahifasida olti qator xabar bosilgan edi. Gazetada uning tarjimalari onda-sonda bosilib turar, gazeta mudiri goho ularni ziyorat qilib turardi. Endi shu gazetada uning Lissabonda, Estorileda vafot etgani haqida yozishgandi. Ehtimol, u o'lishini hecham xohlamaydigan yagona joy o'sha yer edi. Xotini esida qolgan yagona xotira – yakka-yu yolg'iz o'g'lining hasratida bir yildan keyin o'ldi. O'g'il otasini ag'darishda qatnashgan va keyinchalik ham-tovoqlari tomonidan otib tashlangandi.

Prezident tin oldi.

– Biz ana shundaymiz va taqdirdan qochib qutulib bo'lmaydi, – dedi u. – Qit'a dunyoning sevgi nimaligini yetti uxlab tushida ko'rmagan pastkashlaridan homilador, bolalar bo'lsa, hayvoniy yoki qaroqchilarcha zo'rvonlik, bir-birini asti ko'rolmaydigan dushmanlarning og'iz-burun o'pishishlari mevasidir.

U Lasaraning ayovsiz tilkalayotgan afrikacha ko'zlariga tik qaradi va ayolni o'zining sinovdan o'tgan qurolli – gapga chechanligi bilan maftun qilmoqchi bo'ldi.

– „Metislashtirish“, qorishtirish yoki chatishtirish degan so'z ko'zyoshi bilan qonni aralashtirishni anglatadi. Bunaqa qorishmadan nimani ham kutish mumkin?

Lasara miq etmadi, sukuti bilan uni o'tirgan joyiga mixladi. Biroq kechga yaqin o'zini bosib oldi va xayrlashuv oldidan uni tavoze bilan o'pib qo'ydi. Prezident Omeroni mehmonxonagacha kuzatib borishiga yo'l qo'ymadi, lekin taksi topishga yordam berishiga qarshilik ko'rsatmadi. Qaytib kelgan Omero xotiniining jahldan jig'ibiyron bo'lganini ko'rdi.

– Uni ag'darib juda to'g'ri qilishgan, – dedi xotini. – Borib turgan itvachcha.

Omero xotinini tinchitishga harchand urinmasin, kechani bedor o'tkazishdi. Lasara prezidentday kelishgan erkakni ko'rmaganini, u o'ta maftunkor va nasldor ayg'irga xos barcha sifatlarga ega ekanini e'tirof qildi. „Qari tullak va tinkasi qurigan bo'lishiga qaramay, hatto hozir ham yo'lbarsday kuchli bo'lsa kerak“, – dedi u. Biroq, uning fikriga qaraganda, Xudoning bu ne'matini u mug'ambirlik yo'lida isrof qilgan. Uning maqtanchoqligiga, go'yo, mamlakatning eng yomon prezidenti bo'lganman deyishiga toqat qilib bo'larmidi?! O'zini zohid qilib ko'rsatganiga nima deysiz, u Martinkadagi shakar fabrikalari yarmining egasi ekaniga Lasaraning imoni komil-

ku. Hokimiyatni yomon ko'raman, deb munofiq'larcha yolg'onladi, ko'rinib turibdi: dushmanlariga tuproq chaynatish uchun bir lahzaga bo'lsa-da, prezidentlikni qaytarib olish uchun borini beradi.

– Bularning hammasi, – deb xulosa qildi ayol, – bizni oyoqlari ostida ko'rish uchun, xolos.

– Bundan unga nima naf? – so'radi Omero.

– Hech qanday, – dedi Lasara. – Shunchaki noz-firoq – bu illatni to'ydirib bo'lmaydi.

U g'azabdan shu daraja quturgan ediki, Omero to'shakda qola olmadi va ko'rpaga o'ralib, divanda uxlab olish uchun mehmonxonaga ketdi. Uy ichida tungi ko'ylakda yurishga va uxlashga odatlangan Lasara ham tongga yaqin to'shakdan turdi, tungi ko'ylakda o'tirgancha, o'ziga o'zi uzundan uzoq so'zlandi. Nihoyat, vaqti kelganida u bu istalmagan ziyofatni, zarracha iz qoldirmay, xotirasidan butunlay sidi-rib tashladi. Ertalab qarzga olingan narsalarni egalariga qaytarib berdi, yangi pardalarni eskilariga almashtirdi, mebellarni o'z joyiga qo'ydi va uy yana kechagi oqshomgacha bo'lgan holatiga, munosib va faqirona ko'rinishga qaytdi. Pirovardida devorlardagi gazeta parchalari va fotosuratlarini, la'nati saylovoldi kompaniyasining bayroqlarini yulib oldi va hammasini axlat qutisiga uloqtirarkan, hayqirdi.

– O'lib ketsin!

Ziyofatdan bir hafta o'tgandan keyin Omero kasalxonaning chiqish eshigi oldida prezidentni ko'rdi. Prezident uni kutib turgan ekan. U Omerodan birga mehmonxonaga borishini iltimos qildi. Ular baland-baland uch qavatni bosib o'tib, yagona derezasi kulrang osmonga qaragan boloxonaga ko'tarilishdi. Xona bo'ylab tortilgan dorda yuvilgan kiyimlar osig'liq edi. Xonaning yarmini ikki kishilik karavot egallagan, bundan tashqari, stul, yuz yuvadigan jo'mrak, mo'jazzina bide va oynasi tutilgan oddiygina

javon ham bor edi. Prezident bularning hammasi Omeroga qanday ta'sir ko'rsatganini ko'rdi.

– Talabalik yillarim o'tgan uy xuddi shu, – dedi u go'yo kechirim so'raganday. – Men uni oldindanoq, hali For-de-Fransda ekanimdayoq ijaraga oldim.

U duxoba sumkadan qolgan-qutgan zaxiralarini, qimmatbaho toshlar bilan ziynatlangan bir nechta oltin bilaguzuk, uch qator dur shodasi, nodir toshli ikkita tilla zebigardon, avliyolar tasviri tushirilgan tilla zanjirli uchta medal, zumrad isirg'alar, bitta brilliant, bitta yoqut zirak, ikkita ladanli tumor, turli toshlari bo'lgan o'n bitta uzuk, ehtimol, qirolichaniki bo'lgan brilliant tillaqoshni olib, to'shak ustiga yoydi. Keyin maxsus g'ilofdan uch juft kumush zaponka, galstukka qadaladigan ikki juft oltin to'g'nog'ich, yana oq oltin suvi yuritilgan cho'ntak soatini oldi. Nihoyat, poyabzal solinadigan karton qutidan o'zining oltita – ikkita oltin, bitta kumush, qolganlari shunchaki temirdan ishlangan ordenlarini oldi.

– Menda qolgan narsalarning bori shu, – dedi u.

Nima ham qilardi, davolanish haqini to'lash uchun ularni sotishga to'g'ri kelgandi. U Omeroning bu katta sirni saqlagan holda o'ziga yordam berishini xohlayotgan edi. Ammo Omero iltimosni do'kondan patta olmasdan bajara olmasligini aytdi.

Prezident bu buyumlar xotiniga tegishli ekanini, unga mustamlaka yillaridan, buvisidan meros bo'lib qolganini aytdi. Buvi bo'lsa, o'z navbatida, Kolumbiyadagi tilla konlari hissasini meros tariqasida olgandi. Soat, zaponka va galstuk to'g'nag'ichlari uning o'ziniki. Ordenlar bo'lsa, tabiiyki, oldin hech kimga tegishli bo'lmagan.

– Kimdir bu narsalarga da'vogar bo'ladi deb o'ylamayman, – dedi u.

Omero o'z so'zida turib oldi.

– Unday bo‘lsa, – dedi prezident, – hammasini o‘zim qilishimdan boshqa chora yo‘q.

U xotirjamlik bilan javohirlarni yig‘ishtira boshladi.

– O‘tinaman, azizim Omero, meni afv eting, faqir prezidentning qashshoqligidan dahshatliroq narsaning o‘zi yo‘q, – dedi u. – Hatto, tirik yurishning o‘zi ham nomaqbul.

Shunda Omeroning qalb ko‘zi ochildi va u taslim bo‘ldi.

Shu kuni Lasara uyga kech qaytdi. Ostonadan hatlar-hatlamas, mehmonxonada yaltirayotgan javohirlarga ko‘zi tushib, to‘shagida chayon ko‘rganday qotib qoldi.

– Maynavozchilikni bas qil, hoy bola, – dedi u qo‘rqa-pisa. – Bu narsalar qayerdan kelib qoldi?

Omero hamma gapni tushuntirgandan keyin battar xavotirlandi. U o‘tirib olib, javohirlarni go‘yo zargardek bitta-bitalab sinchiklab tekshira boshladi. Nihoyat, tin oldi. „Aftidan, dunyoning boyligi bo‘lsa kerak“. Omeroga tikilib qoldi, nima gapligini tushunib yetmoqchi bo‘ldi, lekin u gangib qolgandi.

– Jin ursin, – dedi u. – Bu odam to‘g‘risini aytyaptimi-yo‘qmi, qanday tekshirish mumkin?

– Nega endi to‘g‘risini aytmas ekan? – dedi Omero. – Haligina o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. U kirini o‘zi yuvib, xuddi biz singari xonasida quritar ekan.

– Bu ochko‘zlikdan, – dedi Lasara.

– Yoki kambag‘allikdan, – dedi Omero.

Lasara yana javohirlarni ko‘zdan kechira boshladi, lekin endi oldingiday diqqat qilmayotgandi. Dili vayron bo‘ldi. Shunday qilib, ertasiga o‘zicha eng qimmat ko‘ylaklarini kiygan, bo‘yniga taqinchoqlarni osgan, har ikkala qo‘lining barmoqlariga, hatto bosh barmog‘iga siqqanicha uzuk taqqan, bilaklariga bilakuzuk solgan holda, u javohirlarni sotgani ketdi. „Qani, ko‘raylik-chi, Lasara Devis-

dan kim patta so‘rar ekan“ dedi u gerdayib uydan chiqarkan va kulib qo‘ydi. U ataylab hashamatli bo‘lmagan odmiroq tilla do‘konni tanladi, chunki bu yerda ortiqcha savol berib o‘tirmasdan tilla buyum olib-sotishlarini bilardi. Lasara ichida qo‘rquv bo‘lsa-da, do‘konga shaxdam qadam tashlab kirdi.

Forma kiygan ozg‘in va rangpar sarkor uni tavoze bilan kutib oldi, qo‘lini o‘pib, xizmatga shay ekanini aytdi. Do‘konning ichkarisi kunduzgidan yorug‘ bo‘lib, oynalar va yorqin chiroqlardan hamma yoq brilliantga to‘lib ketganday bo‘lib tuyulardi. Lasara hiylasini sezib qolishidan cho‘chib, sarkorga deyarli qaramay, do‘kon to‘riga yo‘naldi.

Sotuvchi Lyudovik XV zamonasi uslubiga xos, xususiy peshtaxta sifatida ishlatiladigan uchta stolning biri ortiga o‘tirishni taklif qildi va oldiga oppoq sochiq yozdi. O‘zi bo‘lsa uning ro‘parasiga o‘tirib, kuta boshladi.

– Xo‘sh, xizmat?

Lasara uzuklar, bilakuzuklar, dur-u isirg‘alarni taqib, osib kelgan javohirlarining barchasini peshtaxta ustida shaxmat tartibida qo‘yib chiqdi. O‘zi bu narsalarning haqiqiy qiymatini bilishni xohlayotganini aytdi.

Zargar chap ko‘ziga monoklni qistirdi va javohirlarni tekshira boshladi. Tekshirishda davom etar ekan, nihoyat, so‘radi:

– O‘zingiz qayerlik bo‘lasiz?

Lasara bunday savolni kutmagandi.

– O, senor, – uf tortdi u. – Uzoqdan.

– Men ham shunday bo‘lsa kerak, deb o‘ylagandim.

Sotuvchi yana jim qoldi, Lasara bo‘lsa sariq ko‘zlari bilan unga teshib yuborguday tikilib o‘tiraverdi. Zargar brilliant tillaqoshga alohida e‘tibor berdi va uni boshqalardan ajratib qo‘ydi. Lasara xo‘rsindi.

– Sizning parizod ekaningiz ochiq-oydin ayon bo‘lib

turibdi, – dedi u.

– Bu gapni qayerdan oldingiz?

– Xatti-harakatlaringiz aytib turibdi, – dedi Lasara.

Zargar javohirlarni tekshirib bo'lguncha boshqa hech narsa demadi, so'ngra xuddi oldingiday rasmiy sipolik bilan Lasaraga murojaat qildi:

– Bularni qayerdan olgansiz?

– Buvimdan meros qolgan, – dedi Lasara ovozida be-toqatlik ohangi paydo bo'lib. – U o'tgan yili Paramariboda vafot etdi, to'qson olti yoshga kirgandi.

Shunda zargar uning ko'zlariga tikildi.

– Qattiq afsusdaman, – dedi u. – Bu narsalarning yagona qiymati oltinligiga, ya'ni vazniga ko'ra.

U barmoq uchida tillaqoshni ko'tardi. Tillaqosh ko'zni qamashtirguday yaraqlab ketdi.

– Mana shundan boshqasi, – dedi u. – Bu juda qadimiy narsa, Mismiki bo'lsa kerak. Brilliantlari unniqmaganida uning bahosi yo'q bo'lgan bo'lardi. Lekin, baribir, u tarixiy ahamiyatga molik. Boshqa taqinchoqlardagi toshlar – safsarlar, zumradlar opallarning hammasi istisnosiz soxta. Shubhasiz, oldiniga ularning o'mida haqiqiy toshlar bo'lgan. – Zargar Lasaraga qaytarib berish uchun javohirlarni yig'ishtira boshladi. – Lekin bu narsalar avloddan avlodga o'tavergan, haqiqiy toshlar yo'qolib, o'rnini shisha egallagan.

Lasaraning ko'ngli behuzur bo'lib ketdi, chuqur tin oldi va qo'rquvini bosdi. Sotuvchi unga tasalli berdi:

– Bunaqa ishlar tez-tez bo'lib turadi, senora.

– Bilaman, – dedi Lasara tinchlanib. – Shuning uchun ham ulardan qutulmoqchiman.

Shu chog'da u o'yin tugaganini his qildi va o'zini tutib oldi. Ortiqcha sipogarchilik qilib o'tirmay, sumkasidan zaponka, cho'ntak soatlari, galstuk to'g'nog'ichlari, oltin

va kumush ordenlarini prezidentning barcha qaqir-ququrini olib, stol ustiga qo'ydi.

– Bularni hammi? – so'radi zargar.

– Ha, hammasini, – dedi Lasara.

Unga haqini yap-yangi shveysariya pullari bilan to'lashdi. Hatto, Lasara pullarning yangi bo'yog'i barmoqlarimni kir qilmasmikan, deb cho'chidi. U pulni sanamay oldi. Zargar bo'sag'ada ayol bilan qanday sipolik bilan salomlashgan bo'lsa, shunday xayrlashdi. Oyna eshikni ochib, uni o'tkazar ekan, xiyol imilladi.

– Oxirgi gapni aytay, senora, – dedi u, – men suvchi-man.

Shu oqshomda Omero Lasara bilan birga pulni mehmonxonaga olib borishdi. Qayta-qayta sanashdan keyin ma'lum bo'ldiki, yana ozroq pul yetmas ekan. Shunda prezident nikoh uzugi, zanjirli cho'ntak soati, zaponka va gals-tuk to'g'nog'ichini chiqarib, to'shakka qo'ydi.

Lasara nikoh uzugini qaytarib berdi.

– Faqat bu emas, – dedi u. – Xotira sotilmaydi.

Prezident uning vaj-korsonini to'g'ri deb topdi va uzukni barmog'iga taqdi. Lasara cho'ntak soatini qaytib berdi. „Buni ham“, – dedi u. Prezident bu gapga qo'shilmadi, lekin Lasara soatni joyiga solib qo'ydi.

– Shveysariyada kim ham soat sotishi mumkin?

– Biz bittasini sotdik-ku, – dedi prezident.

– Lekin soat bo'lgani uchun emas tilla bo'lgani uchun olishgan.

– Bunisi ham tilladan, – dedi prezident.

– Ha, shunday, – dedi Lasara. – Lekin siz operatsiya qilinmasangiz ham yashay olasiz, soatsiz yashay olmaysiz.

Garchi prezidentning boshqa, muguz ko'zoynagi bo'lsa-da, Lasara tilla gardishli ko'zoynagini olmadi. Ayol buyumlarni kaftida salmoqlab ko'rdi va shubhalarga chek

qo'ydi.

– Bo'ldi, – dedi u. – Shular yetadi.

Eshikdan chiqishdan oldin bir og'iz so'zlamay, dorga osig'liq ho'l kiyimlarini yig'ishtirib oldi, quritish va dazmollash uchun olib ketdi. Ular mototsiklda, Omero rulda, Lasara orqada belidan quchgan holda ketishdi. Oqshom osmon qizg'ish tusga kirganida ko'cha chiroqlari yondi. Shamol daraxtlarning so'nggi yaproqlarini ham uchirib ketdi va ular pati yulingan qushga o'xshab qoldi. Rona daryosi bo'ylab quyiga suzib ketayotgan yuk kemasida radio varanglab, sohil bo'yi ko'chalarini musiqaga to'ldirdi. Jorj Brassen kuylayotgan edi:

„Mon amour tient la barre, le temps va passer par la, et le temps est un barbare dans le genre d' Attila, par la où son chèvre passe l amour ne repousse pas“¹ Omero bilan Lasara ashuladan va so'limaydigan sunbullar hididan sarmast holda churq etmay ketib borishardi. Biroz vaqt o'tgandan keyin Lasara uzoq uyqudan uyg'onganday bo'ldi.

– Jin ursin, – dedi u.

– Nima demoqchisan?

– Sho'rlik qariya, – dedi u. – Bu hayot degani b...ning o'zginasi!

* * *

Keyingi juma kuni, yettinchi oktabrda prezidentni operatsiya qilishdi. Besh soat davom etgan operatsiyadan keyin ham ahvol oldin qanday bo'lsa shunday mujmalligicha qolaverdi. Gapning po'skallasini aytganda, uning tirik qolgani yagona tasalli edi. O'n kundan keyin prezident-

¹ Biz sevgini yo'llarga o'xshatamiz, vaqt yo'ldan o'tib boradi, vaqt – vahshiy, xun Atilla qo'shini bilan Rimga bostirib borayotir. Sevgi, sen meni uning otining tuyoqlari ostiga tashlaysan.

ni umumiy palataga o'tkazishdi. Endi uni borib ko'rish mumkin edi. U tamomila boshqa: parishon, ozib-to'zgan, siyrak sochlari yostiqqa tegishi bilan to'kiladigan odamga aylangandi. Uning birinchi marta bir juft maxsus ortopedik qo'ltiqoyoq yordamida yurishga uringanini ko'rib, kishining yuragi ezilib ketardi. Lasara kechki sanitarkaga pul ketkazmaslik uchun palatada tunab qoldi. Kasallardan biri o'limdan qo'rqib, kechasi bilan baqirib chiqdi. Bedor o'tgan bu kechalar Lasaraning qalbidagi prezidentga nisbatan so'nggi g'azab qoldiqlarini tag-tomiri bilan quritdi.

Prezidentga kasalxonadan chiqishga ruxsat berishganda uning Jenevaga kelganiga rappa-raso to'rt oy to'lgandi. Prezidentning taqchil mablag'larining tejamkor boshqaruvchisi bo'lgan Omero kasalxona xarajatlarini to'ladi, o'zining „Tez yordam“ karetasida uni o'z uyiga olib bordi va ko'makka kelgan hamkasblari bilan uni sakkizinchi qavatga olib chiqdi. Ular prezidentni bolalarning xob xonasiga joylashtirdilar va prezident asta-sekin tuzala boshladi. U harbiylarcha intizom bilan tiklovchi mashqlar qilardi, so'ngra asta-sekin hassasiga suyanib yura boshladi. Lekin endilikda, hatto po'rim kiyimda u tashqi ko'rinishi bilan ham hulq-atvori bilan ham oldingisiga hecham o'xshamasdi. Qish sovug'idan cho'chib (qish qattiq keladi deyishgandi, darhaqiqat, bu keyingi yuz yil ichida eng qahraton qish bo'ldi) vrachlarning yana biroz vaqt kuzatuvda tutish niyatiga qaramay, o'n uchinchi dekabrda Marseldan jo'nardigan kemada uyga qaytishga qaror qildi. Oxirgi lahzalarda unga pul yetmasligi ma'lum bo'lib qoldi va Lasara eriga bildirmay, bolalar uchun yig'ib qo'ygan pulidan ozroq qo'shmoqchi bo'ldi. Ammo qarasa, o'zi o'ylaganidan kamroq pul qolgan ekan. Shunda Omero unga bildirmay, bu pullarning bir qismini kasalxona xarajatini to'lashga sarflaganini tan oldi.

— Mayli, — yon berdi Lasara. — Uni bizning katta o'g'limiz deb hisoblab qo'ya qolamiz.

Qorbo'ron quturib turgan o'n birinchi dekabr kuni ular prezidentni Marselga boradigan poyezdga o'tqazishdi. Uyga qaytib kelishganida esa bolalar xonasidagi kichik javon ustida uning vidolashuv maktubini topishdi. O'zining nikoh uzugini va marhum xotining sotishni hech qachon xayoliga ham keltirmagan uzugini Barbaraga, zanjirli soatni esa, Lasaraga qoldirgan edi. Prezidentning ketadigan kuni yakshanbaga to'g'ri keldi va sirdan allaqachon voqif bo'lgan kariblik ba'zi qo'shnilar arfa chaladigan verakruslik sozandalar bilan Kornaven vokzaliga kelishdi. Prezident unniqib ketgan palto va ilgarilari Lasaraniki bo'lgan uzun, rangdor sharfda hansirab nafas olayotgan bo'lsa-da, oxirgi vagonning ochiq tamburida turgancha bo'ralab yog'ayotgan qor ostida kuzatuvchilarga shlapasini silkitib ketdi. Omero qo'lida prezidentning hassasi qolganini to'satdan sezib qolganida, poyezd tezlikni oshirgan edi. Omero platforma oxirigacha chopib bordi va prezident ilib olishi uchun hassani bor kuchi bilan otdi, lekin hassa g'ildirak tagiga tushib, bo'lak-bo'lak bo'lib ketdi. Bu juda ayanchli manzara edi. Lasaraning eng oxirida ko'rgani — hassani tutishga uringan, lekin tutolmagan qaltiragan qo'llar va havoda muallaq qolgan, boshdan oyoq qorga belangan qariyani sharfidan ushlab qutqarib qolgan yo'l boshlovchi bo'ldi. Ko'zlari yoshga to'la bo'lsa-da, kulishga uringan Lasara dahshatga tushib, eri tomonga oshiqdi.

— Yo, Xudoyim-ey, — hayqirdi u. — Uni oladigan ajalning o'zi yo'q.

Prezident uzundan uzoq minnatdorchilik telegrammasida yozganida, manzilga eson-omon yetib borgandi. Keyin bir yildan ko'proq vaqt ichida ular u haqida xabar eshitishmadi. Undan so'ngra qo'lda yozilgan olti sahifalik

maktub keldi. Bu xatni tamomila boshqa odam yozgan-ga o'xshardi. Yana ilgarigisiga o'xshash qattiq va ketmas og'riqlar boshlangan, lekin u bunga parvo qilmay, boriga shukur qilib yashashga qaror qilgandi. Shoir Eme Sezar unga yaltiroq qadama naqshli hassa sovg'a qildi, lekin u hassa ishlatmaslikka qaror qildi. Mana olti oy bo'ldiki, u muntazam suratda go'sht iste'mol qiladi, kuniga yigirma finjon eng achchiq qahvadan ichadi. Lekin qahva quy-qasiga qaramaydigan bo'ldi, chunki ochilgan follarning teskarisi bo'lib chiqdi. Yetmish besh yoshga to'lgan kuni u bir necha qadah zo'r martinika romi ichdi, o'zini juda yaxshi his qildi va yana chekishni boshlab yubordi. Al-batta, uning ahvoli yaxshilangani yo'q, lekin yomon ham bo'lmadi. Biroq maktub yozishdan maqsadi adolat va Va-tan shon-shuhrati uchun yangidan boshlangan harakatga boshchilik qilishdir, balki. Ehtimol, keksalik to'shagida o'lib ketmaslikdek mag'rurona istak uchungina Vatanga qaytishga harakat qilayotganini ularga bildirish bo'lgan-dir. Shu ma'noda, deb yakunlangandi u maktubini, Jeneva safari uning uchun tub burilish bo'lgandi.

MUNDARIJA

Nashriyotdan.....	3
To'kilayotgan yaproqlar (<i>Qissa</i>).	
<i>Shahnoza Rahmonova tarjimasi</i>	5
Oq yo'l, janob prezident (<i>Hikoya</i>).	
<i>Boboxon Muhammad Sharif tarjimasi</i>	125

GABRIEL GARSIA MARKES

TO'KILAYOTGAN

yaprog'lar



ZIYO NASHR



t.me/ziyonashr




fb.com/ziyo.nashr



ziyonashr@mail.ru



ISBN 978-9943-6340-4-



9 789943 634046